



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2024, № 2

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda
№ 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Abdug'appon QIRQIZBOYEV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Xolboy IBRAGIMOV
Laylo AXMEDOVA
Roxatoy SAFAROVA
Leyla DJURAYEVA
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir AKBAROV
Komiljon KARIMOV
Komiljon GULYAMOV

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **R.X.Djurayev**
Uzluksiz ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarda ijtimoiy-ma'naviy madaniyatni shakllantirish
- 7 **U.B.Abdiyev**
Fizika ta'limida nanotexnologiyaga oid materiallardan foydalanish
- 12 **A.O.Temirov**
Modulli tizim sharoitida pedagogik o'lchovlarni baholash texnologiyalari
- 16 **B.B.Ishmo'minov, Sh.T.Yakubjonova**
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini ekologik ta'limga tayyorlash muammolari
- 20 **N.J.Abdusamatova**
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab ta'limi integratsiyasi asosida katta va tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga tayyorlash
- 25 **M.Irgashova**
Uzluksiz ta'lim jarayonida talabalarni milliy tarbiya ruhida tarbiyalash
- 30 **Z.Uchкурова**
Talabalarning mustaqil ta'lim ishlarni baholashning usullari va vositalari
- 34 **H.O.Tursinboyeva**
Laboratoriya darslarini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar
- 38 **V.O.Raxmonova**
Uzluksiz ta'lim tizimi uzviyligini ta'minlashda klaster yondashuv
- 43 **Г.Иброхмуханова**
Работа специалистов в дошкольных образовательных организациях в условиях инновационной среды

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 47 **Z.D.Rasulova**
Masofaviy va an'anaviy ta'lim uzviyligi asosida talabalarda kreativlikni rivojlantirish
- 52 **З.Каримова**
Обучение грамматике иностранного языка как инструмент информационно-коммуникационной технологии

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 58 **D.I.Xodjakulova**
Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligining psixologik jihatdan o'rganilishi
- 64 **Sh.X.Saidmuratov**
Botanika fanini o'qitishda mustaqil ta'limni samarali tashkil etish metodikasi
- 69 **R.X.Korshubaeva**
Shaxs rivojlanishida o'z-o'zini anglashning o'rni va o'z-o'zini hurmat qilish darajasini oshirishda ota-ona va o'qituvchilarga qo'yiladigan talablar
- 75 **Sh.D.Xonbabayev**
Kompetentli yondashuv asosida o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish zarurati
- 80 **S.I.Oulmatov, Sh.A.Xudoynazarov**
Psixologik sog'lom oila – kelajak poydevori
- 85 **X.G.Ostonova**
Malaka oshirish institutlarida ta'lim sifatini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish
- 89 **D.I.Alibekov**
O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender madaniyatni rivojlantirish
- 94 **A.A.Hamidov**
O'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari
- 99 **O.I.Qarshiyev, Sh.M.Qaraxonova**
Kasbiy-pedagogik ta'lim tizimi uzluksizligi va uzviyligini ta'minlashda ta'lim metodlarining o'rni
- 103 **A.A.Nurmatov**
Bo'lajak o'qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajalari
- 107 **A.A.Samadov**
O'zgaruvchan ta'lim paradigmasi sharoitida harbiy ta'lim o'qituvchisining kasbiy mahoratini takomillashtirish



UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA TA'LIM OLUVCHILARDA IJTIMOYIY-MA'NAVIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

R.X. DJURAYEV,

O'zPFITI bo'lim mudiri, O'zRFA akademigi, p.f.d.

Maqolada uzluksiz ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarda ijtimoiy-ma'naviy madaniyatni shakllantirishning zaruriyati, bunda vatanparvarlik tarbiyasining tutgan o'rni yoritilgan.

Tayanch so'zlar: uzluksiz ta'lim, ijtimoiy-ma'naviy madaniyat, tarbiya, vatanparvarlik tarbiyasi.

В статье раскрывается роль воспитания патриотизма, необходимость формирования у учащихся социально-духовной культуры в процессе непрерывного образования.

Ключевые слова: непрерывная образования, социально-духовная культура, воспитания, воспитания патриотизма.

The article highlights the need for students to form a socio-spiritual culture, as well as the education of patriotism in the process of continuous education.

Key words: *continuous education, socio-spiritual culture, education, education of patriotism.*

Bizning kelajagi buyuk davlatimiz ana shu Sharq madaniyati va islom ma'naviyati bilan uzviy aloqada Ahmad Yassaviy, Bahovaddin Naqshband, al-Buxoriy, at-Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir ajdodlarimiz merosiga tayangan holda shakllanishi lozim. Biz uzluksiz ta'lim jarayonida yoshlarda vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashimiz, yuksak xalq ijtimoiy-ma'naviy madaniyati nima ekanini yoshlar ongiga singdirishimiz zarur.

Ijtimoiy-ma'naviy madaniyat nima? – Ijtimoiy ma'naviy madaniyat jamiyatda shakllangan va e'tirof etilgan axloq-odobga oid me'yorlar, yuksak ma'naviy-ma'rifiy qarashlar va bilimlarga asoslangan madaniy prioritet, o'zlikni anglash, Vatan tuyg'usiga ega bo'lish demakdir. Bunda bolalikdan olingan ta'lim-tarbiya, o'quv jarayonining muhim vositalari hisoblanuvchi darslik, qo'shimcha o'quv materiallari, dars ishlanmalari muhim o'rin tutadi. Birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fanlarni, jumladan, «Tarbiya» fanini o'qitishda g'oyaviy mafkurani tarbiyalash, bunda nomlari tarix zarvarag'iga oltin harflar bilan bitilgan, har birining yaratgan asarlari o'zbek milliy madaniyatida katta o'rin egallagan ulug' mutafakkirlarimizning ma'naviy-axloqiy merosidan foydalanish zarur.

Yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashning eng muhim omillaridan biri vatanparvarlik tarbiyasi bo'lib, yoshlar qalbiga Vatan tuyg'usini singdirish yo'li bilan



ularida ijtimoiy-ma'naviy madaniyatni tarkib toptirish mumkin. Ota-bobolarimizning hayot yo'li, Vatan himoyasi yo'lida hayotini fido etgan tarixiy qahramonlarning ibratli jasoratlari, allomalarning vatanparvarlik, el-yurt manfaati, baxt-saodati yo'lida fidoyilik ko'rsatish haqidagi, mardlik va jasoratni ulug'lovchi hikmatli so'zlari va fikrlaridan o'quv materiali sifatida foydalanish maktabda bolalik va o'smirlik davrida o'quvchilarga vatanparvarlik g'oyalari singdirishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ham yosh kadrlarni tanlash va tayyorlashga qo'yilgan talablar doirasida vatanparvarlik, halollik kabi fazilatlarini tarbiyalashning zaruriyatini alohida ta'kidlaydilar: «Yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyatli, tashabbuskor, ilg'or boshqaruv usullarini puxta o'zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratilmas ekan, davlat boshqaruvida sifat o'zgarishi yuz bermaydi»[1].

«Vatanni sevmiq iymondandur» («Hubbul – vatanni minal imoni») deya uqtiriladi muqaddas hadisda. Haqiqatan Vatanga muhabbat bilan yongan qalblarda o'tkinchi, bema'ni hoyu-havaslariga qiziqish bo'lmaydi. Bunga vatanparvar, oqil, ma'rifatparvar, xalq va Vatan ozodligi yo'lida ham o'tkir qalami, ham siyosiy faoliyati bilan birdek kurash olib borgan, butun ongli hayotini, hatto shirin jonini Vatan ozodligi yo'lida qurbon qilgan Abdurauf Fitratning Vatanga samimiy munosabati ifodalangan quyidagi satrlari misol bo'laoladi: «Ey, ulug' Turon... Sen mening Vatanimsan... Yurtim, Turonim, sendan ayrilmoq- mening o'limim. Sening uchun o'lmoq – mening tirikligimdur. Panohim, sajdagohim, umidim! Yotlaring seni shu kuyga soldilar... Zolimlar seni kimsasiz ko'rdilar! Yo'q, sen kimsasiz emassan. Mana men, chin ko'ngil bilan sening yo'lingda o'lurg'a rozi... Men sening uchun yasharman, sening uchun o'lurman.

Ey, turklikning muqaddas o'chog'i! O'lim sening o'limingni istaganlarga, nafrat seni ko'mgani kelganlarga!».

Ulug' allomalar ijodida xalq va Vatan tushunchasi hamisha yonma-yon keladi. Odamlarga yaxshilik qilish – Vatanga xizmat qilish deb tushuniladi. Demak, Vatanni sevmiq – bu o'z elini sevmiq va uning xizmatiga shay turmoqdir:

Davron elining jismida ham jon bo'lg'il,

Ham jonlarig'a moyai darmon bo'lg'il[2]. -

ya'ni, "Zamon ahlining jismida jon bo'l, ham jonlariga darmon bo'l"
deya uqtiradi she'riyat mulkingning sultoni Alisher Navoiy.

«Vatanni shod etish uchun ko'p qayg'uring» deya ta'kidlaydi oqila momolarimizga ilm-ma'rifat bergan ustoz Dilshod Barno. Vatanga muhabbat va fidoyilik tuyg'usi uning she'rilarida o'zgacha shukuh bilan jaranglaydi:



***O'zungni o'ylama tanho, el ichra sodiq bo'l,
No'xotcha yetsa ziyoning, o'zing hayotdan kech[3].***

Vatanga va xalqqa muhabbat egizak tushunchalardir. Kimki Vatanni sevsa, xalqining og'ir-yengil yumushiga kamarbasta, inson zotiga mehr-muhabbatli, yurt ravnaqi yo'lida g'ayrat-shijoatli bo'ladi. Yurt ozodligi va xalq farovonligi yo'lida fidoyilik ko'rsatib, xalqqa yaxshilik qilishni shiori deb bilib, shu bilan xalq nazar-e'tiborga tushgan shoir Berdaq ta'kidlab aytganidek:

***Yaxshi bo'lsang, murodingga yetarsan,
Necha manzil, xavfli joydan o'tarsan,
Yomon bo'lsang, ohu fig'on etarsan,
Yomonni uchratsang, daf qil xalq uchun.***

Insoniyat tarixida odamzodga yaxshilik qilishni odat qilgan, bu fazilatni insonning eng muhim fazilati sifatida yuksaklarga ko'targan mutafakkir Abu Ali Ibn Sinoning o'rmini alohida qayd etish joizdirki, u xalqning salomatligi uchun qayg'urib, kasal kishilar dardiga davo izlab, hamisha darbadarlikda hayot kechirgan ulug'alloma hisoblanadi. «Arastuning shogirdi ham bo'lmasdan, o'zining aql-iste'dodi va zehni bilan Arastuga barobar» bo'lgan Abu Ali Ibn Sino (980-1037) tibbiyot va fanning turli sohalariga oid bilimlardan tashqari, insonga xos go'zal fazilatlarga oid go'zal pand-nasihatlarni ham meros qoldirdi. Uning fikrlari ma'naviy-axloqiy qadriyatlar sohasida ilg'or qarashlar ilgari surilgani bilan e'tiborga molikdir. Ibn Sinoning fikricha, «Do'stlik insonning shunday bir holatidirki, bunda boshqa birovga yaxshilik istaladi, shunda inson yaxshilikni o'zi uchun istamaydi, balki uni boshqa birov uchungina istaydi, xolos. Shu holatda kishida boshqaga nisbatan yaxshilik qilishga chaqiruvchi xususiyat paydo bo'ladi. Do'st bu yaxshi ko'ruvchidir. Do'st o'z do'stining xursandligida ham, baxtsizlik kezlarida ham qayg'u va shodligiga sherik bo'ladi». Shu sababli o'z faoliyati misolida insoniyat dardiga shifo izlagan Ibn Sinoning quyidagi fikrini ibratli va ta'sirchan fikr sifatida yoshlarga taqdim etish lozim deb bilamiz: «Kishidagi eng yaxshi xulq-atvor odamlarning qayg'u-hasratiga sherik bo'lishdir». Yaxshilikni Vatan timsoli bilan bog'lagan inson adashmaydi. Chunki ezgu tushunchalarning barchasi Vatan siymosi bilan uyg'un tarzda idrok etiladi.

Vatan inson ko'z ochib ko'rgan ona maskan, bolalik va yoshligining eng go'zal xotiralari o'tgan bog'u bo'ston, qadrdon qishlog'i, farovon shahridir. Ota-ona, oila, ona tili, mahalla-ko'y, maktab, madaniyat va ma'rifat, umuman, inson qadrlaydigan va qumsaydigan barcha oliy tuyg'ular Vatan va xalq tushunchasi bilan uyg'unlikda asl



ma'no kasb etadi. Vatan farovonligi uning bag'ridagi har bir kishining erkin va ozod, turmush mashaqqatlaridan xoli, bemalol, o'z orzu-maqسادi yo'lida g'ayrat-shijoat bilan mehnat qilish, tabiat go'zalligidan rohatlanish baxtiga erishishga sharoit yaratadi. Shu sababli, dono xalqimiz «Vataning tinch- sen tinch» deb aytadilar.

Ta'kidlash joizki, umumiy o'rta ta'lim bosqichida o'quvchilarda Vatanga muhabbatni shakllantirishda, yoshlarda ijtimoiy odob-axloqni tarbiyalashda «Vatan tuyg'usi» o'quv predmeti muhim o'rin egallaydi. Ushbu fan bo'yicha o'quv dasturi va rejasida o'quvchilarni Vatanga muhabbatli, oilasi, do'stlari va qarindoshlariga sadoqatli, Vatan xizmatiga kamarbasta, mard va jasoratli, komil inson qilib tarbiyalashga katta e'tibor berilgan.

Umumta'lim maktablarida uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida o'rganiladigan «Tarbiya» fanini o'rganish jarayonida o'quvchilarda Vatan, jamiyat haqidagi tushunchalar kengayadi, hayotiy tushunchalar bilan boyib boradi.

Albatta, «Tarbiya» o'quv predmeti mohiyatiga ko'ra xalqning ma'naviy-axloqiy tarixidan ibrat olishga, bolalarda Vatan tuyg'usini shakllantirishga, ularni xalqimizning eng yaxshi an'analari asosida tarbiyalashga qaratilgan fandır.

Vatanparvarlik tarbiyasida o'quvchilar Vatan tuyg'usi – insonning, xalqning va davlatning kuch-qudratini ta'min etishi, ona tili – ma'naviyat, mustaqillik, faxr-iftixor manbai ekanligi, vatanparvarlik ma'rifati xalq tarixi, madaniyati va bugunki kundagi vazifalarini chuqur bilib olish va ularga rioya etishda namoyon bo'lishi; Vatanga muhabbat turli xalq va mamlakat kishilarini do'stlashtirish, qon-qarindosh qilish qudratiga ega ekanini, aksincha Vatan tarqqiyotiga zid yo'nalishlar, buzg'unchi g'oya va mafkuralar xalq hayotiga xavf soluvchi illat ekanini bilib olishi g'oyat muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ёшларга донолар ўғити. Ўзбекистон ёшлар иттифоқи. Республика истеъдодли ёшларни қўллаб-қувватлаш Улуғбек жамғармаси.- Т.: Ф.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018.- 146 б..
2. Алишер Навоий. Ҳикматлар. - «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2006 й. - 223 б.
3. Билол Аминов, Тўлқин Расулов. Ватан- юракдаги жавоҳир. - Ўқитувчи нашриёти, 2001 й. - 232 б.
4. Исмоилбек Гаспринский. Ҳаёт ва мамот масаласи. - Т.: Маънавият, 2006.- 459 б.



FIZIKA TA'LIMIDA NANOTEXNOLOGIYAGA OID MATERIALLARDAN FOYDALANISH

U.B.ABDIYEV,

TerDU Nazariy fizika kafedrasini mudiri

Maqolada maktab fizika kursida nanotexnologiya elementlariga oid yangi materiallardan foydalanib, o'quvchilarning ilmiy-ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha metodik taklif va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, maktab fizika kursida nanoob'ektlarning fizik va kimyoviy xossalari interfaol metodlar va multimediali ta'lim vositalaridan foydalanib o'qitish imkoniyatlari o'rganilgan. Bundan tashqari nanotexnologiyaga oid materiallardan foydalanish asosida o'quvchilarda ilmiy-ijodkorlik, konstruktorlik va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha metodik takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: nanozarra, nanoklaster, nanotexnologiya, bilim, ko'nikma, kompetensiya, interfaol metodlar, tabiiy hodisa va jarayonlar.

В статье представлены методические предложения и рекомендации по развитию научных и творческих способностей учащихся с использованием новых материалов, связанных с элементами нанотехнологий, в школьном курсе физики. Также в школьном курсе физики изучались возможности обучения физическим и химическим свойствам нанообъектов с использованием интерактивных методов и мультимедийных образовательных средств. Кроме того, на основе использования материалов, относящихся к нанотехнологиям, разработаны методические предложения по развитию научного творчества, конструирования и самостоятельного мышления школьников.

Ключевые слова: наночастица, нанокластер, нанотехнологии, знания, умения, компетентность, интерактивные методы, природные явления и процессы.

The article presents methodological proposals and recommendations for the development of students' scientific and creative abilities using new materials related to elements of nanotechnology in a school physics course. Also, in the school physics course, the possibilities of teaching the physical and chemical properties of nanoobjects using interactive methods and multimedia educational tools were studied. In addition, based on the use of materials related to nanotechnology, methodological proposals have been developed for the development of scientific creativity, design and independent thinking of schoolchildren.

Key words: nanoparticle, nanocluster, nanotechnology, knowledge, skills, competence, interactive methods, natural phenomena and processes.

Ma'lumki, keyingi yillarda barcha sohalarda nanotexnologiya, nanotibbiyot, nanomaterialshunoslik, nanofizika, nanokimyo va nanobiologiya kabi yangi terminlarga ko'p duch kelayotganligimiz hech kimga sir emas. Ayniqsa uzluksiz ta'lim tizimida nanofanga oid yangi o'quv va ilmiy materiallardan foydalanilmoqda. Eng avvalo, nanotexnologiya terminiga to'xtalamiz. Nanotexnologiya so'zi aslida 3 ta so'z



birikmasidan iborat bo‘lib, nano-10-9 m o‘lcham, texno-techne – «San‘at, mahorat, bilish» va logiya – logos – «Fan» so‘zlarini anglatadi. Demak, nanotexnologiya termini ma‘nosi nanoo‘lchamdagi zarralar, obyektlarni hosil qilish, ular asosida materiallar, mahsulotlar ishlab chiqish, tayyorlash, ularga turli ishlovlar berish kabilar tushuniladi.

Nanotexnologiyaga turli ta‘riflar mavjud, chunki turli sohadagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishlari xodimlari o‘zlarining ilmiy izlanishlari va xulosalari asosida ta‘riflashadi. Umumiy holda quyidagi ta‘rifni keltirish mumkin. Nanotexnologiya – nanoo‘lchamdagi zarralar asosida tarkib topgan mahsulotlarni eng kichik zarra holatidan joylashtirish yo‘li bilan hosil qilish, ishlab chiqarish usul va metodlar yig‘indisidir. Ya‘ni nanozarra holatidan ularni nazarot qilish va boshqarish asosida nanomateriallar va nanomahsulotlar hosil qilish barcha usullari tushuniladi.

Fizikada nanotexnologiya elementlarini o‘rganishda dastavval nanozarraning fizik - kimyoviy xossalari, olinish usullari va texnologiyalari, nanozarralardagi fizik effektlar va qonuniyatlarga oid dastlabki bilimlarga ega bo‘lish zarur. Klassik va kvant fizikasi fundamental qonunlarida elementar zarralarda bo‘ladigan fizikaviy jarayonlarning mazmun mohiyati to‘liq tushuntiriladi. Biroq nanozarra o‘lchamidagi ob‘ektlarda bo‘ladigan fizik jarayonlarni yetarlicha yoritib bera olmaydi. Chunki juda ko‘p moddalarda nanoo‘lcham holatida makro jism holatiga nisbatan umuman boshqa effektlar, jarayonlar namoyon bo‘ladi. Avvalom bor nanoo‘lchamdagi zarralar va ularning o‘lchamlari va zarralar (atomlar) soniga qarab guruhlanishini ko‘rib chiqaylik. Nanozarralardan iborat bo‘lgan hamda diametri va atomlar soniga nisbatan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

– diametri 0,1÷0,3 nm va atomlar soni 1÷10 gacha bo‘lganda – alohida atomlar ko‘rinishida bo‘ladi;

– diametri 0,3÷10 nm va atomlar soni 10÷106 gacha bo‘lganda – klasterlar ko‘rinishida bo‘ladi;

– diametri 10÷100 nm va atomlar soni 106÷109 gacha bo‘lganda – Nanozarralar ko‘rinishida bo‘ladi;

– diametri 100 nm dan ortiq va atomlar soni 109 dan ortiq bo‘lganda – Moddalar ko‘rinishida bo‘ladi.

Ushbu o‘lchamlar va atomlar soniga qarab nanoobyektlarning turlarini va ularda bo‘ladigan turli fizik va kimyoviy jarayonlarni o‘rganish mumkin. Shuningdek, ushbu nanotuzilmalarga mansub obyektlarni, masalan, nanoklasterlar, nanotolalar, nanotomchilar, nanokristallar kabi nanoobyektlar xossa va xususiyatlarini turli tadqiqot usullari yordamida o‘rganiladi. Masalan inert gazlarni nanoo‘lcham holatida eng soddanoobyekt sifatida Van-der-Vaals kuchlari yordamida ta‘sirlashish asosida talqin qilish mumkin. Biroq atomlar orasidagi o‘zaro tortishish kuchlari katta bo‘lgan nanoob‘ektlarda bunday metodlar yoki kuchsiz o‘zaro ta‘sirlar asosida o‘rganish imkoniyati mavjud emas. Demak,



nanoobyektlarning fizik va kimyoviy xossalarini o'rganishda ularning turlari va o'lchamlariga qarab alohida tadqiqot usullari va metodlaridan foydalaniladi. Bundan ko'rinadiki, nanoobyektlarni o'rganishda ularda bo'ladigan fizik jarayonlar, effektlar va moddalar turlari alohida inobatga olinib, nano xom ashyo materiallar va mahsulotlar hosil qilinadi.

Nanotexnologiyaga oid materiallarni maktab o'quvchilariga sodda, tushunarli va mazmunli yetkazish uchun multimediali ta'lim vositalari hamda ko'rgazmali maketlardan foydalanish dars sifati va samaradorligini oshiradi. Quyidagi 1-jadvalda fizika fani mavzulariga mos ko'rgazmali demonstratsion materiallar nomlari ham keltirilgan. Ushbu didaktik materiallar nafaqat o'quvchilarda nanotexnologiya elementlariga oid tushunchalarni, balki, ularda ilmiy-ijodkorlik, konstruktorlik va mustaqil fikrlash qobiliyatlarining shakllanishiga va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. 1-jadvalda maktab fizika kursida nanoobyektlarni o'rganish bo'yicha mavzularga mos nanotexnologiya tushunchalari keltirilgan.

1-jadval

№	Maktab fizika kursi dasturida mavzular	Nanofizik tushunchalar	Darsda qo'llaniladigan interfaol usul va metodlar	Multimediali ta'lim vositalari va ko'rgazmali qurollar va vositalar
1	Tranzistorli elektromagnit tebranishlar generatori	Nanometr o'lchamli tranzistorlar	Zinama-zina	Videorolik, zarralar maketi, tarqatma materiallar
2	O'zgaruvchan tok zanjiridagi aktiv qarshilik	Skanerlovchi tunnel mikroskoplari, Atom — kuch mikroskop, Kvant kompyuterlar	Muammoli o'qitish	Yorug'lik diodi, fotosezgir tuzilmalar, optik qurilmalar
3	O'zgaruvchan tok zanjiridagi kondensator.	Segnetoelektrik nanokodensatorlar	Miya shturmi	Elektr zanjiri, videorolik, tarqatma materiallar
4	O'zgaruvchan tok zanjiridagi induktiv g'altak	Uglerodli nanotrubbkalar	Dumaloq stol	Nanozarra maketi, videoproektor, slaydlar
5	O'zgaruvchan tok zanjirida rezonans hodisasi.	Nanosterjenlar, nanosimlar, nanotrubbkalar, nanolentalar, nanohalqalar, nanoprujinalar	Qor uyumi	Zamonaviy lazer, lazer nurini qayd qiluvchi optik qurilma



Jadvaldan ko‘rinadiki, maktab fizika kursidagi mavzularga mos nanofizik tushunchalar tanlanib, bu materiallar o‘zaro bir-birini to‘ldirishi, fizik hodisa va jarayonlarning sodir bo‘lishi va ularni boshqarish imkoniyatlariga oid o‘quvchilarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalar shakllanishiga xizmat qiladi. Naoelektronika sohasidagi ilmiy yangiliklar va ularning amaliy tadbiri butun dunyo olimlari tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganilmoqda. Ushbu yangiliklar bilan maktab o‘quvchilarini fizika darslari va to‘garak mashg‘ulotlarida muntazam ravishda tanishtirib borish zaruriyati mavjud.

Agar o‘quvchi nanofanga oid fizik qonuniyatlar yoki hodisa va jarayonlarning yuzaga kelishi haqidagi zarur nazariy bilimlarni yetarli darajada o‘zlashtirmasa, ijodiy qobiliyatning rivojlanishi muayyan qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Aksariyat o‘quvchilar amaliy masalalarni yechish yoki eksperimental mashqlarni bajarishda, ayniqsa, yangi fizika tushunchalarini o‘zlashtirishda qiynaladi. Masalan, nanofanning butun dunyoda ta‘lim jarayoniga yangilik sifatida kirib kelgani hech kimga sir emas. Fizikada nanofanning amaliy ahamiyati juda katta. Nafaqat maktab o‘quvchilari, balki aksariyat o‘qituvchilarning ham nano dunyo haqidagi g‘oyalari bugungi kun talablariga javob bermaydi.

Albatta, o‘quv jarayonida yangi fanni o‘zlashtirishning o‘z davri va bosqichlari mavjud. Fizikada «Nanofizika» deb nomlanuvchi zamonaviy fan nano dunyoni va uning fizik hodisalari va jarayonlarini o‘rganadi. Fizika darslarida maktab o‘quvchilariga nanofizika elementlarini o‘rgatish masalasi juda dolzarb. Buning uchun yuqorida aytilib o‘tilganidek, o‘quvchilar fizika qonunlari va ularni amaliy qo‘llash bo‘yicha etarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak. Ilmiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ham barcha zarur shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Ya‘ni o‘quv materiallari, ko‘rgazmali vositalar, multimedia vositalari va boshqa zarur jihozlar bo‘lishi kerak.

Demak, maktab fizikasi kursida o‘quvchilar klassik fizika qonunlari bo‘yicha zarur nazariy bilimlarga ega bo‘lib, ular fizik hodisani yoki moddalarning atom va molekulyar holatga o‘tish jarayonini tushunish va mustaqil fikr yuritish imkoniyatini beradi. Endi nanofizika tushunchalariga kelsak, mumtoz fizika fanidan o‘quvchilar olgan bilim va ko‘nikmalar yetarli bo‘lmaydi. Ya‘ni, atrofimizdagi tabiat hodisa va jarayonlari nano o‘lchamdagi zarrachalar misolida o‘rganilsa, ilgari uchramagan mutlaqo yangi fizik effektlar va jarayonlar paydo bo‘ladi.

O‘quvchilarning nanofan sohasidagi bilim, ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi. Maktab o‘quvchisi:

1. Nanofizikaning elementar tushunchalari bilan bog‘liq fizikaning asosiy fundamental qonunlarini bilish;
2. Nanzarrachalar va ularning hosil bo‘lish fizik jarayonlari haqida zamonaviy bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi;



3. Inson hayotining barcha jabhalarida nanostrukturalar, nanokompozitlar va nanoqoplamlardan foydalanish imkoniyatlari va istiqbollari haqida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish zarur.

Nanofizikaning elementar tushunchalari fizikaning molekulyar fizika, yadro fizikasi va elementar zarralar kabi bo'limlari bilan uzviy bog'liqdir. Shuningdek, darslarda nanofizika elementlarini o'qitishda fanlararo bog'lanish tamoyili asosida tashkil etish yuqori samaradorlikka erishish va dars sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Integratsion bilimlar mazmuni, yaxlit bilimlar tizimi, nanofizika bo'yicha integrativ o'quv materiallaridan foydalanish imkoniyatlari va ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish dars sifati va samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Fizika fanini o'qitish samaradorligini oshirishda integrativ bilimlardan foydalanish asosida nanofizikaning kundalik hayotdagi amaliy ahamiyatini tushuntirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, o'quvchilarning mustaqil ishlash va nostandart fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Adabiyotlar royxati:

1. Олимов Л. Основы нанofизики. Учебное пособие. Ташкент. 2014. «Поколение Нью Эйдж». 140 стр.
2. Давранов К.Д., Аликулов Б.С. Нанобиотехнологические основы. Учебное пособие. Ташкент. 2015. «Наука и технологии». 312 стр.
3. Расулов Р. и др. Основы нанofизики и нанoeлектроники. Учебное пособие. 2016. НамДУ. 180 стр.
4. Алтунин К.К. Разработка и внедрение электронного курса по дисциплинам «Введение в нанofизику» и «Нанотехнологии и нанoeлектроника» в педагогическом университете. Поволжский педагогический поиск. 2018. №4 (26). с. 78-91.
5. Шарошенко В.С. Подготовка будущего Учителя ведется по дисциплинам физика и область нанотехнологии и профессионального цикла. Дисс. кандидата наук. 2019 г. 159 с.



MODULLI TIZIM SHAROITIDA PEDAGOGIK O'LCHOVLARNI BAHOLASH TEXNOLOGIYALARI

A. O. TEMIROV,

Xalqaro Nordik Universiteti magistranti

Ushbu maqolada muallif tomonidan ta'limni zamon talabi darajasida isloh qilish, uning sifatini yuksak talab darajasiga ko'tarish muammolari atroflicha ko'rib chiqilgan bo'lib, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda milliy va xorijiy tajriba keng yoritilgan. Shuningdek maqolada yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ta'lim jarayonining sifatini belgilovchi asosiy xususiyatlar ko'rsatib berilgan hamda oliy o'quv yurtidagi sifat tizimi tushunchasini asosini ifodalovchi qoidalar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim, sotsial menejment, globallashtiruv, boshqaruv, kordinatsiya, mutaxassis, kadrlar, oliy ta'lim, jarayon, madaniyat, koserpsiya, mehnat taqsimoti

В данной статье автором подробно рассмотрены проблемы реформирования образования на уровне современных требований, поднятия его качества до уровня высокой востребованности, широко освещен отечественный и зарубежный опыт подготовки высококвалифицированных кадров. Также в статье показаны основные особенности, определяющие качество образовательного процесса при подготовке высококвалифицированных кадров и правила, составляющие основу понятия системы качества в высшем учебном заведении.

Ключевые слова: Образование, социальный менеджмент, глобализация, менеджмент, координация, специалист, персонал, высшее образование, процесс, культура, сотрудничество, разделение труда.

In this article, the author discusses in detail the problems of reforming education at the level of modern requirements, raising its quality to a high level of demand, the national and foreign experience in training highly qualified personnel. The rules that represent the basis of the concept of quality system in higher educations are given. Five universal elements of the management system based on the principles of quality management are substantiated and analyzed to determine whether these elements are specific to any organization.

Key words: education, social management, globalization, management, coordination, specialist, human resources, higher education, process, culture, concept, division of labor.

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda yashay oladigan yoshlarni tayyorlash uchun asosiy vazifasini muayyan miqdordagi bilimlarni berishdan iborat deb hisoblaydigan an'anaviy ta'lim yo'sini mutlaqo yetarli emas. Chunki ilm-fan va texnika shu darajada rivojlandiki, endi odam biror fandagi eng asosiy tushunchalarni ham xotirasida saqlab qola olmaydi. Buning ustiga, tinimsiz o'zgarishlardan iborat bo'lib qolgan hayotga mustaqil qadam qo'yayotgan yoshlar



ana shunday o'zgarishlarga ham intellektual, ham ma'naviy jihatdan tayyor bo'lmasa, raqobatlar kurashidan iborat dunyoda o'z o'rmini topolmasligi mumkin. Hozirgi kunda ta'lim tizimida boy tajribalar yig'ilgan. Chunonchi, ishbilarmonlik o'yinlari, kompyuterli o'qitish, individuallashtirilgan o'qitish, insonparvarlik, hamkorlik, shaxsni erkin tarbiyalash va hakoza.

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik adabiyotlar, o'quv metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish yuzasidan farmon va qarorlar qabul qilindi. Biroq o'tkazilgan tahlillar maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda [1].

«Modulli o'qitish» termini xalqaro tushuncha modul bilan bog'liq bo'lib, uning bitta ma'nosi – faoliyat ko'rsata oladigan o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat. Bu ma'noda u, modulli o'qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan informatsiya bloki sifatida tushuniladi [2].

Modulli o'qitishga o'tishda quydagi maqsadlar ko'zlanadi

- o'qitishning (fanlar orasida va fanning ichida) uzluksizligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;
- o'qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o'zlashtirishga erishish.

Shunday qilib, modulli o'qitishda talabalarni o'z qobiliyatiga ko'ra bilim olishi uchun to'la zarur shart-sharoitlar yaratiladi. O'qitishning modul tizimiga o'tish samaradorligi, quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

O'quv muassasasning moddiy-texnikaviy bazasi darajasi;

- professor-o'qituvchilar tarkibining malakaviy darajasi;
- talabalarning tayyorgarlik darajasi;
- ko'zlangan natijalarni baxolash;
- didaktik materiallar ishlab chiqish;
- natijalarning taxlili va modullarni optimallashtirish.

Modulli o'qitishga o'tishda quyidagilarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:

– ishchi o'quv rejani chuqur taxlili asosida, o'zaro chambarchas bog'liq fanlar guruhi aniqlanadi, ya'ni butun o'quv rejasi alohida makromodullar to'plami sifatida qaraladi.



Ko'pchilik hollarda quyidagi uch turdagi makromodullar tuzilishi mumkin:

- A) gumanitar fanlarni o'z ichiga oladigan;
- B) iqtisodiy fanlarni o'z ichiga oladigan;
- V) umumta'lim, umutexnik, umumkasbiy va maxsus fanlarni o'z ichiga oladigan.

Har qaysi makromodulning mutaxassisni shakllantirishda, o'z maqsad va vazifasi bo'ladi. Ma'lum makromodulni o'rganish maqsadi, unga kiradigan fanlarning o'rganish maqsadlaridan kelib chikadi.

Har qaysi makromodulning o'rganilish maqsadlari to'plami, davlat ta'lim standartlarida aks ettirilgan, mutaxassis kadr tayyorlashning bosh maqsadini tashkil etadi.

Har qaysi makromodulning maqsadi aniq tuzilgan bulib, uning birinchi Fani o'rganila boshlaganida, talabalarga yetkazilishi lozim. Makromodulning har bir keyingi fani o'rganila boshlanganida, u fanning o'rganish maqsadlari talabalarga yetkazilishi zarur [3].

Har qaysi makromodul ichida, o'rganiladigan fanlarning optimal ketma-ketligi va ularni muddatlari o'rnatiladi. Ya'ni o'qitishning uzluksizligini ta'minlab, fanlarning o'rganilish muddatlarini va shu orqali makromodulning o'rganilish muddatlarini qisqartirishga erishish zarur.

O'quv soatlari hajmi katta bo'lmagan (haftada 1-2, ayrim hollarda 3 soatli auditoriya mashg'ulotlari) fanlar, blok fanlar ro'yxatiga kiritilishi, maqsadga muvofiq bo'ladi va ular o'quv semestrining birinchi yoki ikkinchi yarmida o'tilishi mumkin.

Makromodullar, vertikal o'zaro bog'liqlarni hisobga olish asosida tuziladi, ammo ularning o'rganilishi muddatlarini o'rnatishda makromodullar orasidagi gorizontal bog'liqliklar xisobga olinishi lozim:

– o'quv materialining takrorlanishini oldini olish maqsadida, makromodulga kiruvchi fanlar, o'quv dasturlarini o'zaro bog'liqligi ta'minlanadi.

Fanning ishchi o'quv dasturi, alohida mavzularni modulda guruhlanishi inobatga olinib, qaytadan ko'rib chiqiladi. Har qaysi modul uchun nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan maqsadlar tuzilishi zarur.

Modul o'z ichiga 2-3 ma'ruza va shu ma'ruzalar bilan bog'liq bo'lgan amaliy darslar va laboratoriya ishlarini kamrab olishi mumkin.

Har qaysi modul bo'yicha quyidagi materiallar tayyorlanadi:

- talabalarining bilimini nazorat qilish uchun testlar;
- individual ishlar uchun topshiriqlar;
- mustaqil ishlar uchun topshiriqlar;
- o'quv uslubiy tarqatma materiallar;
- o'quv-ilmij adabiyotlar ro'yxati;



– ishchi o‘quv dastur.

Har bir modul uchun tarqatma va tasvirli materiallar to‘plami tuziladi va ular talabaga mashg‘ulotdan oldin beriladi.

Modul tavsiya qilinadigan adabiyotlar bilan ta‘minlanadi. Har bir talaba materiallarni o‘zlashtira borib, bir moduldan ikkinchi modulga o‘tadi. Iqtidorli talabalar boshqalarga bog‘liq bo‘lmasdan test sinovlaridan o‘tishlari mumkin.

Modulli o‘qitish, fanning asosiy masalalari bo‘yicha umumlashtirilgan informatsiyalar beruvchi muammoli va yo‘riqli ma‘ruzalar o‘qilishini taqazo etadi. Ma‘ruzalar talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog‘i lozim. Modulning amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari ma‘ruzalar bilan birga tuziladi, ular ma‘ruzalar mazmunini o‘rganiladigan yangi material bilan to‘ldiriladi. Talabalar ma‘lum amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Ma‘ruzalar matnini tayyorlashda, strukturalash va tizimlash usullarini qo‘llab, materiallarni blok-sxema, rasmlar bloki ko‘rinishida taqdim etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda materialning o‘zlashtirish samaradorligi oshadi, chunki:

- modulning pirovard maqsadi tushunib yetiladi;
- o‘quv materialining elementlari orasidagi bog‘liqlanishlar va uning o‘tishlar yaqqol ko‘rsatiladi;
- asosiy jihatlar ajratib ko‘rsatiladi;
- o‘quv materialining (modulning) butun xajmi talabaning ko‘z oldida gavdalanadi. Modul tizimida o‘quv materialining mazmunini strukturalashda, eng avvalo, informatsiyani «siqish» vazifasi ko‘zlanadi. Bilimlarni to‘la, foydalanish uchun qulay holda taqdim etilishiga harakat qilish lozim. O‘quv informatsiyasi bir vaqtning o‘zida 4 xil – rasmi, sonli, simvulli va og‘zaki ko‘rinishda uzatilganida eng mustahkam o‘zlashtirishga erishiladi. Modulli ta‘lim metodikasi tuzishda, bu holat asos bo‘lib xizmat qiladi. Har qaysi modul bo‘yicha rasmlar bloklarida simvulli alomatlarini (savollar ko‘yilishi tarzida) joylashtirish, savollarni rasm tarzida tasvir etish, formulalar, jadvallar, grafiklar va uslubiy ko‘rsatmalarni taqdim etish, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: «O‘zbekiston», 2017. - B. 488.
2. Ikromov A.B., Maxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta‘lim, ilmfan metodik qo‘llanma. Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son.
3. Xamidov A. Yangi pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. - T.: 2004.



BO'LAJAK BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINI EKOLOGIK TA'LIMGA TAYYORLASH MUAMMOLARI

B.B.ISHMO'MINOV,

Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchi

SH.T.YAKUBJONOVA,

Nizomiy nomidagi TDPU, g.f.f.d., dotsent

Ushbu maqolada bo'lajak biologiya o'qituvchilarini o'rta maktab o'quvchilarining ekologik ta'limiga tayyorlashdagi ayrim muammolar yoritilgan. Shu bilan birga biologiya o'qituvchilariga zarur bo'lgan tavsiyalar, muammolar yechimi borasida olib borilgan tadqiqot natijalari berilgan.

Kalit so'zlar: *ekologik inqiroz, ekologik ta'lim, ekologik madaniyat, ekologik tarbiy.*

В данной статье рассматриваются некоторые проблемы подготовки будущих учителей биологии к экологическому воспитанию старшеклассников. При этом учителям биологии даны необходимые рекомендации, результаты исследований по решению задач.

Ключевые слова: *экологический кризис, экологическое воспитание, экологическая культура, экологическое воспитание.*

This article discusses some of the problems of preparing future biology teachers for environmental education of high school students. At the same time, biology teachers are given the necessary recommendations, research results on solving problems.

Key words: *ecological crisis, ecological education, ecological culture, ecological education.*

Ekologik ta'lim bo'lajak o'qituvchilarning umumiy ta'limi va kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismiga aylangan. So'nggi yillarda sodir bo'lgan global va mahalliy ekologik inqirozlar seriyasi tabiatga antropogen yukning bosimi oshganligini ko'rsatadi. Sayyoraviy ekologik inqirozning kuchayishi ta'lim tizimiga ekologik madaniyatni umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismi sifatida shakllantirish vazifasini qo'yish zarurligidan dalolat beradi. O'rta maktab bitiruvchilari orasida ekologik madaniyatni shakllantirish zamonaviy insoniyat sivilizatsiyasini rivojlantirishning obyektiv ehtiyojidir [2].

Barcha yoshdagi o'quvchilarni ekologik tarbiyalashda strategik jihatdan puxta o'ylangan va samarali faoliyat uchun ekologiya va umuman biologiya sohasida jiddiy tayyorgarlikka ega bo'lgan malakali o'qituvchi kerak. Olimlarning ta'kidlashicha, turli mutaxassislikdagi o'qituvchilar maktabning ekologik ta'lim tizimiga o'z hissalarini qo'shishlari mumkin, ammo ularning barchasi ushbu sohada tayyor bo'lishi kerak [3].



Pedagogik faoliyatda «ekologiya» va «ekologik ta'lim» tushunchalariga har doim qat'iy belgilangan ma'no kiritilishi, ya'ni ekologiya biologik ma'noda talqin qilinishi kerak. Olim N.S. Dejnikovaning ta'kidlashicha, «Ekologiya biologiyaning asosiy bo'limlariga tegishli va shuningdek, uning har bir tarkibiy qismi va barcha bo'linmalari bilan bog'liqdir» [1].

Hozirgi vaqtda maktab ta'limi tizimida ekologik bilimlar asosan tabiiy fanlar (biologiya, geografiya, kimyo, hayot xavfsizligi) doirasida beriladi. Asosiy rejaga muvofiq, ushbu fanlarga ajratilgan soat miqdorining qisqartirilishi o'qituvchilarning asosan o'z fanlari mavzularining mazmuniga katta e'tibor berishiga sabab bo'lib, natijasida ekologik bilimlar chetda qolmoqda. Bu o'rta maktab o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirishga salbiy ta'sir qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ekologik bilimlar pedagogika universitetlari tomonidan belgilanadigan mutaxassislar tayyorlash o'quv dasturining o'zgaruvchan qismida turgan fanlar doirasida shakllantirilishi kerak, deb hisoblanadi. Shu sababli, mutaxassislar tayyorlashning o'zgaruvchan qismidagi fanlarni tanlash umumiy ta'lim va umumiy madaniy fanlarga emas, balki kasbiy fanlar (sonining o'sishi) foydasiga amalga oshirilmoqda. Natijada ekologik ta'lim ekolog mutaxassislarining kasbiy tayyorlashdan tashqari deyarli barcha yo'nalishlarda o'rganishdan chiqib ketmoqda. Bu muammolar MDH davlatlari ta'lim tizimida ham mavjud bo'lib, nobiologik fanlar predmetlarining ekologiyasi bir qator sabablarga ko'ra sezilarli darajada cheklangan. Qisman, bu vazifa faqat bo'lajak biologiya o'qituvchilarini tayyorlashda amalga oshiriladi [2].

Bugungi kunda olimlarning ta'kidlashicha, biologiya fani global, mintaqaviy va mahalliy darajadagi ekologik muammolarni o'rganish va hal qilishga qaratilgan asosiy fanlardan biridir. Uni o'rganishda inson – jamiyat – tabiatning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siriga alohida e'tibor qaratiladi, shuning uchun biologiya fani o'rta maktab o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega [5].

Ekologik madaniyatni shakllantirish zamonaviy ijtimoiy fikrlashda ekologik madaniyatni tarbiyalashga xalaqit beradigan bir qator g'oyalar, mulohazalar va dogmalarning keng tarqalishi bilan bog'liq bo'lgan mafkuraviy qiyinchiliklarni yengib o'tishni talab qiladi. Shunday qilib, hozirgi vaqtda (ham ijtimoiy, ham ekologik munosabatda) shaxsning jamoatchilikdan ustunligi to'g'risida noto'g'ri tushuncha keng tarqalgan. Shu sababli, umuminsoniy ekologik qadriyatlarni shaxslar va guruhlarining ekologik manfaatlaridan ustunligiga bo'lgan ishonchni rivojlantirish murakkab ahloqiy muammoga aylandi, uni har tomonlama hal qilish kerak, shu jumladan maktabda ham [5].

Umummaktab tajribasida ekologik ta'limning ayrim elementlarini ko'rish mumkin, ammo asosan ekologik muammolarni o'rganishda «tabiatni ifloslantir-



maslik», «qush uylarini qurish», «ariqlarni tozalash», «zararli chiqindilarni yo'q qilish» va, hatto, global miqyosda sanab o'tilgan muammolarni hal qilish kabi yondashuv keng miqyosda ustunlik qiladi. Zamonaviy talabalar ekologik muammolarni faktlar darajasida bilish bilan cheklanadilar. O'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishdagi qiyinchilik (zamonaviy maktab dasturlari va biologiya darsliklarida) ushbu muammoni o'rganishda o'rta maktab o'quvchilari-ning ekologik bilim va ko'nikmalarga asoslangan tizimli yondashuvning ishlab chiqilmaganligidir.

Biologiya fani bo'yicha ta'lim jarayonida kuzatiladigan asosiy kamchiliklarga quyidagilar kiradi:

- o'rta maktab o'quvchilarining o'quv va kognitiv faoliyatini tashkil etishda istiqbolli, maqsadga muvofiqlik va tizimlilikning mavjud emasligi;
- ekologik ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni o'zgartirish tarbiya davrlari deb hisoblanadigan tushunchalar;
- kognitiv intellektual, amaliy va hissiy-estetik jarayonlarni tashkil etishda o'rta maktab o'quvchilarining birlikdagi faoliyatiga yetarli e'tibor bermaslik;
- o'quvchilarni o'qitishni tashkil etishning dars va darsdan tashqari shakllari o'rtasidagi bog'liqlik yetarli emasligi.

Tadqiqotimizda adabiyotlarni tahlil qilish ushbu muammoning quyidagi xarakterli jihatlarni ajratishga imkon beradi [6]:

- malaka oshirish metodologiyasini chiqish;
- malaka oshirishni differensiallash;
- kursni tayyorlash paytida o'quv jarayonini faollashtirish;
- o'qituvchi shaxsini shakllantirish;
- biologiya o'qituvchisining ekologik ta'lim va o'rta maktab o'quvchilarini tarbiyalash uchun tayyorgarlik darajasi holati;
- darsdan tashqari faoliyat jarayonlarida ekologik va o'lkashunoslik prinsipini amalga oshirish.

Pedagogik fanlarni tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, o'rta maktab o'quvchilarining ekologik ta'limini amalga oshirish uchun bo'lajak o'qituvchiga pedagogik siklning har bir kursida zarur bo'lgan nazariy bilimlarni shakllantirish uchun kerakli ma'lumotlarga ega mavzular mavjud. Ushbu imkoniyatlarni amalga oshirish o'quv mavzularini o'rganishda kelajakda o'qituvchining kasbiy faoliyatini-ning xususiyatlarini hisobga olgan holda tavsiya etiladi.

Hozirgi vaqtda ekologik ta'lim shaxs rivojlanishining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchilar quyidagilarni bilishlari kerak:

- o'rta maktab o'quvchilarining ekologik ta'limining mazmuni va vazifalari;
- ekologik ta'limning shakllari va usullari;



– ekologik ta'limning aqliy, mehnat, ahloqiy, estetik va jismoniy tarbiya bilan o'zaro bog'liqligi.

Xulosa o'rinda qo'yidagilarni aytish mumkin. Bo'lajak o'qituvchi o'z fanini o'qitish jarayonida ekologik madaniyat asoslarini maqsadli ravishda shakllantirish uchun birinchidan, ta'limning ekologik yo'nalishini rivojlantirishning muhimligiga ishonch hosil qilishi, ikkinchidan, u o'rta maktab o'quvchilarining ekologik tayyor-garligi, maqsadlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi, ya'ni talabalarga ekologik yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshirishga tayyor bo'lishlari uchun qanday shaxsiy xususiyatlar, tushunchalar va ko'nikmalarni singdirish kerakligi to'g'risida bilimga ega bo'lishi, uchinchidan, biologiya fani bo'yicha darsda va darsdan tashqari ishlarda o'rta maktab o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish jarayoni, uning bosqichlari, shartlari, o'sib borayotgan xususiyatlari, ushbu maqsadlar uchun ishlatiladigan vositalar to'g'risida ilmiy tasavvurga ega bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Дежникова Н.С. и др. Модели экологического воспитания детей: метод. пособие для педагогов. М.: Ред.-изд. центр, 2005. 137 с.

1. Недюрмагомедов Г.Г. Содержание экологического образования старшеклассников в контексте компетентностного подхода // Инновационные процессы в биологическом и экологическом образовании в школе и вузе: сб. материалов 1-й Междунар. науч.-практ. конф. (10-12 ноября 2008 г., Москва). М.: МПГУ, 2008. С.192-199.

2. Недюрмагомедов Г.Г, Раджабова Р.В. Подготовка будущих учителей биологии к экологическому воспитанию старшеклассников. Психолого-педагогический форум. 2013. С. 77-81.

3. Храпаль Л.Р. Модернизация экологического образования в вузе в контексте российской социокультурной динамики. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук. Екатеринбург. 2011.

4. Янакиева Е.К. Методологические основы на экологического воспитания // Педагогика (Болгария). 2002. Кн. 4. С.18-28.

5. Yakubjonova SH.T., Ishmo'minov B.B. Ekologiya va atrof muhit muhofazasi.- T: Bookmany print, 2022, -166 b.



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA MAKTAB TA'LIMI INTEGRATSIYASI ASOSIDA KATTA VA TAYYORLOV GURUHI BOLALARINI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH

N.J.ABDUSAMATOVA,
NamDU dotsenti

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab ta'limi integratsiyasi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning muhim sharti ekanligi, hamkorlik mazmuni, shakllari xususida so'z yuritiladi.

Tayanch tushunchalar: Maktabgacha yosh, ta'lim, tarbiya, integratsiya, shakl, metod, usullar.

В статье говорится о том, что интеграция дошкольного образования и школьного образования является важным условием подготовки детей к школьному обучению, содержанию и формах сотрудничества.

Ключевые слова: дошкольный возраст, образование, воспитание, интеграция, форма, метод, методы.

Davlatning ertangi kuni yoshlarning qay darajada bilimli ekani bilan bevosita bog'liq. Sgu bois, ta'lim tizimini rivojlantirish masalasiga hukumat darajasida e'tibor qaratilishi har bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillar davomida Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi sanalmish Taraqqiyot strategiyasi doirasida, rivojlangan davlatlar kabi uzluksiz ta'lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta'lim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha sezilarli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasini tubdan rivojlantirish; har bir bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga bo'lgan huquqi amalga oshirilishini ta'minlash; bolalarning maktabgacha ta'lim va tarbiyaga to'liq qamrab olinishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish; ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish hamda rivojlantirish; maktab ta'limiga sifatli tayyorlash borasida bir qator ijobiy yutuqlarni qo'lga kiritildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida» gi Qonunida Maktabgacha ta'lim va tarbiya – bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi ekanligi belgilab berildi [1].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari



to'g'risida» gi Qarorining qabul qilinishi bolalarni umumiy o'rta ta'limga sifatli tayyorlash borasidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi[2].

Bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashda maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab ta'limi integratsiyasini ta'minlash muhimdir. Maktabgacha ta'limi tashkiloti bilan maktab ta'limi integratsiyasi katta va tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga tayyorlash vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartidir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi hamkorlik bir tomondan bolalarni maktab ta'limi talablariga javob beradigan darajada umumiy rivojlantirib va har tomonlama tarbiyalagan xolda maktabga o'tkazishni, ikkinchi tomondan, o'qituvchining katta maktabgacha yoshidagi bolalarning egallagan bilim, malaka sifatlariga va tajribalariga tayanib, ulardan o'quv tarbiyaviy jarayonda foydalanishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab ta'limi integratsiyasi ikki yo'nalishda olib boriladi:

– Maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktabning pedagoglar jamoasi o'rtasidagi aloqa.

– Maktabgacha ta'lim tashkiloti va boshlang'ich sinf o'quvchilarini birlariga yaqinlashtirish.

Tarbiyachilar boshlang'ich sinfda olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarning mazmunini, o'ziga xos tomonlari bilan tanishadilar, natijada maktabgacha ta'lim tashkilotida bolani maktab talabi darajasida tayyorlash istiqbollari belgilab olinadi. Maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari katta va tayyorlov guruhlari olib boriladigan ishlar mazmuni bilan tanishib boradilar va maktabda ta'lim berishda bolalar egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarga asoslanadilar.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktab pedagoglari hamkorligidan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarni zamon talabiga javob beradigan darajada maktab ta'limiga tayyorlash uchun o'quv tarbiyaviy ishlar bo'yicha maktab bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish, bolalarning maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishlari uchun zamin yaratish hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktabda olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarni chuqur tahlil qilish orqali bu sohada yuqori natijalarga erishishdir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi uzviy bog'liqlik katta maktabgacha yoshdagi bolalar va maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish sharoitini yaqinlashtirishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlari birinchi sinfda bolalar oldiga qo'yiladigan



talablarni yaxshi bilishlari, maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarni shunga muvofiq ravishda ta'lim olishga tayyorlashlari kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi uzviy aloqa murakkab va ko'p tomonlama tuzilishga ega. Unda ta'lim-tarbiyaviy ishlarning mazmuni, metod va usullari, tashkiliy shakllari, shuningdek bolalarni tarbiyalash shart-sharoitlari va pedagogik talab kabi yetakchi tomonlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bunda quyidagilarga etibor berish kerak:

– Maktab talabi nuqtai nazaridan bolalar bilimlarni chuqurroq egallab olishlari lozim.

– Maktabgacha ta'lim tashkiloti nuqtai nazaridan bolalarni maktab talabi darajasidagi bilim, malaka, ko'nikmalar bilan qurollantirish zarur.

– Bolalarni maktabga ruhiy tayyorligi. Bolalarni maktab ta'limidagi mehnatning har qanday turiga ruhan tayyorlash, ularda aqliy mehnat-bilishga qiziqishni o'stirish, ularni kelajakdagi mustaqil xayotga tayyorlashdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi hamkorlik asosini maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktabda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlari mazmunini belgilovchi dasturlar o'rtasidagi bog'liqlik tashkil etadi. Hozirgi boshlang'ich sinflar dasturi bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti dasturi (Ilm yo'li)ni solishtiradigan bo'lsak, ular o'rtasida bir qancha o'zaro bog'liqlikni ko'ramiz. Bu eng avvalo dasturlarda asos qilib olingan printsiplarning umumiyligi bilan belgilanadi. Ularning mazmuni bolalarni har tomonlama tarbiyalash maqsad va vazifalariga mos kelish printsipti, hayot bilan bog'liqlik, ilmiylik printsiplari, ta'limning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi xususiyatga egaligi va falsafiy, ruhiy nuqtai nazarlarning birligida namoyon bo'ladi.

Birinchi sinf o'quv dasturidagi ayrim fanlarni maktabgacha ta'lim tashkiloti dasturi bilan solishtirganda ularda umumiylik ko'pligini ko'ramiz. Masalan, maktabgacha ta'lim tashkilotida ona tiliga o'rgatish va boshlang'ich sinflardagi ona tili darsiga bolalar nutqini har tomonlama rivojlantirish kabi umumiy g'oya asos qilib olinadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bu ish bolalarning lug'atini boyitish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga, ifodali o'qishga o'rgatish, dialogik, monologik va bog'langan nutqni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Maktabda esa bolalarda mana shu maktabgacha ta'lim tashkilotida egallangan bilim, malaka, tushunchalarga asoslanib, yozma nutq malakasi, orfografiya xat malakasi shakllantiriladi, ularga morfologiya va sintaksis elementlari o'rgatiladi. Shu bilan bir qatorda maktabgacha ta'lim tashkilotida boshlangan bolalar lug'atini boyitish,



nutqning ifodaliligi, bog‘langan nutqni rivojlantirish davom ettiriladi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida ham, maktabda ham tabiatshunoslik to‘g‘risidagi bilimlar organizm bilan muhitning birligi to‘g‘risidagi umumiy g‘oyaga asoslangan holda olib boriladi. Shu asosda bolalarga jonli va jonsiz tabiat, tabiat va kishilar o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘g‘risida bilim va tushunchalar beriladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti bilan maktab o‘rtasidagi uzviy aloqaning pedagogik vazifasi bog‘chaning tayyorlov guruhida va maktabning 1-sinfida olib boriladigan ta‘lim tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishdagi faoliyat shakllari va usullari bilan o‘zaro tanishishni taqozo etadi. Bu masalada maktabgacha ta‘lim tashkilotining tayyorlov guruhi tarbiyachilari maktabning 1-sinfida olib borilayotgan darslarni kuzatadilar va dars, mashg‘ulotlardan keyin birgalikda yig‘ilishib uni muxokama qiladilar, ayrim metodikalar bo‘yicha seminar treninglarda qatnashadilar. Ilg‘or tajribalar bilan o‘rtoqlashish maqsadida bolalarni maktabga tayyorlash bo‘yicha yoki 1-sinfda bolalarga bilim berish bo‘yicha pedagogik kengashlarni o‘tkazadilar.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti bilan maktab o‘rtasidagi aloqaning amaliy vazifasi, shundan iboratki, bir tomondan, o‘qituvchi maktabgacha ta‘lim tashkilotining tayyorlov guruhiga borib o‘zining bo‘lajak o‘quvchilari bilan tanishib boradi, ikkinchi tomondan, tayyorlov guruhi tarbiyachilari o‘zlarining sobiq tarbiyalanuvchilarini birinchi sinfda qanday o‘qiyotganini o‘rganib boradilar.

Bolalarni maktab ta‘limiga qiziqtirishda boshlang‘ich sinf o‘quvchisi va maktabgacha ta‘lim tashkilotining tayyorlov guruhi tarbiyachisi tayyorlov guruhi bolalarini maktab bilan tanishtirish bo‘yicha ekskursiya uyushtirishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday ekskursiyalar yil davomida 3 marta o‘tkazilishi mumkin. Ekskursiya paytida katta va tayyorlov guruhi bolalari maktab o‘quvchilari bilan tanishadilar, ular maktabgacha ta‘lim tashkiloti bolalariga o‘zlarini maktabdagi o‘qishlari, ishlari to‘g‘risida gapirib beradilar; o‘quvchilar xonasini qanday bezaganliklari, tabiat burchagidagi o‘simlik va hayvonlarni qanday parvarish qilayotganliklari, ustaxonada qanday ishlarni bajarayotganliklarini ko‘rsatadilar. Ish shakli quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- sinfda «Rasmga qarab so‘zlab berish» mavzusidagi dars – mashg‘ulotni birga o‘tkazish. Sport maydonchasida yoki sport zalida maktabdagi jismoniy tarbiya mashg‘ulotini birga bajarish;

- birinchi sinf o‘quvchilari va tayyorlov guruhi bolalari ishlagan rasmlarni birgalikdagi ko‘rgazmasini tashkil etish;

- maktab ustaxonasida o‘quvchilarni mehnat mashg‘ulotini kuzatish.



O'quvchilar o'zlarini tayyorlagan o'yinchoqlarni maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalariga sovg'a qilishadi;

– maktabda o'qiyotgan bolalar o'z maktabgacha ta'lim tashkilotlariga kelishadi;

– «Maktab» o'yinini tashkil etish. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi va boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatida izchillik yaqqol namoyon bo'ladi. Biri bolalarni tarbiyalash va ta'lim berishni boshlaydi, ikkinchisi davom ettiradi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktab o'rtasidagi hamkorlik samarali bo'lishi uchun quyidagi shartlarga amal qilish lozim. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktab o'rtasidagi aloqa izchil amalga oshirilib borilishi, u uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lishi, amalga oshiriladigan ishlar, hal qilinadigan masalalar rejali tusda bo'lishi zarur. Hamkorlik asosini birgalikda ishlash bo'yicha tuzilgan istiqbol rejasi tashkil etib, unda o'zaro aloqaning bosh vazifasi, mazmuni, ish shakllari, vaqti, bajarish uchun javobgar shaxslar ko'rsatilishi lozim. Rejalar aniq, mazmunli bo'lsa va og'ishmay amalga oshirilib borilsa, birgalikdagi ishlar bo'yicha istalgan natijalarga, muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Bu esa bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda, ularning maktabda qiyalmay o'qib ketishlarida yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonuni. 16.12.2019 yil. O'RQ-595-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. 09.03.2020 yil. 132-son.

3. Abdullaeva N.Sh. Hamkorlik pedagogikasi asosida bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashda variativ ta'limning ahamiyati. Zamonaviy ta'lim / Sovremennoe obrazovanie 2018, 11.

4. Qurbonova Yu.J. Bolalarni maktabga aqliy va psixologik jihatdan tayyorlash. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/8540>

5. N. Abdusamatova, D.Q. Asqarova. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash. Darslik. Namangan. 2023 yil.



UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNI MILLIY TARBIYA RUHIDA TARBIYALASH

M. IRGASHOVA,
TDPU katta o'qituvchisi

Mazkur maqolada talabalarni milliy tarbiya ruhida tarbiyalash to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, talabalar, milliy ruhida tarbiyalash, ta'lim jarayon, jamiyat, fikr, ma'naviyat, imkoniyat, inson.

This article discusses the idea of educating students in the spirit of national education.

Key words: continuous education, students, upbringing in the national spirit, educational process, society, thought, spirituality, opportunity, person.

В данной статье рассматривается идея воспитания студентов в духе национального образования.

Ключевые слова: непрерывное образование, студенты, воспитание в национальном духе, образовательный процесс, общество, мысль, духовность, возможности, человек.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida ta'kidlaganidek, «yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta'lim-tarbiya bo'yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz».

Faqat tarbiya orqali insondagi rivojlanish imkoniyatlarini ruyobga chiqarish mumkin. Tarbiya jarayonida aniq maqsad va reja asosida shaxsga ta'sir etiladi. Buning natijasi ularoq, muhitdagi voqealarning to'g'ri ijobiy ta'sirini amalga oshirish imkoni yaratiladi. Bolada muhit berolmagan narsalar tarbiya orqali hosil kilinadi, xatto tarbiya tufayli shaxsda to'g'ri kamchiliklarni ham o'zgartirib, shaxsni kamolga yetkazish darajasiga olib chiqish mumkin. Bundan tashkari, muhitning salbiy ta'siri tufayli tarbiyasi izdan chiqqanlarni ham qayta tarbiyalaydi. Rivojlanish shaxs faoliyatidan tashqarida bo'lmaydi. Shu sababli ham odam faoliyati uning rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat



qiladi. Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat xoh uyin, mehnat, o'qish, sport, ijtimoiy xarakat, o'zaro munosabat va boshqalar bo'lsin, shaxsning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shaxs ulg'aya borgan sari uning faoliyati ham mazmunan, ham shaklan o'zgarib boradi, turli yosh davrlarida esa, faoliyat turlari ham muhit holatiga qarab o'zgarib boradi. Shuning uchun bola hayotida o'yin, o'quvchi hayotida o'qish, kattalar hayotida mehnat faoliyatlari katta ahamiyatga egadir.

O'quvchilarning rivojlanishida o'quv jarayonlarining ahamiyati va ta'siri bekiyos kattadir. Bilimlarni o'zlashtirish ularning tafakkurini ustiradi, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy vositasi bo'lib qoladi. Bu jarayonda ularda ijtimoiy xulq normalari shakllanib boradi. Shaxs qaysi yoshda bo'lishidan qat'iy nazar, uning rivojlanishida mehnat faoliyatining ahamiyati nihoyatda kattadir.

Mehnat insonning ham jismoniy, ham ma'naviy kamol topishida muhim manba hisoblanadi. Mehnat jarayonida uning ishtirokchilari bir-birlari bilan aloqada bo'ladi, o'zlarining nimaga qodir ekanliklarini ko'rsatishga xarakat qiladilar. Mehnat orqali shaxsning axloqiy sifatleri tarkib topadi, ularda vatanparvarlik, mas'uliyat, intizomlilik, faollik ortadi. Ular o'z-o'zini tarbiyalashga astoydil kirishadilar. O'z-o'zini tarbiyalashda ota-ona, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri yanada samarali bo'ladi.

Pedagogika fanida «tarbiya» atamasining o'zi turlicha izohlanadi: «1) keng ijtimoiy – insonga uni o'rab turgan ijtimoiy muhit ta'siri; 2) keng pedagogik – o'quv tarbiya jarayonini butunlay qamrab oladigan maqsadli faoliyat; 3) tor pedagogik – tarbiya deganda maxsus tarbiyaviy ishlar tushuniladi; 4) birmuncha torroq – tarbiyaviy kuch yo'naltirilgan maydoncha, masalan, vatanparvarlikni tarbiyalash (axloqiy tarbiya), badiiy tasavvurlarni shakllantirish (nafosat tarbiyasi) tushuniladi. Pedagogika ta'lim haqidagi yagona fan sifatida ham e'tirof etiladi, bu fan vakillari u yoki bu ta'limiy faoliyat bilan shug'ullanadilar».

Shunday ekan, pedagogika yo'nalishini ta'lim va tarbiya haqidagi fan sifatida talqin etish to'g'ri buladi. Bu, o'z navbatida, shaxsni maqsadga mos holda shakllantirishning ikki qanotini anglatadi. Shularni inobatga olib, yanada aniq ta'rif qo'yidagicha bo'lishi mumkin: pedagogika – shaxsni maqsadli shakllantirish haqidagi fandır. Ma'lumki, ijtimoiy muhitda shaxsni shakllantirishda irsiyat, muhit, pedagog-xodimlarning maqsadli ish faoliyati, insonning xususiy faoliyati va o'z-o'zini tarbiya qilish kabi omillar katta imkoniyatlarga ega ekanligi fanda ma'lum.

Taklif qilinayotgan mazkur ta'rif fanning mavkeini pasaytirmaydi, aksincha, uning qator afzalliklarini qo'shadi: birinchidan, pedagogik faoliyat o'rta shaxsni rivojlantirish va tiklash omillari orasida belgilab boradi; ikkinchidan, pedagogik jarayon sifatida



ta'lim va tarbiya ahamiyatini muvozanatlashtiradi; uchinchidan, «tarbiya» atamasi qaysi ma'noda (tor yoki keng) ishlatilishini ko'rsatish zaruratidan sokit qiladi.

Komil insoniy xislatlarga ega shaxsni shakllantirish muammosi bilan butun ijtimoiyshunoslik, falsafa, psixologiya, etika va boshqa qator fanlar shug'ullanishadi. Agar ijtimoiyshunoslik tarbiyani ijtimoiy rivojlanishning omili sifatida qarasa, psixologiya tarbiyaga shaxsning ruhiy rivojlanishi vositasi tarzida murojaat qiladi.

Sanab o'tilgan fanlardan farqli ularoq, pedagogika shaxsni shakllantirishning ichki tabiatini tadqiq obyekti sifatida o'rganadi, ularning tuzilmasini aniklashtiradi, qonuniyatlarini ishlab chiqadi, ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatlar texnologiyasini loyihalaydi.

Pedagogik paradigma ilmiy faoliyat modeli sifatida bir tomondan ta'limda fanlararo tadqiqotlarning nufuzi oshayotganligini, pedagogika fanining integrativ funksiyasi kuchayotganligini ko'rsatsa, boshqa tomondan, ta'lim-tarbiya konuniyatlarini o'z predmeti sifatida qabul qilib, pedagogikaning yagona fan sifatida nazariy mavkeini oshirish va maqomini aniklashtirish vazifasini ilgari surdi.

Jamiyat mavjud mehnat jamoalari inson hayot yo'lining asosiy qismi o'tadigan uning tafakkuri, atrofga munosabati shakllanadigan ijtimoiy-ma'naviy muhit hisoblanadi.

Ta'lim va tarbiyasi ishlarida o'qituvchi shaxsining ahamiyati katta. Ma'lumki, respublikamizda mavjud umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagoglar o'quvchilarga ma'lum fanlardan dars beruvchi, kasb o'rgatuvchi va o'quvchilarning tarbiyalovchilari hisoblanadi. O'quv jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarning zamonaviy texnologiya jarayonlarni o'zlashtirib olishlari ularga bog'likdir. Pedagoglar o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishda asosiy rolni o'ynaydi. Mashg'ulotlarda o'quvchilarni texnik ma'lumotlar bilan tanishtiradi, o'quvchilarda ishlab chiqarish ko'nikmalarini, mehnat madaniyati malakalarini tarkib toptiradi. Ishlab chiqarish ta'limini Davlat ta'lim standartlari asosida berish jarayonida hozirgi zamon kishisi, komil insonga xos bo'lgan fazilatlar tarbiyalab boriladi. O'quvchilarga kasb o'rgatib, o'z bilim va tajribalarini beruvchi, bozor iqtisodiyotiga asoslangan ijtimoiy-iktisodiy rivojlanishda o'zbek modelining asosiy tushuncha va tamoyillari asosida axloqiy sifatlarni tarkib toptirish haqida g'amxurlik qiluvchi pedagoglarning halol mehnati tarbiyalanuvchilarga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Pedagog mehnatining natijasi jamiyatni har tomonlama kamol topgan yosh avlodni tarkib toptirishdan iborat bo'lgan inson faoliyatining eng mas'uliyatli sohasidir. Shuning uchun ham Davlat ta'lim standartida pedagoglarga bir qancha talablar qo'yiladi. Bunda pedagoglarning o'quvchilarni tarbiyalash borasidagi



roli va mas'uliyati ancha ortadi. Uning butun ishi o'quvchilarda Vatanga cheksiz muhabbat, do'stlik, o'rtoqlik, haqiqatguylilik, halollik, kamtarlik, burchga sodiqlik, mehnatga va jamoat mulkiga ongli munosabat, jamoat tartiblarini buzuvchilarga murosasizlik fazilatlarini milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

Tarbiyachining axloqiy qiyofasi bugungi kun talablariga mos bo'lishi juda muhim. Pedagog o'zining barcha ishlari va xatti-harakatlarida vijdonli, halol bo'lishi lozim. Pedagog muntazam ravishda o'z ilmiy va amaliy bilimlarini to'ldirib borishi kerak. Ayniksa, pedagog o'quvchilar o'rtasida obru va hurmat qozonishga kanchalik xarakter kilmasin, agar u o'z fanini yuzaki bilsa, o'z ishiga, pedagoglik kasbiga nisbatan unda chinakam mehr bulmasa, hech qachon o'z maqsadiga erisha olmaydi.

Pedagog tarbiya va ta'lim uslublarini mukammal egallab olishi, ta'limning xilma-xil va eng samarali uslublarini qo'llashi, buyum haqida qiziqarli so'zlabgina qolmasdan, balki o'z mahoratini ko'rsata bilishi ham lozim. Muntazam ravishda o'quvchilarning o'zlashtirishi va ularning o'quv mashg'ulotlariga munosabati, umumiy kamoloti, xulq-atvor qoidalarini bajarishlarini ko'zatis; o'quvchilarda ijtimoiy xodisalarga qiziqish uyg'otish, burch va mas'uliyat, haqqoniylik, kamtarlik xislatlari, irodaviy sifatlarini tarbiyalash; o'quvchilarning moddiy turmush sharoitlarini o'rganish pedagog uchun juda muhim. Pedagog bu ko'zatislarni yozib borishi, o'quvchilarning yaxshi va yomon xatti-xarakterlarini keltirib chiqaradi, deb tahmin qilinadigan sabablarni qayd qilib quyishi, shuningdek, har bir o'quvchiga ta'lim va tarbiya berishni yaxshilash choralarini ko'rishi zarur. Har bir o'quvchiga pedagogik tavsifnoma yozib berish o'qituvchiga yuz bergan o'zgarishlar, o'quvchilar ta'lim va tarbiyasidagi siljishlarni tahlil qilish, ulardagi ijobiy sifatlarni ustirishga ko'maklashish imkonini beradi.

Pedagog o'quvchilarga ma'lum bir kasbnigina (masalan, muxandis, injener, duradgor, chilangar va hokazo) o'rgatib qolmaydi, balki har tomonlama –axloqiy, ma'naviy, estetik va o'z o'rmda zamonaviy tarbiya ham beradi. Pedagogning shaxsiy namunasi, uning umumiy madaniyatlilik darajasi o'quvchilarga juda katta ta'sir kursatadi. Pedagogning o'z jamiyatimizning madaniyatli, bilimli, ilg'or kishisi bo'lgan taqdiridagina ta'lim-tarbiya vazifalarini muvaffakiyatli hal etishi mumkin. Pedagog o'z kasbiga doir bilimlaridan tashqari, yoshlarga qaysi kasb o'rgatilishidan qat'iy nazar, ularni hozir qiziqtirayotgan fan va texnikaning boshqa sohalariga oid ma'lymotlapni ham muntazam o'zlashtirib bopishi kepak.

Eskicha qarash, mazmunan sayoz, aniqliqdan chetlashgan, o'z ahamiyati va ilmiylik darajasi so'saygan ma'lumotlar bilan ishlash va uni o'quvchilarga



yetkazishga chek qo'yiladigan vakt allaqachon kelganini biz pedagoglar tushunib yetishimiz zarur. Shahsiy mas'uliyat, talabchanlik, xorijiy tillarni egallash, doim yuqori darajada bo'lish lozim. Shundagina yurt kelajagi, millat poydevori bo'lgan yoshlar ishonchli qo'llarda ekanligi belgilanadi.

Yukoridagilardan kelib chiqib, o'quvchi-yoshlarga ta'lim berish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalar berish bilan bir qatorda uzviy holatda tarbiya berish masalasini unutmazlik zarur. Dars jadvali bo'yicha o'qituvchi sinf xonasiga kirib borarkan, uning oldidagi vazifa faqatgina o'quv rejada ko'rsatilgan talablarnigina bajarish emas, balki qo'shimcha ravishda tarbiyaviy tushunchalarni o'zi shaxsiy o'rnatib bo'lgan holda berib borishi kerak.

Ko'p bora ta'kidlanayotgan ajdodlar merosi, uning ahamiyati, yoshlarga yetkazish masalalari, o'quvchilarning qabul qilish darajasi pastligi, ta'lim sifatini yana yuqori notaga ko'tarish holatining sustligi masalalari bugungi kun ta'lim jarayonining qaysidir ma'noda kichik, lekin yechimini tezkorlik bilan topishi zarur bo'lgan dolzarb muammo sifatida mavjud bo'lib kelmoqda.

Shaxsiy pedagogik tajribalar asosida fikr yuritar ekanmiz, pedagog-o'qituvchi o'tirmish, bugun va kelajak zanjirini bog'lash vazifasini to'laqonli uddalay olmayotgani pedagogik ish jarayonida tez-tez ko'zga tashlanmoqda. Sababi, ayrim pedagoglar hali-hamon «axborot olami tezligi»ga, taraqqiyot ildamlashuviga, afsuski, moslasha olgani yo'q. Binobarin, soniya sayin jamiyat jadallashuvi, globallashuvning tez sur'atlarda kechayotganini e'tiborga olsak, bu o'qituvchi-pedagog uchun katta salbiy jihat hisoblanadi. O'qituvchi bilim va malakasini boy madaniy meros hamda jahon ilmiy tajribalari bilan bir vaqtda uyg'unlashtirgan holda oshirib borishi ta'lim sifatini ko'tarishdagi kichik, ammo muhim qadam qo'yilganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этишимиз. - Т.: Ўзбекистон, 2016.
2. Боймуродов Н. Амалий психология. - Т.: Янги аср авлоди, 2008.
3. Ибрагимов Х., Абдуллаева Ш. Педагогика назарияси. - Т.: Фан ва технология, 2008. - 173 б.



TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM ISHLARINI BAHOLASHNING USULLARI VA VOSITALARI

Z.UCHKUROVA,

T.N.Qori Niyoziyi nomidagi O'zPFITI tayanch doktoranti

Mustaqil ta'lim – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishni, o'zlashtirish darajasini amalga oshiriladigan ta'lim shakllaridan bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari, bilimlar taqsimotiga tayyorgarligi asosida sinfdan tashqarida bajariladi.

Kalit so'zlar: *o'qitish, anatomiya, mustaqil ta'lim, topshiriq, taqdimot, loyiha portfoliolari, amaliy ko'rgazmalar, onlayn viktorinalar, rubrikalar ishlab chiqish.*

Самостоятельное обучение – одна из форм обучения, при которой повышается степень усваивания знаний, умений и компетенций по конкретному предмету, которые определены в учебной программе и должны быть освоены обучающимися, осуществляется вне аудиторной деятельности по советам и рекомендациям преподавателя.

Ключевые слова: *преподавание, анатомия, самообучение, задание, презентация, портфолио проектов, практические демонстрации, онлайн-викторины, развитие рубрик.*

Independent learning is one of the forms of learning in which the formation of knowledge, skills and competencies, which are defined in the curriculum of a particular subject and must be mastered by the student, is carried out outside the classroom. on the advice and recommendations of the teacher; preparation for the dissemination of knowledge.

Key words: *teaching, anatomy, self-study, assignment, presentation, project portfolio, practical demonstrations, online quizzes, rubric development.*

Mustaqil ish – o'qituvchining topshirig'i va uning rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limning faol metodi. Mustaqil ish bu qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabani mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka asoslangan faoliyatidir.

Talabalarning mustaqil ta'limni tashkil etishdan asosiy maqsad fan bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish, mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ, hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini tarkib toptirishdan iboratdir.

Talabalarning mustaqil ta'limi va fan modullarini o'zlashtirish jarayonini sinonim deb qaralishi kerak. Ma'ruza mashg'ulotlarida talabalar o'rganilayotgan



fandan umumiy tushunchalardan iborat bilimlar shakllantirilsa, talaba mustaqil ta'lim faoliyati natijasida fanni to'liq o'zlashtiradi. Bu jarayon talabalarni kreativ fikrlashga, olgan bilimlarini ishlata olish qobiliyatini shakllantirishga va muammolarni oson yechimini topa olish qobiliyati shakllantirishga olib keladi.

«Odam anatomiyasi va fiziologiyasi» fanidan ishlab chiqilgan talabalarning mustaqil ta'limi uchun tavsiya etilayotgan topshiriqlarni talab darajasida bajarishi talabalarni mazkur fanni to'liq o'zlashtirishi uchun kafolat bo'ladi.

Pedagogik jarayonda qo'llaniladigan mustaqil ish turlari nihoyatda xilmaxildir. Aksariyat didaktik metodistlar esa mustaqil ishni mustaqillik darajasi bo'yicha tasniflab, mustaqil ishning taqlid qilish, yoki didaktik maqsadlarda – yangi bilim olish, bilim, ko'nikma va malakalarni takrorlash va tekshirish bo'yicha mustaqil ish kabi guruhlariga ajratadi.

Respublikamizda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga mos ravishda talaba shaxsini kompetensiyaviy imkoniyatlarini mustaqil ta'lim orqali yanada takomillashtirish, kompetentli kadrlarning innovatsion faoliyatini dasturiy maxsulotlar, mediatilim, interaktiv ta'lim texnologiyalarida amalga oshirish zarurati kuchaymoqda. Bu esa, oliy ta'lim muassalarida ta'lim tizimidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, fan dasturlarini qayta ko'rib chiqishni, o'quv dasturlari mazmuniga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini singdirish, fanlararo aloqadorlikning nazariy-metodologik asoslarni rivojlantirish hamda ta'lim oluvchilar amaliy va mustaqil faoliyatlarini takomillashtirishda uning tatbig'ini oshirish muammosini har tomonlama chuqur tadqiq qilishni taqozo qilmoqda. Muammoga doir ko'plab ilmiy va pedagogik tadqiqotlar amalga oshirilganiga qaramay, talabalarning mustaqil fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni jahon standartlariga javob beradigan mutaxassis kadr qilib tayyorlashda mustaqil ta'limni takomillashtirish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish hamda baholashga ahamiyat berilmagan, mehanizmlari ishlab chiqilmagan. Talabalar mustaqil ishini nazorat qilishga ijodiy asosda yondashilmayapti. O'quv rejalarida auditoriya soatlariga nisbatan auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limga ko'proq vaqt ajratilayotganiga qaramasdan, ko'pincha bu vaqt talabalar tomonidan o'quv faoliyatidan tashqaridagi «bo'sh vaqt» sifatida qabul qilinmoqda. Bunda auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limning soatlari haftalik kesimda rejalashtirilmayotgani va nazorat qilmasligi, rag'batlantirish choralarinin yetarli emasligi asosiy o'rin tutyapti. So'rovda ishtirok etgan talabalarning aksariyati mustaqil ishlar bahosining umumiy bahoga qo'shilmayotgani, ba'zi o'qituvchilargina umumiy ballga qo'shayotganini ta'kidlagani ham mustaqil ishlarni rag'batlantirish sust darajada ekanini ko'rsatadi;



– auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarni bajarishda talabalar tomonidan plagiat va o‘zlashtirish holatlari keng tarqalgan hodisa bo‘lib qolmoqda. Talabalar akademik halollik qoidasini buzishini tan olmoqda. Mazkur holat OTMlarda professor-o‘qituvchilar tomonidan talabalarga akademik halollik borasida yetarlicha tushuntirish ishlari olib borilmayotgani hamda mustaqil ishlarni antiplagiat dasturlari orqali tekshirish amaliyotining mavjud emasligi bilan bog‘liq. Mustaqil ishlarni hanuzgacha qo‘lyozma shaklda qabul qilish amaliyotining saqlanib qolganligi ham mazkur muammoni yanada chuqurlashtirmoqda;

– talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarini tashkil qilishda «oddiydan murakkabga» tamoyiliga amal qilinmayapti. Shu bilan birga, mustaqil ish mavzusi hamda usulini tanlashda talabaning qobiliyatlari va qiziqishlari hisobga olinmayapti;

– professor-o‘qituvchilarning yarmidan ko‘pi mustaqil ishlarni o‘quv kursining faqat nazariy masalalari bilan cheklangan holda tashkil etmoqda. Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, talabada real amaliy muammolar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish qoniqarli holatda emas;

– professor-o‘qituvchilarning yangi ilmiy manbalar bilan ishlash faolligi past darajada qolmoqda. Bu ham, o‘z navbatida, talabalarning mustaqil ishlarni tashkil etishda ilmiy va innovatsion bo‘shliqlarni yuzuga keltiradi;

– Mustaqil ta‘limni tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish hamda baholashda deyarli innovatsion, interaktiv o‘yinli dasturiy ta‘minotlardan, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilmasligi ma‘lum bo‘ldi.

Talabalar mustaqil faoliyatining shakllari, metodlari xilma xil bo‘lib, fanni (sohani) mustaqil o‘rganishning negizi hisoblanadi: ilmiy adabiyotlarni annotatsiya qilish, birlamchi manbalar bo‘yicha konspekt tuzish, referat va ma‘ruza yozish, kurs va bitiruv ishlarini bajarish, auditoriyadan tashqari paytda tajriba o‘tkazish hamda olingan miqdoriy natijalarni ham miqdor, ham sifat jihatidan tahlil qilish va boshqalar. Har qanday yangilik, taraqqiyot inson aql zakovatining mahsuli hisoblanadi, xuddi shu bois fan texnika rivoji ko‘p jixatdan mutaxassisning mustaqil fikrlashiga bog‘liq. Talaba kamoloti jismoniy, axloqiy va aqliy bosqichlardan iborat bo‘lib, bu borada uning mustaqil fikrlashi muhim o‘rin egallaydi. Hozirgi davrning talabalari jismoniy, axloqiy jihatdan komillik darajasiga erishsada, lekin aqliy kamolotga erishishi bir qancha ko‘rinishlarga, ya‘ni asab tizimining taranglashuvi, aqliy zo‘riqish, hissiy jiddiylashuv, barqaror irodaviy akt, uzluksiz faollik, fidoyilik namunalari evaziga bosqichma bosqich amalga oshiriladi.



Oliy ta'limda talabalarning mustaqil ta'lim olishini tashkil qilishning pedagogik-psixologik o'ziga xos xususiyatlarini asoslash, fakultetlarda olib borilayotgan mustaqil darslar mazmuni va uni egallashning texnologik shart-sharoitlarini aniqlash, shuningdek, talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ta'limni mazmunini yoritish va uning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda oliy ta'lim tizimi oldida turgan aniq vazifalardan biri yoshlarning ijtimoiy faolligini hamda bilim darajasining raqobatbardoshligini ta'minlash, nazariy va amaliy bilimlarini mukammallik darajasiga olib chiqish masalasi dolzarbdir.

1. Talabalar o'quv-biluv faoliyatining o'ziga xos jihat va tamonlaridan biri ularning mustaqil bilimlar egallashi va mustaqil faoliyatni tashkil qilish masalasi katta ahamiyat kasb etadi.

2. Talabalarning bilimlarining sifat darajasini yanada ko'tarish uchun mustaqil bilim olishning innovatsion uslublaridan va imkoniyatlaridan keng miqyosda foydalanish, taxsil oluvchilarning axborotlarni saralash va filtrlash imkoniyatlarini yanada kengaytirish lozim. Yuqoridagi afzalliklarni e'tiborga olsak, oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limni tashkil etishning muhim ahamiyatga ega ekanligi kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.Shomurodov. Oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limni tashkil etishning metodikasi. Educational Research in Universal Sciences ISSUE 14| 2023 941-946 b

2. Uchkurova Z.Sh., Mamatqulov D.A. The role and importance of tests in the assessment of knowledge. Multidisciplinary scientific journal «arhivarius» Collection of scientific publications ukraine kiev 2019. 176-185

3. Uchkurova Z.Sh. Developing competent approach of students by improving test assignments. nWorld Bulletin of Social Sciences An International Journal Germaniya 2021 83-86

4. Uchkurova Z.Sh., Mamatqulov D.A. Opportunities of Using Electronic Educational Tools in Assessing Students' Knowledge Skills. Web of scholars: multidimensional research journal Germaniya 2022 131-135

5. Uchkurova Z.Sh. Oliy ta'lim tizimida talabalar bilimini baholashda kredit modul tizimidan foydalanishning hozirgi holati. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnal. Toshkent. 2022. 627-630.



LABORATORIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

H.O. TURSINBOYEVA,

O'zPFITI 1-bosqich tayanch doktoranti

Ushbu maqolada umumiy ovrta ta'lim muassasalarida va oliy o'quv yurtlarida laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha metodik materiallar; laboratoriya mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlari va ularni tashkil etishdagi zamonaviy usullari va metodlari, o'quvchi va talabalar orasida biologik bilimlarni takomillashtirish, biologiya fanidan ko'nikmalarni takomillashtirish usullari, o'quvchi - talabalar orasida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan tashqari kognitiv faoliyatini shakllantirish haqida so'z boradi.

Kalits o'zlar: laboratoriya, malaka, metodika, ko'nikma, talaba ish daftari, fiziologik eritma, muommoli savol, ko'p tanlovli topshiriqlar.

В данной статье представлены методические материалы по организации и проведению лабораторных занятий в общеобразовательных средних учебных заведениях и высших учебных заведениях, особенности лабораторных занятий и современные методы и методы их организации, совершенствования биологических знаний у школьников и студентов, методы совершенствования. формирования навыков по биологии, формирования познавательной активности школьников-студентов помимо формирования практических навыков.

Ключевые слова: лаборатория, квалификация, методика, навык, рабочая тетрадь, физиологическое решение, проблемный вопрос, задания с несколькими вариантами ответов.

This article presents methodological materials on organizing and conducting laboratory classes in general secondary educational institutions and higher educational institutions, features of laboratory classes and modern methods and methods of their organization, improving biological knowledge in schoolchildren and students, methods of improvement. formation of skills in biology, formation of cognitive activity of schoolchildren and students in addition to the formation of practical skills.

Key words: laboratory, qualification, methodology, skill, workbook, physiological solution, problematic question, tasks with multiple answers.

Mamlakatimizda mustqillik yillarida oliy ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash, o'quv jarayonini kompyuterlashtirish, o'quv uslubiy, ilmiy ta'minotini rivojlantirishga qaratilgan poydevor ishohatlar, talabalarni aniq va tabiiy fanlar bo'yicha tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda axborot texnolo-



giyalarini qo'llash imkoniyatlarini yanayam kengaytirdi. Har bir o'rta maxsus ta'lim muassasalarida va oliy ta'limda o'quv mashg'ulotlari ya'ni ma'ruza, seminar, amaliy darslar singari laboratoriya mashg'ulotlari uzluksiz ravishda o'tkazilib kelinadi.

Laboratoriya mashg'ulotlari o'qitish shakli sifatida XX asrning 30- yillaridan boshlab dars jarayonlarida keng qo'llanila boshlagan. Ko'pchilik pedagoglarning fikricha, laboratoriya mashg'ulotlarining asosiy maqsadi o'quvchilar-talabalar olgan bilimlarini yanada chuqurlashtirish, o'rganiladigan obyektlar to'g'risida o'quvchilarda, talabalarda aniq tasavvur hosil qilish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatishdan iborat. Laboratoriya ishlari o'quvchi-talabalarni tabiatga, hayvonot dunyosini o'rganishga, har xil fiziologik jarayonlarga qiziqishini orttiradi, ularning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

O'quvchilarning bajaradigan mustaqil ishlari laboratoriya mashg'ulotlarining asosini tashkil etadi. Ammo, laboratoriya mashg'ulotlari umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinfda o'tiladigan darslarning tarkibiy qismiga kirsada, hanuzgacha ularning ilmiy va metodik jihatdan tadqiq qilishga yetarli e'tibor berilmasdan kelinmoqda. Bu sohada o'quv qo'llanmalar juda kam yaratilgan. Laboratoriya mashg'ulotlari o'quvchilarning, talabalarning dars davomida o'rganangan bilimlarini amaliy hayot bilan bog'lashda va mustahkamlashda, ularning kuzatish va tajriba olib borish ko'nikmasining rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Laboratoriya darslarida turli xil (ko'z, quloq, tuyg'u va boshqa) sezgi organlarining ishtirok etishi va tabiiy obyektlarini, mulyajlarni, mavzuga oid video ro'liklarni, har xil ko'rgazmali qurollar orqali bevosita o'rganishi natijasida, o'quvchilar, talabalar ongida mavzuga oid tasavvurlar mustahkam o'mashib qoladi. Laboratoriya mashg'ulotlarida o'quvchilar, talabalar bilimini o'qituvchidan yoki kitobdan emas, balki o'zlari bajargan laboratoriya mashg'ulotlari orqali oladi. Har bir darsni o'qitish samaradorligini oshirish uchun laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish maqsadga muvofiq bo'la oladi.

Laboratoriya mashg'ulotlari o'quvchilarni o'zlari boshlagan ishini muayyan maqsadga erishilgunicha davom ettirishga, intizomli bo'lishga o'rgatadi. Laboratoriya mashg'ulotlarining o'quv-tarbiyaviy ahamiyati, ayniqsa o'quv jarayoniga yangi pedogogik texnologiyalar kirib kelishi tufayli o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini keskin kuchaytirish zaruriyati tug'ilgan hozirgi davrda ortib bormoqda.

Laboratoriya mashg'ulotlari o'rta maxsus ta'limda va oliy ta'lim muassalarida o'quvchilar va talabalar muhim vazifalarni bajaradi ya'ni ularning tabiatga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi; nazariy bilimlarni mustahkamlaydi; ularning mehnat ma'daniyatini va intizomini shakllantirishga yordam bera oladi; ularning chuqur bilim olishiga yo'naltiradi; ularning asbob-uskunalar bilan ishlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yordam beradi; mustaqil tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirish kabi qobiliyatlarni laboratoriya darslari bera oladi.



Laboratoriya mashg'ulotlari quyidagi bosqichlar asosida tashkil etiladi.
I. O'quvchi-talabalarning laboratoriya mashg'ulotining maqsadi, borishi va bajariladigan topshiriqlar bilan tanishtirish.

II. O'quvchi-talabalarni kichik guruhlariga ajratish va ularga o'quv-topshiriqlarni tavsiya etish.

III. O'quvchi-talabalarning kichik guruhlarda mustaqil ishini tashkil etish.

IV. Kichik guruhlarning o'quv topshiriqlari yuzasidan axborotlarni tinglash.

V. Laboratoriya mashg'ulotini yakunlash.

O'quv jarayoniga qo'yiladigan zamonaviy talablar o'qituvchilarni talabalar faoliyatini tashkil etish orqali bilim, ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Talabalarda laboratoriya ishlari biologik obyektlarnidan, ko'zgzamali qurollardan, biologik moslamalardan va materiallardan mustaqil ravishda foydalanish kabi zarur ko'nikmalarni shakllantirish bilan birgalikda nazariy bilimlarni qo'llash, chuqurlashtirish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyat turini shakllantirishga yordam beradi.

Pedagogika ta'lim yurtlarida boshqa oliygohlar singari laboratoriya darslari mavjud bo'lib (biologiya ta'lim yo'nalishlarida), bu mashg'ulotlar uchun alohida honalar ajratilgan. Lekin, bu honalar to'liq jihazlanmagan yoki metodik ta'minoti to'liqligicha bo'lmasdan, darslar ko'proq an'anaviy tarzda ya'ni o'qituvchi boshchiligida suhbat metodi orqali bo'lib o'tadi. Bu kamchiliklarni qisman darajada to'ldirish maqsadida, tabalarni bo'sh vaqtini unumli, qiziqarli va kerakli ma'lumotlarga boyitish maqsadida talabalar laboratoriya ish daftarini yaratishga kirishdik. Bunda talabalar an'anaviy darsdan uzoqlashgan holda dars jarayonini o'qituvchi emas balki, talabaning o'zi nazorat qila oladi. Bu degani vaqtni to'g'ri taqsimlay oladi, o'zini bilimini baholay oladi. Laboratoriya ish daftarida mavzuga oid nazariy qism, kerakli laboratoriya asbob uskunolari haqida ma'lumot, laboratoriya ishini bajarish tartibi, mavzuga oid rasmlar, video ro'liklar (skanerlash orqali ko'rish mumkin bo'lgan), muommoli topshiriqlar, ko'p tanlovli testlar, so'zsiz rasmlarni to'ldirish uchun joy, chizish uchun rasmga joy atratilgan bo'ladi.

Masalan fiziologiyadan 3-kurslarga o'tiladigan mavzular orasidan birinchi mavzuni olaylik: «Laboratoriya asbob uskunolari, eritmalar bilan tanishish». Bunda dastlab mavzuning nazariy qismi keltirilib o'tiladi ya'ni baqalarni jonsizlantirish usullari, hayvonlarni fiksatsiyalash, ularni to'g'ri saqlash uchun har xil fiziologik eritmalar, fiziologiya laboratoriyasidan qo'llaniladigan eng kerakli asbob-uskunalar haqida ma'lumotlar va ularning rasmlari keltirilib o'tiladi.

Mavzuga oid rasmlar beriladi. Fiziologik eritmalar to'g'risida jadvallar keltirib o'tiladi. Fiziologiyada foydalaniladigan ayrim asbob-uskunalar keltirilib o'tiladi masalan, katta hajmdagi qaychi; kichik hajmdagi qaychi; igna; ilgak; laborator ignasi;

– shisha ilgak; skalpel; gemostatik qizqichlar(qon to'xtatuvchi); pinset;



Diffenbach qisqichlari kabi fiziologik asboblarning rasmlari keltirilgan bo‘ladi.

Undan tashqari har xil yozma topshiriqlar ham keltirilib o‘tiladi masalan:

1. Fiziologiya fanining rivojiga katta hissa qo‘shgan olimlar? (Olimlarning qilgan ishlarini yozsangiz balingizga ball qo‘shiladi) 2. Organizm nima? Kabi savollarga talaba javob yozib ketadi va baholanadi.

Fiziologiyaga oid rasmlar keltirilib ular haqida ham talaba ma’lumotlar yozib ketadi. Bunda quyidagicha topshiriqlar keltirib o‘tiladi.

1. Keltirilgan rasmga qarab fiziologik tizimlarni ketma-ketligini to‘g‘ri joylashtiring:

2. Keltirilgan rasmga qarab fiziologik tizimlarni nomini qo‘yib chiqing.

Keyingi topshiriq esa atamalar izohi hosoblanib, bunda fanga oid atamalar keltirilib, talaba bu atamalarga izohlar yozadi.

Shunday qilib talaba ish daftari o‘quv metodik ta’minotning asosini tashkil etishga yordam beradi. Unda talabaning o‘z faoliyatini o‘zi boshqarib borishi, o‘z bilimini o‘zi baholash uchun zarur bo‘lgan tavsiyalar, topshiriqlar, muommoli savollar, ko‘p tanlovli testlar, mavzuga oid rasmlar, video ro‘liklar, imkoniyati cheklangan talabalar uchun ham qo‘l kela oladigan har xil topshiriqlar keltiriladi. Talaba ish daftarida laboratoriya mashg‘uloti mavzusini shaklan mustaqil, mazmunan o‘zaro uzviy bog‘langan bir necha laboratoriya ishlariga ajratib o‘rganish tavsiya etiladi.

O‘quvchi va talabalar tomonidan bajariladigan tajribalar darsning qaysi bosqichida bajarilishini, qachon, qanday tashkil etilishi, jihozlarni laboratoriya ishida tayyorlash, ulardan samarali foydalanish, kam miqdordagi tajriba mahsulotlari bilan ishlashga e’tiborlarini kuchaytirish, shuningdek, o‘quvchilarda tejamkorlikni tarbiyalash, tajribalarning xavfsizligini ta’minlash, tajribalarni taqqoslab, qonuniyatlarini aniqlash, to‘g‘ri va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, tajribada aniqlangan faktlar asosida umumlashtirish kabi bilim va malakalarni hosil qilishga yo‘naltirilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tolipova J.O, G‘ofurov A T. Biologiya ta’limi texnologiyalari. Metodik qo‘llanma O‘qituvchi nashriyoti. Toshkent, 2002

2. To‘rayev S.J. Dasturiy vositalar ososida talabalarning kasbiy faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish. Dissertatsiya PhD: 13.00.05. Toshkent. 2019.

3. Nadjimova N.S. Zoologiyadan laboratoriya mashg‘ulotlarida modul texnologiyasidan foydalanishning ilmiy metodik asoslari (akademik litseylar misolida). Dissertatsiya PhD: 13.00.02. Toshkent. 2008.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMI UZVIYLIGINI TA'MINLASHDA KLASTERLI YONDASHUV

V.Q. RAXMONOVA,
NamMQI, katta o'qituvchisi

Maqolada, professional va oliy ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlashdagi asosiy vazifalar va ta'limda klaster texnologiyalarining tutgan o'rni, maqsadi, xususiyatlari hamda afzalliklari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: professional ta'lim, oliy ta'lim, uzviylik, klaster texnologiyalari.

The article covers the main tasks in ensuring continuity in the professional and higher education system and the role, purpose, features and advantages of cluster technologies in education.

Key words: professional education, higher education, continuity, technologies cluster.

В статье рассматриваются основные задачи по обеспечению преемственности в системе профессионального и высшего образования, а также роль, значение, особенности и преимущества кластерных технологий в образовании.

Ключевые слова: профессиональное образование, высшее образование, непрерывность, кластерные технологии.

Bugungi kunda ta'lim xizmatlari konyukturasi bozori bilan mehnat bozori konyukturasi to'liq mos keladi deyish qiyin. Bu ta'lim turlari va ishlab chiqarish uzviylik tizimini takomillashtiruvchi yangi mexanizmni yaratishni taqazo etadi. Shunga ko'ra O'zbekiston sharoitida ta'lim sifati bilan bog'liq amalga oshirilayotgan chuqur o'zgarishlar eng avvalo ta'lim tizimi bilan bir qatorda sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishda ham o'z aksini topmoqda. Bu o'rinda ishlab chiqarish korxonalarini va ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro bog'liqlik hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda yangi texnologiyalar asosida o'qitish muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanmoqda va bu O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarida ham o'z aksini topgan. [1]

XXI asr fan va yuqori texnologiyalarning shakllanish davridir. Hozirgi kunda raqobatbardosh jamiyatni barpo etish va hayotiy farovonlikni shakllantirish ko'p jihatdan ilmiy tadqiqot va innovatsion loyihalar ko'rsatkichi va holatiga bog'liqdir. Shu o'rinda qayd etish joizki, ta'lim tizimlari va ishlab chiqarish uzviyligini ta'minlash iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni belgilab beradi.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini joriy etilayotgan muhim tarkibiy qismi hisoblangan «professional va oliy ta'lim» tizimida uzluksizlik va uzviylikni



ta'minlash muhim muammolari biri hisoblanadi. Zero, ushbu tizim respublikamiz uchun yangidan joriy etilayotgan uzluksiz ta'lim bosqichlari sanalib, shu davrga qadar ularning mazmunan va tashkiliy-metodik jihatdan uzviylikini ta'minlash muammolari alohida tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilmagan.

Bu boradagi muammolar yechini ta'minlash maqsadida quyidagi vazifalarning hal etilishi lozim deb hisoblaymiz:

1. Muammoning nazariya va amaliyotdagi ahvolini o'rganish asosida professional va oliy ta'lim tizimida mutaxassislar tayyorlash muammolari uzluksizligi va uzviylikini ta'minlash dolzarb pedagogik muammo ekanligini asoslash.

2. Ta'lim uzluksizligini ta'minlashda bo'lajak mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy ko'nikmalarining o'rni va o'zaro salmog'ini belgilash.

3. Professional va oliy ta'lim tizimi uzluksizligi va uzviylikini ta'minlashning klaster texnologiyalarini ishlab chiqish.

Ta'limda uzviylik ikki ma'noda qo'llaniladi. Birinchidan, ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylik. Bunda ta'limning keyingi turi mazmuni avvalgisini nafaqat davom ettirishi kerak, balki qisman takrorlab, mazmun jihatdan uzviy bog'langan holda uning keyingi ta'lim turida davom ettirishi kerak. Ikkinchidan, o'quv fanlari orasidagi uzviylik. Bu odatda fanlararo yoki predmetlararo bog'lanish bo'lib hisoblanadi.

Uzluksizlik – bu jumladan umumiy o'rta ta'lim bilan professional ta'limi yoki professional ta'limi bilan oliy ta'lim orasidagi ta'lim mazmunida uzilish bo'lmashligini, ya'ni keyingi ta'lim turi mazmuni oldingisini uzluksiz davom ettirishi tushuniladi.

O'qitishda uzviylik didaktik prinsip bo'lib, u ta'lim mazmunini ifodalovchi o'quv rejalari, dastur, darsliklarida o'quv materiallarining bir-biri bilan mantiqiy bog'liq bo'lishini, oldin o'zlashtirilgan bilimlarga tayangan holda keyingilarini o'zlashtirishga tayyorlashni, bo'lajak mutaxassislarda ta'limning har bir bosqichida ma'lum darajada bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni talab qiladi.

Hozirgi kunda, uzviylik va uzluksizlik muammosini to'la hal etish uchun nafaqat ta'lim bosqichlari va fanlararo, kurslararo uzviylik va uzluksizlikka e'tibor berish, balki ta'lim mazmunini bayon qilishda o'qitish texnologiyasidagi uzviylik va uzluksizlikni ham ta'minlash muhimdir. Shu o'rinda, uzluksiz ta'lim jarayonida maqsad va vazifalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish davomida klaster texnologiyalariga bo'lgan ehtiyoj yaqqol sezilmoqda. Bunday faoliyatda albatta turli innovasion texnologiyalarni qo'llash orqaligina bo'lajak mutaxassislarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish lozim bo'ladi. Eksperimental maydonlarda (mashinasozlik texnologiyasi ta'lim yo'nalishida) tahsil olayotgan



bo'lajak mutaxassislarining ta'lim texnologiyalari jarayonidagi kompetentligini oshirish shu soha mutaxassislarining, ya'ni pedagog-muhandislarining muhim vazifalaridan biridir. Bu o'z navbatida professor-o'qituvchilar va shu yo'nalish mutaxassislaridan izlanish faoliyati va kasbiy o'sishda(kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish jarayonida) shaxsan o'zini ham ishtirok etishga jalb qilish muammosini bartaraf etadi.

Bu kabi yondashuv hozirgi ta'limni rivojlantirish, samaradorligini oshirish va ta'limning sifat darajasida raqobatbardoshlikni yanada yuksaltirish maqsadida ham qo'llanilishi mumkin. Jarayonni to'g'ri tashkil etishda klaster texnologiyasini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Masalan, Rossiyada, aniqrog'i Tataristonda hozirda kasbiy ta'limni klaster texnologiyasi asosida isloh qilish dasturi va konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

Klasterlar mintaqalar iqtisodiy rivojlanishini raqobatbardoshligini ta'minlash vositasi sifatida, g'oyasi keyingi yillarda dunyoning barcha mamlakatlari, jumladan: Sharqiy Yevropa, Janubiy Amerika, Afrika, Yevropa Ittifoqi davlatlarida, AQSH va Rossiyada keng rivoj topmoqda.

Klaster texnologiyalarining nazariy asoslari XIX asrning oxirlarida A.Marshal tomonidan yaratilgan bo'lib, klaster tushunchasi esa XX asrning 80-yillari boshida dunyoda iqtisodiy rivojlanishning raqobatbardoshligini oshirishning aniq yo'llarini izlash muhim muammoga aylangan vaqtda bu sohada yetakchi olim Garvard biznes maktabi professori Maykl Porter tomonidan fanga kiritilgan. Porterning fikricha, klaster manfaatdor tomonlarning postindustrial iqtisodiyotning tiklanish davrida raqobat jarayonida ustunlikka erishishga qaratilgan sa'y-harakatlarni birlashtirishning tashkiliy shakli. Amaliyotchi olim klaster texnologiyaning nazariy asoslarini, shuningdek, tizimlar raqobatbardoshligini baholash monitoringi metodikasini ishlab chiqdi.

Klaster texnologiyalarining ishlab chiqaruvchi kuchlarni tashkil qilishning istiqbolli shakli sifatida rivojlanishi xorijiy va mamlakatimiz tadqiqotchilari tomonidan o'rganilgan. Klasterlarni shakllantirish metodikasi bilan M.Porter, L.Yang, V.Prays, D.Yakobe, L.De.Man, S.Rozenfelgd, M.Voynarenko, M.Gaushkina, L.Voronov, A.Buryak; Rossiya iqtisodiyotini klasterlash va uning institutsional qurilishini takomillashtirish muammolarini o'rganishga L.Abalkin, A.Aganbenyan, S.Anfinogenov, S.Glazg'ev, G.Bandurin, V.Kapelyushnikov, A.Polidi, Ye.Yasin; va S.A.Rosenfeld, D.W.Maquire, T.Andersson, M.J.Enright, E.Feser hamda yurtimiz olimlaridan B.Usmonov, U.N.Xodjamqulovlar katta xissa



qo'shganlar. Bugungi kunga kelib, klaster texnologiyalarining nazariy jihatlarini ancha batafsil yoritilgan. Tadqiqotlar va adabiyotlarda bu mavzuga oid ko'plab ma'lumotlar va maqolalarni ko'rish mumkin, afsuski, ularning katta qismi tavsifiy xarakterga ega bo'lib, klaster loyihalarini amalga oshirish tajribasi yetarlicha emasligi bilan ajralib turadi.

Mamlakatimizda klaster texnologiyasi ko'pchilik tomonidan efemer, faqat xorijda qo'llanadigan texnologiyasi sifatida qaraladi, lekin ta'lim muassasalarining (professional ta'lim texnikumlari va oliy ta'lim muassasalari) klaster texnologiyasidan foydalanib, innovasion loyihalarda qatnashish va ta'lim tizimida foydalanish imkoniyati deyarli yoritilmagan.

Avval, klaster texnologiyasiga umumiy tarzda tavsif berib o'tsak. Bu muammolarni o'rganishda turli manbalardan olingan va ta'limga moslashtirilgan ma'lumotlarga tayanamiz:

Klaster- so'zi inglizcha «cluster» – bosh, to'plam, to'planish ma'noni bildiradi. Klaster katta hajmdagi axborotni strukturalangan va tizimlashtirilgan ko'rinishda taqdim(tasavvur) qilish, mavzuning asosiy mazmunini aniqlash imkonini beradigan texnologiyalardan biridir.

Klaster – bo'g'in (ta'lim, iqtisodiyot, sosiologiya, tabiatshunoslik va h.k.bo'g'ini).

Klaster – bo'lajak mutaxassislarining barcha bosqichlarda (uzluksiz ta'lim tizimi) subyektlarning ilmiy, tajriba va amaliy jarayonlarda birlashishi.

Klaster texnologiyasining maqsadi-ta'lim sifatini oshirishda ta'limning ilmiy va amaliy muammolarni bir vaqtning o'zida bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan yo'nalishlarni birlashtirish orqali hal etishni ta'minlash.

Klaster xususiyatlari:

– barcha ta'lim tizimining innovasion strategiyasini belgilaydigan institutning mavjudligi;

– kasbiy faoliyat sub'yektlari asosiy massasining hududiy lokallashtirilishi;

– klaster tizimi qatnashchilarining integrativ aloqalari barqarorligi;

– tizim sub'yektlarining yagona dastur, innovasion jarayonlar, boshqaruv tizimlari, sifat nazorati va h.k. doirasidagi o'zaro aloqalari uzoq muddatli muvofiqlashtirilishi;

– klasterda ma'muriy tuzilmalarning majburiy ishtiroki;

– klaster texnologiyalarini ta'limning boshqa tizimlari foydalanishi uchun yo'naltirilganligi.



Klasterning afzalliklari:

– klaster texnologiyasi ta'limdagi muammolar va tegishli yo'nalishning kuchli tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Olingan axborot tahlil qilinadi va ta'lim tuzilmalari tomonidan ta'limni rivojlantirishning vositalari keyingi to'g'ri tanlovi uchun favqulodda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Muhimi, klaster texnologiyalari amal qilish sharoitida ishlarning holati haqidagi axborot faoliyat refleksiya hisobiga va uning har bir klasterlari natijalari tobora ob'yektivdir;

– klaster texnologiyalar muvofiqlashtiruvchi organlari ishida ma'muriy tuzilmalarning ishtiroki ta'lim muassasalariga tashkiliy va iqtisodiy qarorlar qilish imkonini beradi;

– klaster texnologiyalari yordamida boshqaruv organlari tadqiqotlar tajribasi va natijalaridan mintaqada ta'limni rivojlantirish uchun yanada samarali foydalanishi mumkin, ya'ni klaster texnologiyalari boshqaruv organlariga ta'lim tizimlari ichida samarali o'zaro hamkorlik, muammoni chuqurroq anglab yetish, mamlakatda ta'lim rivojlanishini ilmiy asoslangan tarzda rejalashtirish uchun aniq elementlarini taqdim etadi.

Demak, ta'lim tizimi didaktik prinsiplar asosida ta'lim va tarbiya berish jarayonida bo'lajak mutaxassisning o'zi tomonidan rejalashtirilgan, tashkillashtirilgan, amalga oshirilgan va qandaydir natijaga ega bo'lishida bu texnologiyaning nechog'lik ahamiyatli ekanini ko'rishimiz mumkin ekan. Klaster texnologiyasini amalga oshirish uzviyligi ta'minlangan va integratsiyalangan ta'lim tizimidagi ta'lim jarayonlarining umumiy yig'indisi asosida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi» to'g'risidagi Farmoni.

2. Raxmonova V.Q. Uzlüksiz ta'lim tizimi uzviyligini ta'minlashda klaster texnologiyalaridan foydalanish. -T.: «Uzlüksiz ta'lim» ilmiy-uslubiy jurnal. №5. 2014.



РАБОТА СПЕЦИАЛИСТОВ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ СРЕДЫ

Г. ИБРОХИМХАНОВА,
соискатель УзНИИПН

В статье дается определение инновационной образовательной среды дошкольной образовательной организации и описывается подготовка специалистов к работе в дошкольных образовательных организациях в условиях инновационной образовательной среды.

Ключевые слова: инновационная образовательная среда, раннее обучение иностранным языкам, подготовка специалистов к работе в дошкольных образовательных организациях в условиях инновационной образовательной среды.

The article provides a definition of the innovative educational environment of a preschool educational organization and describes the preparation of specialists for work in preschool educational organizations in an innovative educational environment.

Key words: innovative educational environment, early teaching of foreign languages, training of specialists for work in preschool educational institutions in an innovative educational environment.

В настоящее время стремительно протекают процессы реформирования во всех сферах общественной жизни, динамичное развитие общества требует постоянной модернизации образовательной системы и совершенствования личности специалиста, работающего в сфере образования. Особое значение в современных условиях имеет преемственность ступеней образования. Дошкольное образование становится первой ступенью образовательной системы республики.

В связи с этим еще более актуальной становится задача подготовки будущего специалиста, способного к саморазвитию и самосовершенствованию, к работе в постоянно меняющихся условиях, в условиях инновационной образовательной среды дошкольной образовательной организации.

Современное образование предполагает отказ от знаниевого подхода. Основной его целью становятся не сумма знаний, хотя знание остаётся универсальным критерием образованности, а набор необходимых компетенций в интеллектуальной, социальной, коммуникативной и др. сферах.

Главными сегодня считаются способность к самообразованию, социальная активность, умение отстаивать свои взгляды, правовую культуру и т.д., т.е. инновационный подход к образованию [1, с 104].



Инновационная образовательная среда при этом понимается как триединство следующих компонентов:

1) пространство развития детей – предметно-развивающая среда группы и детского сада в целом, которая способствует решению вопросов развития и воспитания детей в соответствии с Основной общеобразовательной программой учреждения; вариативность дополнительных образовательных услуг в соответствии с запросами социума (наличие широкого спектра предложений кружковой деятельности: эстетической, спортивной, языковой, общеразвивающей направленностей) и необходимостью построения индивидуальных образовательных маршрутов детей (ориентированность на личность ребенка); комплексное медико-психолого-педагогическое сопровождение детей; безопасная и здоровьесберегающая среда;

2) пространство развития педагогов - организация повышения квалификации и потребность в саморазвитии педагогов учреждения; система стимулирования и мотивации педагогов; сотрудничество, сотворчество и интеграция специалистов; взаимодействие с коллективами образовательных учреждений- социальных партнеров; педагогическое сообщество (социально-психологический климат, сплоченность коллектива);

3) пространство развития родителей – включенность семей в воспитательно-образовательный процесс ДООУ, педагогическое просвещение родителей, преемственность семейного и общественного воспитания, родительское сообщество [3].

Модели дошкольных образовательных организаций в качестве инновации была предложена всестороннего развития дошкольника посредством раннего обучения иностранным языкам (на материале немецкого языка).

Многочисленные исследования подтверждают, что сензитивным периодом для развития речи является период от 0 до 6 лет. Если в данном возрасте ребенок часто слышит иностранную речь или воспитывается в ситуации многоязычия, то он, как правило, овладевает 2 и более языками. При этом процесс изучения иностранного языка (вне зависимости от того, тот ли это язык, который ребенок слышал в детстве, или другой) протекает легче (С.И. Рубинштейн, Л.С. Выготский, Ю.П. Азаров, Т.Элиот, Дж. Брунер, Б. Уайт, Р. Робертс и др.).

Ранее изучение иностранного языка положительно влияет на общее речевое развитие ребенка, развитие его памяти, внимания, мышления и ус-



воение родного языка. При изучении иностранного языка закладываются также элементы культуры, развивается логика и догадка, воспитывается толерантность, происходит знакомство с другим менталитетом, развивается способность самоидентификации к группе, народу – все то, что необходимо для формирования гармонично развитой целостной личности.

Первым этапом развития модели особой инновационной образовательной среды дошкольных образовательных организаций стал этап открытия нового профиля в рамках программы подготовки бакалавров по направлению «Педагогическое образование» – Дошкольное образование и иностранный (немецкий) язык. В рамках данной программы осуществляется подготовка специалистов дошкольных образовательных организаций - воспитателей, которые одновременно будут являться учителями немецкого языка, что позволит им в будущем создать на месте работы особую инновационную образовательную среду посредством иноязычного общения.

Проведена работа по поиску партнеров, заинтересованных в создании особой инновационной образовательной среды на базе курируемых дошкольных образовательных организаций. Было найдено 2 партнера – 2 детских сада городского образования.

На базе данных дошкольных образовательных организаций в средних группах 2 раза в неделю проводятся занятия по немецкому языку. В общей сложности занятия посещают более 50 детей. Продолжительность занятия - 15-30 мин (в зависимости от настроения детей, форм и тематики работы, сложности материала). Количество детей, посещающих занятие одновременно, составляет 6-15 человек. Во время занятий к детям приходит маленький Зайчишка Ханс (надеваемая на руку кукла), который говорит только по-немецки. Он играет с детьми, танцует, делает поделки, рисует, поет, ставит эксперименты и таким образом становится малышам другом и начинает ассоциироваться в их сознании с немецким языком, позволяя сделать первые шаги к его изучению. Так, по итогам 3 месяцев занятий были изучены 100 лексических единиц, дети знают 10 песен, 1 ритмический диалог, они реагируют на обращения на немецком языке, показывают заинтересованность в продолжении изучения немецкого языка.

Отрадно, что в стороне не остаются и родители, даже те, кто никогда не учил немецкого языка. Дети рассказывают им, как проходят занятия, говорят то, что выучили, поют песни, показывают то, что сделали собственными



руками. Это нравится родителям, многие из них, стараясь поддержать интерес ребенка, начинают сами изучать язык, с удовольствием посещают открытые занятия, занимаются с детьми по карточкам.

Параллельно с проведением занятий для дошкольников осуществляется работа со студентами: организованы занятия по методике и дидактике для студентов, обучающихся на факультете психологии.

Посредством поддержания интереса студентов на достаточно высоком уровне происходит их практическое вхождение в профессию, расширяется кругозор, способность адаптироваться, развивается нравственное сознание, компетенции, различные инновационные способности и, конечно же, повышается уровень конкурентоспособности – то есть решается целый ряд вопросов, связанных с подготовкой современных специалистов дошкольных образовательных организаций. Данные специалисты подготавливаются к работе в дошкольных образовательных организациях в условиях инновационной образовательной среды творчески, практико-ориентированно, следовательно, и сами будут создавать подобные условия в будущем.

Литература:

1. Пидкасистый П.И., Педагогика.-URL: http://eusi.ru/lib/pidkasisityj_pcdagogika/index_shtml

2. Формирование инновационной образовательной среды дошкольного учреждения через реализацию целевых проектов. - URL: <http://pandia.ru/text/78/491/83635.php>

3. Morvai E., Verccs B. Deutsch mit hans hasc - in kindergarten und vorschulc.leitfaden. - URL: <https://wmv.gocthc.de/lhr/pro/Hans%20Hase/lchrerheft.pdf>



MASOFAVIY VA AN'ANAVIY TA'LIM UZVIYLIGI ASOSIDA TALABALARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH

Z.D.RASULOVA,

*Buxoro davlat universiteti doktoranti,
(PhD), dotsent*

Maqolada masofaviy o'qitish tizimi mazmuni yoritilgan. Talabalarga masofadan tegishli pedagogik shart-sharoitlarni yetkazish orqali innovatsion bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, ularni kreativ fikrlashga yordam beradigan jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkoniyatlari bayon etilgan. Integratsiya va o'zaro aloqa tamoyillariga ega bo'lgan masofaviy ta'lim vositalaridan foydalanish kabi g'oyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy o'qitish tizimi, masofaviy ta'lim vositalari, innovatsion bilim, kreativ fikrlash ko'nikmalari, axborot resurslari, individual mulohaza, virtual muhit.

В статье раскрыто содержание системы дистанционного образования. Речь шла о возможностях удовлетворения потребностей студентов в получении инновационных знаний путем предоставления соответствующих педагогических условий на расстоянии, доступа к мировой информационно-образовательной сети, которая помогает им мыслить творчески. Выдвинуты такие идеи, как использование инструментов дистанционного образования с принципами интеграции и взаимодействия.

Ключевые слова: Современная система обучения, инструменты дистанционного образования, инновационные знания, навыки творческого мышления, информационные ресурсы, индивидуальное общение, виртуальная среда.

The content of the distance education system is covered in the article. It was talked about the possibilities of meeting the needs of students to get innovative knowledge by providing appropriate pedagogical conditions at a distance, access to the world information and education network that helps them to think creatively. Ideas such as the use of distance education tools with the principles of integration and interaction have been put forward.

Key words: Modern teaching system, distance education tools, innovative knowledge, creative thinking skills, information resources, individual communication, virtual environment.

Dunyoning xalqaro ilmiy markazlarida jahon andozlariga mos raqobatbardosh, kreativ shaxsni tayyorlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilib, mazkur tadqiqotlar asosida oliy ta'lim jarayonida zamonaviy o'qitish tizimiga yo'naltirilgan yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlari ta'lim sifati va talabalarning bilim olish samaradorligining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Masofaviy ta'lim keng ta'lim bo'lib, o'zgaruvchan yondashuvning yuqori



darajasi bilan tavsiflanadi. U mohiyatan texnologiyaga asoslanganligi sababli uning ta'ri fi doimo rivojlanib boradi. O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi uchun masofaviy ta'limning afzalligi talabalarni o'quv resurslari bilan ta'minlash, ularning ta'lim olishga bo'lgan yuqori ehtiyojlariga erishishga imkon yaratadi. Hara, Bonk va Anjeli fikriga ko'ra, bunday elektron ta'lim vositalarining asinxron imkoniyatlari talabalarni ma'lum bir nazorat qilish imkonini beradi, shu bilan birga «vaqt» va umumiy aks ettiruvchi ta'lim va axborotni qayta ishlash imkoniyatlari tug'iladi [5. 267-304 b]. Bundan tashqari, kompyuter vositachiligidagi muloqotning kombinatsiyalangan interaktivligi va asinxronligi talabalarni o'z nuqtai nazarlari haqida fikr yuritishga, o'z kreativ fikrlarini ifoda etishga va o'zaro ta'sirning mazmunidan saboq olishga undaydi.

Masofaviy ta'lim dasturlarining asosiy afzalliklaridan biri shundaki, talabalar istalgan vaqtda elektron ta'lim muhitida ulanishi va o'z tezligida o'rganishi mumkin. Ko'pgina elektron ta'lim muhitlari odatda o'z-o'zidan ishlab chiqilganligi sababli, talabalar mustaqil ravishda o'qishga va vaqtlarini samarali boshqarishga juda qiziquvchan bo'lishi kerak. Talabalar virtual guruhda qatnashishlari va real vaqt rejimida o'qituvchilari va tengdoshlari bilan uchrashishlari mumkin. Nafaqat bu, balki ular fikr-mulohazalarni ham og'zaki, ham yozma shaklda olish imkoniyatiga ega. Ba'zi elektron ta'lim dasturlari asinxronidir. Biroq, ular ko'pincha talabalarga rejalashtirilgan vaqtda yuzma-yuz muloqot qilish va hamkorlik qilish imkonini beruvchi sinxron vositalarni o'z ichiga oladi.

Masofaviy o'qitish vositalari turli maqsadlarga xizmat qilish va turli funksiyalarni bajarish uchun mavjud: ta'limni boshqarish tizimlari, aloqa, raqamli o'rganish o'yinlari, onlayn ta'lim resurslari.

Masofaviy ta'lim vositalaridan foydalanish usullari. Talabalar masofaviy ta'lim vositalaridan foydalanishni istalgan joyda amalga oshirishlari mumkin. Raqamli sinfdan o'qituvchilar va talabalarni birlashtirish uchun ishonchli internet aloqasi zarur. O'qituvchilar talabalar bilan audio, video yoki matn yordamida muloqot qilishlari mumkin. Raqamli vositalar talaba darslari va topshiriqlarini, xususan, ularni qiziqtiradigan va ijodkorlikni ilhomlantiradigan interfaol va multimediali darslarni yaratish uchun juda mos keladi. Ko'p hollarda ular an'anaviy o'qitish vositalariga qaraganda samaraliroqdir va ulardan foydalanish o'qituvchilarni o'z talabalari manfaati uchun hamkorlik qilish, yaratish va innovatsiyalar qilishga undashi mumkin. Samarali va auditoriyada foydalanish uchun ko'rib chiqishga arziydigan masofaviy o'qitish vositalarining 10 tasini misol tariqasida keltirish mumkun (1-jadvalga qarang).



Talabalar foydalanishi kerak bo'lgan o'n xil turdagi masofaviy o'qish vositalari tasnifi

No	Tushuncha	Mazmun-mohiyati
1	Google Classroom	Docs, Sheets va Slides bilan integratsiyalashgan ta'lim vositasidir. U bitta sinfni boshqarish yechimini taqdim etadi. Hozirda u bepul, ammo kengaytirilgan imkoniyatlar va qo'shimcha funktsiyalarga ega bo'lgan pullik versiyasi mavjud.
2	Pear Deck	Google Slides uchun qo'shimcha vosita. Bu o'qituvchilarga o'z o'quvchilari bilan foydalanish uchun dinamik, interaktiv slaydlar yaratish uchun bir qator xususiyatlardan foydalanish imkonini beradi. U o'qituvchilarga o'quvchilar sharhlarini ochish yoki yashirish, o'z slaydlariga audio va boshqa funktsiyalarni qo'shish hamda o'quvchilarga moslashtirilgan eslatmalarni yuborish imkonini beruvchi boshqaruv paneli bilan birga keladi.
3	Zoom	U o'qituvchilarni o'z talabalari bilan bog'lashi mumkin va uning xavfsizlik va chat xususiyatlari uni virtual sinfni boshqarish uchun ideal qiladi.
4	Bleacboard	Har qanday qurilmada ishlaydigan va talabalar va o'qituvchilar uchun oson bo'lgan sinfni boshqarish tizimi. O'qituvchilar Blackboard Learn'dan sinfni boshqarish, darsni rejalashtirish va boshqalarda foydalanish uchun turli uchinchi tomon vositalaridan foydalanishlari mumkin.
5	Class Dojo	Bu o'qituvchilarga o'z auditoriyalarini o'qituvchilar, talabalar va ota-onalar uchun xonalari bo'lgan jamoalarga aylantirishga yordam beradigan virtual aloqa vositasi. Bu o'quvchilarning ta'lim va shaxsiy maqsadlarga, jumladan, xulq-atvor maqsadlariga erishishdagi muvaffaqiyatini kuzatish uchun foydali vositadir.
6	Microsoft Teams	Google Classroom bilan bir xil funktsiyalarning ko'pini taklif qiladi. U o'qituvchilar va talabalarga Word, Excel, Powerpoint va Microsoft Sway kabi Microsoft mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Shuningdek, u Microsoft-ning bulutli saqlash tizimi OneDrive-ga kirish bilan birga keladi.
7	Buncee	O'qituvchilarga talabalar bilan bo'lishish uchun interaktiv kurs mazmunini yaratishga imkon beruvchi onlayn vositadir. U Microsoft Teams boshqaruv paneli bilan integratsiyalashgan va o'qituvchilar undan havolalar, hujjatlar va boshqa resurslarni o'z talabalari bilan bo'lishish uchun foydalanishlari mumkin.



8	Seesaw	O'qituvchilar o'z talabari bilan bog'lanish, hamkorlik va kreativlikni rag'batlantirish uchun foydalanishlari mumkin bo'lgan bepul dastur. Bu formativ baholash uchun ayniqsa foydali vositadir, chunki o'qituvchilar talaba faoliyatini kuzatishi va kerak bo'lganda yordam berishi mumkin.
9	Edpuzzle	bu boshqaotirma bo'lib, o'qituvchilar har qanday videoni darsga aylantirish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan vositadir. Ular talabalarni jalb qilish uchun interaktiv xususiyatlarni qo'shishlari mumkin. Shuningdek, ular Edpuzzle-ning kuzatuv vositalaridan talabalarning ish faoliyatini kuzatish uchun foydalanishlari mumkin, bu esa uni mustaqil o'rganish uchun mukammal vositaga aylantiradi.
10	Khan Academy	Notijorat tashkilot bo'lib, talabalar uchun keng doiradagi kurslarni taqdim etadi. Ushbu kurslar talabalarning kreativ bilimini kengaytirish va mavzuni chuqurroq tushunishni istagan talabalarni o'z vaqtida o'rganishga undash uchun ishlatilishi mumkin.

Talabalar va o'qituvchilar masofaviy ta'lim vositalaridan foydalanganda, ob'yekt yoki shaxs bilan o'zaro ta'sir qilish, talabalarga o'z bilimlarini oshirishga imkon beradigan usul ma'lum bir sohadagi bilim va ko'nikmalar, talabalar o'rtasida bir nechta muloqot o'rganish ob'yekti, ularni nazorat qilish va dasturga moslashish, axborotning o'zaro jarayonlari talabalar va o'qituvchilar o'rtasida fikr almashish sinergetik ishtirokning ko'p shakllari va rivojlanishiga yordam beradigan aloqani mazmunli o'rganish kabi interaktiv usullar yordamida o'qituvchilar va talabalar, talabalar va talabalar o'rtasidagi aloqani yaxshilashi mumkin.

Masofaviy ta'lim – yaxlit inson keng doiradagi foydalanishga asoslangan ta'limning elektron shakli bo'lib, yangi axborot texnologiyalari va ularning texnik o'quv materialini yetkazish uchun ishlatiladigan vositalar, uning o'z-o'zini puxta o'rganish, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi dialog almashinuvi va umumiy holatda o'quv jarayonini rivojlantirish va takomillashtirishga yordam beruvchi zamonaviy o'qitish shakli. Masofaviy ta'lim vositalari o'quv jarayonini chinakam qiziqarli qiladi va talabalarni mustaqil izlanishga o'rgatadi, kreativ g'oyalarni ilgari surishga yordam beradi, hatto xalqaro ta'lim tizimi bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatishga imkoniyat yaratadi.

Tavsiyalar.

1. Talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradigan online masofaviy o'quv kurslarini tashkil etish.



2. O'qituvchilar va talabalar munosabatlarini aks ettirish maqsadi bo'yicha axborotlar almashish amaliyotini takomillashtirish.

3. Talabalarni mos holdagi fanlardan o'quv materiallarini o'zlashtirishning o'z individual yo'nalishi va buning natijasida o'z individual ta'lim yo'nalishini loyihalashtirishning faol ishtirokchisiga aylanishini ta'minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi «Raqamli O'zbekiston 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-son Farmoni.

2. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. -Toshkent; Fan, 2009. - 145 b.

3. Айдрус И.А., Асмятуллин Р.Р. Мировой опыт использования технологий дистанционного образования. Высшее образование в России. 2015; № 5: 139-145 с.

4. Begumqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent, Fan, 2007. - 59 b.

5. Bonk C.J., Malinowski C., Angeli C. (1998). Web-based case conferencing for preservice teacher education: Electronic discourse from the field. Journal of Educational Computing research 19 (3): 267-304.

6. Леонтьева И.А., Ребрина Ф.Г. Применение дистанционных электронных ресурсов в образовательном процессе высшей школы. Вестник Челябинского государственного педагогического университета. 2018; № 3: 114 - 124 с.

7. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped.fan. dokt. ... diss. -T., 2007. -349 b.

8. Tabor, Sharon W (Spring 2007). «Narrowing the Distance: Implementing a Hybrid Learning Model». Quarterly Review of Distance Education. IAP. 8 (1): 48-49. ISBN 978774570793. ISSN 1528-3518. Retrieved 23 January 2011.

9. Skylar A. et al. 2005. «Distance Education: An Exploration of Alternative Methods and Types of Instructional Media in Teacher Education». Journal of Special Education Technology, 20, 3, p 25-33.



ОБУЧЕНИЕ ГРАММАТИКЕ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА КАК ИНСТРУМЕНТ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННОЙ ТЕХНОЛОГИИ

З.КАРИМОВА,
соискатель МГУ

В данной статье рассматривается последовательность действий преподавателя при составлении системы упражнений на определенную грамматическую тему с учетом специфики дистанционной формы обучения при помощи системы управления обучением. «Moodle», а также возможности этой системы для реализации данной образовательной цели.

Ключевые слова: грамматика, дистанционное обучение.

This article shows the sequence of actions of a teacher in composing exercises on a certain grammatical aspect of a foreign language, taking into consideration the specifics of distance learning using "Moodle". The potentialities of this system "Moodle" for realization of this educational goal are also considered in this article.

Key words: grammar, distance learning, Moodle.

Коммуникативная направленность современных занятий по иностранному языку отводит грамматическому материалу в процессе очного общения преподавателя и обучаемых далеко не первую роль. Данная проблема зачастую решается за счет включения в образовательный процесс современных информационно-коммуникационных технологий (ИКТ). Работа над грамматическим материалом переносится, например, в дистанционную форму обучения, как это было сделано в рамках курса иностранного языка в среде управления обучением «Moodle» в создании грамматической составляющей которого нам удалось принять непосредственное участие. В данной статье мы хотели бы представить последовательность действий, которые преподавателю приходится проделать при создании системы грамматических упражнений в рамках курса иностранного языка, реализованного одной из доступных интернет-платформ.

Современные методисты понимают под грамматические компетенцией «знание грамматических элементов языков умение их использовать в речи» [1, с. 107]. Грамматическая компетенция включает способность понимать и выражать определенный смысл, оформляя его в виде фраз и предложений, построенных по правилам данного языка (в отличие от механического воспроизведения заученных обучающихся. Авторы документа «Общеввропейские компетенции владения иностранным языком; изучение, препода-



давание, оценка иллюстрируют грамматическую правильность речи для уровня А2 так: «Правильно использую простые грамматические конструкции, однако систематически допущено типичные ошибки (например, путаю времена, неправильно оформляю согласование), тем не менее обычный высказывания обычно ясен» [1, с. 109]. Это описание вовлекает преподавателя курса сориентироваться в том, настолько высокой должна быть степень овладения отдельными грамматическими навыками, а также предусмотреть возможные трудности при передаче смысла высказывания, которые заключает в себе слабое владение ими.

Не секрет, что этот сложный и трудоемкий процесс требует учета ряда факторов, начиная с целей и задач самого курса, специфики обучения грамматическому аспекту и заканчивая необходимостью поддержания устойчивой мотивации к процессу обучения иностранному языку в дистанционной форме.

Разрабатывая грамматические задания для совершенствования грамматических навыков и формирования лингвистической компетенции в дистанционном курсе, мы брали за основу следующие принципы:

1. Сочетание имплицитного и эксплицитного подходов (дифференцированный подход). В рамках данных подходов осуществлялось частично индуктивное, частично дедуктивное введение грамматического материала и его применение и отработка в лично-значимых контекстах за счет таких инструментов платформы «Moodle» как форум, вики и др» а также надежной обратной связи.

2. Смысловая наполненность упражнений по грамматике. Использовались только те материалы, которые с содержательной точки зрения могут вызывать со стороны участников курса реальный, живой интерес, чтобы избежать проблемы низкой мотивации. Грамматика рассматривалась лишь как инструмент для оформления мыслей участников и выполняла служебную функцию.

3. Осмысленное применение грамматических структур. Мы концентрировались лишь на том грамматическом материале, который необходим участникам курса для выражения своих мыслей в процессе общения на образовательной платформе, чтобы добиться выхода пройденного материала в речь и естественного его употребления. Другими словами, был выделен приоритет качества над объемом грамматического материала.

4. Значительная часть упражнений на автоматизацию навыка. Были включены специальные задания при помощи различных инструментов платформы на отработку естественного и беглого применения в речи языковых образцов. Упражнения на автоматизацию навыка подразумевали ориентирование на повторение заданных речевых образцов.



5. Сочетание структурного и функционального подходов к преподаванию грамматики. Мы исходили из положения о том, что одним аспектам грамматики проще обучать и обучаться с точки зрения структурного подхода (то есть исходя из грамматических форм), а другим – с позиций функционального подхода, то есть с введения данного материала через его функцию в речи.

6. Учет методических принципов отбора активного и пассивного грамматического минимума: от простого к сложному; от более часто употребляемого в речи к реже употребляемому; исключение языковой синонимии; от знакомых контекстов к новым; разделение каждой грамматической темы по этапам обучения.

Что касается введения нового грамматического материала, больше внимания было уделено индуктивному методу, с сокращением числа грамматических таблиц в самих модулях курса. Необходимые таблицы помещены в отдельный грамматический справочник, сложные термины – в специальный контекстный грамматический глоссарий, благодаря чему у участников курса всегда есть возможность обратиться к нему в случае необходимости.

В качестве примера приведем описание работы по разработке грамматического блока, посвященного теме «Артикли». Употребление артиклей – одно из самых сложных грамматических явлений, о чем свидетельствуют многочисленные ошибки в речи учащихся разных возрастов. Отчасти это объясняется тем, что в русском языке артикли отсутствуют, поэтому обучение их употреблению в иностранном языке русскоязычных учащихся не может происходить с опорой на родной язык. С другой стороны, в связи с частотностью употребления артиклей изучение данной грамматической темы и овладение навыками употребления артиклей играет далеко не последнюю роль в обучении грамматике.

Определившись с методической стратегией и конкретным грамматическим материалом, перейдем непосредственно к созданию грамматической составляющей курса.

Первым шагом в рамках курса стало создание разноуровневого грамматического справочника. О необходимости создания и использования электронного справочника по грамматике:

1. Целесообразность разработки электронных справочников нового типа по иностранным языкам обусловлена необходимостью предоставить возможность любому пользователю в очном или дистанционном обучении получить консультацию по интересующему его вопросу с учетом уровня его языковой подготовки и возможности перехода с одного уровня обученности на другой в случае необходимости.

2. Методическая организация языкового материала такого справочника отражает дифференцированный подход с учетом разного уровня языковой подго-



товки учащихся, а также возможность обращения за консультацией к учителю.

3. Методика создания и разноуровневого справочника по грамматике предполагает постепенное углубление и детализирование при разъяснении грамматических правил от уровня к уровню с иллюстрацией функционирования данного явления в ситуациях общения.

4. Использование электронного справочника по грамматике - обусловлено конкретными учебными ситуациями в очном или дистанционном обучении [2, с. 8].

Вторым важнейшим инструментом, облегчающим ознакомление участников курса с грамматическим материалом, является инструмент «Глоссарий». Глоссарий функционально предлагает следующие возможности с точки зрения организации грамматического материала:

1. Термины в глоссарии группируются по категориям – статьи систематической грамматики мы группируем по функциональным категориям, например, статье «Определенный артикль» присваиваем категорию «Представлять». Можно выбрать обзор глоссария как по алфавиту (по названиям грамматических структур), так и по категориям (в соответствии с речевыми функциями).

2. Участник может добавлять комментарий к записи глоссария – эту функцию мы можем использовать для заданий участникам курса, а также уточняющих вопросов со стороны обучающихся к обучающему.

3. Комментарии могут быть оценены учителем – для оценки выполнения заданий участниками.

4. Словари могут быть легко экспортированы и импортированы через XML, что позволяет избежать составления нового словаря в каждом новом курсе.

5. Словари содержат модуль поиска.

Однако примечательнее всего такая возможность глоссария, как «Auto-linking», то есть в любом модуле нашего курса может быть установлена автоматическая ссылка на заголовки карточек глоссария, соответствующие грамматическим явлениям. Например, если упражнение подразумевает заполнение пропусков вопросительными артиклями, нет необходимости каждый раз приводить список вопросительных артиклей, поскольку в тексте автоматически установлена ссылка на карточку. Таким образом, встречая непонятный грамматический термин, участник курса с помощью одного щелчка мыши попадает в статью глоссария, где кратко поясняется, что означает этот термин. Отличие уже описанной грамматической книги от глоссария заключается в том что в глоссарии мы приводим очень краткие пояснения, без объяснения грамматических правил, но в то же время в каждой карточке глоссария присутствует ссылка на соответствующий раздел грамматического справочника, чтобы участник курса всегда мог повторить правило. Такая организация грамматического материала, подразумевающая интерактивность, позволяет эко-



номить время участников курса, повышает мотивацию работы с атакой и должна обеспечивать лучшее запоминание грамматического материала. Следует отметить, что в курсе «Книга по грамматике» и «Грамматической глоссарий» расположены непосредственно под заголовком курса, чтобы участник имел возможность легкого доступа к ним из любого модуля курса.

Теперь перейдем непосредственно к модулю курса. Мы считаем, что в рамках курса уровня А2 повторение того материала темы «Артикль», который уже известен участникам или был изучен на уровне А1, а также частичное введение нового материала должно происходить уже в первых модулях курса, поскольку владение данным грамматическим материалом очень важно для формулирования правильных высказываний. Первый модуль курса, для которого ведется разработка грамматической составляющей, посвящен теме «Что такое семья?» (*Was ist eine richtige Familie?*). В условиях данной темы мы считаем необходимым повторить грамматический материал в рамках темы «Артикль». Учитывая начальный уровень участников, мы предлагаем упражнение в рамках индуктивного подхода на самостоятельный анализ данного грамматического явления. В ходе его выполнения обучающимся предоставляется самостоятельная возможность проанализировать формы артикля и выявить условия выбора той или иной формы.

Вслед за многими методистами мы выделяем упражнение на активизацию грамматических явлений (языковые), отработку и закрепление грамматических явлений (условно-коммуникативные и коммуникативные) и упражнения, позволяющие формировать грамотность в области лингвистики (коммуникативные). Причем предлагаемая система предусматривает индивидуальную, парную и групповую работу учащихся независимо от того, на каком этапе работы с грамматическим материалом они находятся (автоматизация навыка, его формирование либо совершенствование, систематизация и углубление знаний).

Для того чтобы указывать адекватные средства реализации упражнений по грамматике и понять, насколько тот или иной элемент курса подходит для реализации каждого конкретного типа упражнений по грамматике, мы провели анализ функциональных с точки зрения преподавания грамматики элементов курса.

Рассмотрим пример условно-коммуникативного упражнения. В модуле «Поездка: достопримечательности против шоппинга» презентация и отработка грамматического материала по теме «Вопросительный артикль» организована в виде форума: участникам предстоит дополнить, а впоследствии и видоизменить диалог между двумя героинями фотографии. Другой вид упражнения реализуется при помощи инструмента «Рабочая тетрадь» – обучающимся предстоит поставить к заданному тексту заданное количе-



ство вопросов. К сожалению, при проверке условно-коммуникативных упражнений преподавателю приходится затрачивать достаточно большое количество времени, в отличие от проверки языковых упражнений, которая в условиях платформы может осуществляться автоматически. Инструментал обучающей среды «Моосе» и специфика данных упражнений пока не позволяет предложить более экономного в ресурсном плане решения.

Элементы курса на платформе «Moodle» для реализации различных типов упражнений по грамматике

В заключение хотелось бы отметить, что проблема эффективности обучения грамматике иностранного языка сегодня все чаще решается при помощи использования в учебном процессе ИКТ. Работа с грамматическим материалом в рамках дистанционной или интегрированной формы обучения производится в соответствующих модулях онлайн-курсов, которые сегодня может создать любой преподаватель при помощи современных систем управления обучением, таких как, например, «Moodle». В данной статье мы рассмотрели последовательность действий преподавателя, а также доступные ему инструменты в системе управления обучением «Moodle» при создании упражнений для дистанционного курса по грамматике. Система «Moodle» удобна в работе как для преподавателей, составляющих и редактирующих курс, так и для обучающихся, которым доступны разнообразные формы работы, реализованные при помощи различных инструментов платформы.

Литература:

1. Общеввропейские компетенции владения иностранным языком; изучение, препода: оценка. М: Изд-во МГЛУ, 2003.
2. Северова Н. Ю. Проблема создания и использования электронного справочника по грамматике языка. автореф. дис. ... канд. пед. наук. М., 2002



OLIV TA'LIM MUASSASASI O'QITUVCHISINING KASBIY TAYYORGARLIGINING PSIXOLOGIK JIHATDAN O'RGANILISHI

D.I.XODJAKULOVA,
TTESI dotsenti, p.f. n

Kasbiy tayyorlikning yetakchi va juda murakkab tomoni – mutaxassisning kasbiy-psixologik tayyorligi hisoblanadi. Bu kasbiy vazifalarni bajarishga mutaxassisning psixologik imkoniyatlari darajasi bilan belgilanadi.

Kalit so'zlar: kasbiy tayyorgarlik, pedagogik bilimlar, fanlar aloqadorligi, ta'lim sifati, psixologik bilim va ko'nikma, o'quv jarayoni, o'rganish metodikasi.

The leading and very complex aspect of professional preparation is professional-psychological preparation of the specialist. It is determined by the level of the specialist's psychological capabilities to perform professional tasks.

Key words: professional training, pedagogical knowledge, connection of subjects, quality of education, psychological knowledge and skills, educational process, learning methodology.

Madaniyat va inson biologiyasining evolyusiyasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Bir-biridan geografik uzoq joylarda yashab rivojlanayotgan xalqlarning tafovutlari aynan genetik va madaniy omillar ta'siriga bog'liq. Biologik mexanizm (organizm) larning evolyusiyasida madaniy urf-odatlar va qadriyatlarning o'rni muhimdir. Bir necha avlodlarning madaniy muhitda birgalikdagi rivojlanish jarayoni biologik xususiyatlardagi bugungi tafovutlarga sabab bo'ldi. Shu jihatdan o'qituvchi kasbiy tayyorgarligi va pedagogik faoliyatini tashkil etish masalalariga gumanistik nuqtai nazaridan yondashgan A.Maslou, K.Rodjerslarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Ularning fikricha, o'qituvchi eng avvalo o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilar faolligini oshirish, ularni yuzaga kelgan muammolarni mustaqil yechishga o'rgatishi zarur.

Bunday o'qituvchilar o'quvchilar bilan ko'proq do'stona muloqotda bo'ladi, o'zaro fikr almashadilar, mavzuga doir muammoni tahlil qiladilar va bir qarorga keladilar. O'qituvchi bu o'rinda butun e'tiborini mavzu mohiyatini o'quvchilarga singdirishga qaratib, o'quvchilar kechinmalari va o'zlashtirish imkoniyatlarini alohida etiborga oladi.

G.Jahodaning ta'kidlashicha insonning shaxs sifatida shakllanishi kasbiy kamolotida madaniy omillarning ta'siri beqiyosdir. Uning fikricha, baliq suvsiz yashay olmaganidek, inson ham madaniyat mahsulotisiz yashay olmaydi. Madaniyat atrof-olam bilan inson o'rtasidagi asosiy vosita hisoblanadi. Inson



ana shu vosita yordamida o'zligini namoyon qiladi. Madaniyat va turmush tarzi o'z vakillariga (shu madaniyatga mansub kishilarga) o'zini qanday tutish (shaxs sifatida), qanday vazifa va burchlarni ado etish (kasbiy) zarurligini ko'rsatadi.

S.L.Rubinshteynning uqtirishicha, tarbiyaviy ishda insonni hayot bilan minglab ko'zga ko'rinmas iplar bog'lab turadiki, har qadamda unga shaxsan qimmatli, uni qiziqtiradigan, o'ziga jalb etadigan, o'ziniki hisoblanadigan narsalar ko'ndalang kelaveradi. Bu fikr yosh mutaxassislarning kasbiy-pedagogik shakllanishi va o'zligini namoyon etishi masalasiga ham to'la taalluqlidir. Zero, kasbiy sohada o'zini namoyish etishga intilish yosh o'qituvchi uchun kasbiy shakllanish va takomillashishining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Shaxs o'zini namoyon qilish orqali o'z imkoniyatlarini ongli ravishda ko'rsatadi. Shaxs uchun nima muhim ahamiyatli bo'lsa, nimaga ko'proq qiziqsa, intilsa, o'sha sohada o'zini to'laroq namoyon qiladi. Shuning uchun ham yosh mutaxassis pedagogik faoliyat sohasida o'zini qanchalik ko'proq, to'laroq va ongli ravishda namoyon etsa, shu sohada ko'proq natijaga erishadi. Ikkinchi tomondan, yosh o'qituvchi o'zini kasbiy faoliyat sohasida namoyon etishi uchun qanchalik jadal kurashsa, kasbiy shakllanish va kasbiy yetuklikda shunchalik yuqori pog'onaga ko'tariladi. Shuning uchun ham pedagoglarning o'zini ko'proq, to'laroq namoyon etishga intilishi va tayyorligi juda muhim ahamiyatga ega.

Tayyorgarlik jarayonida shaxs o'zligini aniqlaydi, ya'ni o'zini namoyon qilish ehtiyojini anglaydi, o'z nuqtai nazari, atrof-borliqqa munosabatini belgilaydi, faoliyati maqsadlarini oydinlashtiradi, jamoaning rasmiy va norasmiy tuzilmalarida o'z o'zini va rolini aniqlaydi, hatti-harakatlari, xulq-odobi, ko'zlagan maqsadlarini ro'yobga chiqarishning vosita va usullarini asoslab, belgilab oladi.

Asosiy bosqich – shaxsning o'zini namoyon qilish maqsadlarini amalga oshirish jarayonidir.

Yakunlovchi bosqida shaxsning o'zini namoyon etish sohasida erishgan natijalari baholanadi, qiyinchiliklarining sabablari aniqlanadi.

O'z o'zini to'g'ri belgilab olish o'zini namoyon etishning muhim bosqichi bo'lib, uning mazmuni va xarakterini belgilaydi, erishilgan natija ham shunga yarasha bo'ladi.

Kasbiy pedagogik faoliyat samaradorligining zarur shartlaridan biri, – deb ko'rsatadi K.K.Platonov, bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligidir. Kasbiy tayyorgarlik deganda kishi psixik holati va jismoniy sog'lomligining tegishli darajasi bajariladigan ish-faoliyat talablariga mos kelishi tushuniladi. Muallif ta'kidlaganidek,



mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi – shaxsning subyektiv holati bo‘lib, uning o‘zini tegishli kasbiy faoliyatni bajarishga qobiliyatli va tayyor deb hisoblashini bildiradi. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorligi murakkab, ko‘p bosqichli, ko‘p qirrali tuzilmadir.

M.I.Dyachenko, A.M.Stolyarenkolar mutaxassisning kasbiy tayyorligida bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq quyidagi ikki jihatni ko‘rsatishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar:

1. Dastlabki tayyorlik – shu vazifani bajarishga bo‘lgan imkoniyati (qobiliyati)ning mavjudligi. Bu kishida barqaror ruhiy tuzilmalar – kasbiy faoliyatga doir bilim, ko‘nikma va malakalar hamda kasb uchun muhim shaxsiy sifat va fazilatlarining mavjud bo‘lishini taqozo qiladi. Dastlabki tayyorlik oliy ta‘lim muassasasida bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida amalga oshiriladi.

2. Bevosita tayyorlik – bu esa kasb egasining ruhiyati ma‘lum shart-sharoitlarda kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorligini nazarda tutadi. Kasbiy tayyorlikning bu jihati bo‘lajak o‘qituvchining ruhiy holatining vaziyatga qarab o‘zgaruvchanligi, harakatchanligi, jo‘shqinligi, jismoniy sog‘lomligi hamda jamoadagi ma‘naviy-psixologik muhitga uzviy bog‘liqligi bilan xarakterlanadi.

Kasbiy tayyorlikning yetakchi va juda murakkab tomoni – mutaxassisning kasbiy-psixologik tayyorligi hisoblanadi. Bu kasbiy vazifalarni bajarishga mutaxassisning psixologik imkoniyatlari darajasi bilan belgilanadi.

Ye.A.Klimovning fikriga ko‘ra, pedagoglik kasbi «inson-inson» tipidagi mutaxassisliklar qatoriga kiradi va bunday kasb egasi quyidagi xususiyat va qobiliyatlarni egallagan bo‘lishi kerak:

- boshqarish, o‘qitish, tarbiyalay olish;
- boshqa odamni tinglay olish va tushunish;
- onglilik, keng bilim va saviyaga egalik;
- nutq madaniyatini egallaganlik;
- kishilarga nisbatan hushyor, ularning ruhiy olamini ko‘z oldiga keltira oladigan bo‘lish;
- bolani kelajakda yaxshi odam bo‘lib ulg‘ayishiga ishonish;
- qayg‘udosh, o‘zgalar tashvishiga sherik bo‘lish;
- kuzatuvchanlik qobiliyatiga eglik;
- xalq, jamiyat ishiga sodiqlik;
- o‘zgacha vaziyatlarda ham muammoning yechimini topa olish;
- o‘zini tuta bilish qobiliyatiga ega bo‘lish kabilar.



Kasbiy-pedagogik bilimlar tizimiga metodologik, nazariy va uslubiy bilimlar kiradi.

I. Ya. Lerner bilimlarni quyidagi to'rt turga bo'lib o'rganishni taklif qiladi:

- metodologik (pedagogik hodisalarni bilish yo'llari haqidagi) bilimlar;
- nazariy (tushuntiruvchi va mo'ljal beruvchi) bilimlar;
- pedagogikga oid umumiy amaliy (pedagogik amallarni bajarish usullari haqidagi) bilimlar;
- amaliy (muayyan pedagogik jarayonlar uchun mo'ljallangan) bilimlar.

Pedagogik bilimlar o'qituvchi kasbiy mahoratining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shunga qaramay, ko'pgina tadqiqotchilar o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik darajasi, ayniqsa, uning pedagogik bilimlari hozirgi davr talablariga mos kelmasligini ta'kidlaydilar. Pedagogik amaliyotdagi ko'pgina kamchiliklar o'qituvchining nazariya bilan qiziqmasligi natijasida ro'y beradi. O'qituvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlar ularning o'z faoliyatlarini psixologik va pedagogik jihatdan asoslab bera olmasliklarini ko'rsatadi.

Pedagogik bilimlar pedagogik madaniyatning muhim tarkibiy qismiga aylanmog'i darkor, chunki ularsiz pedagogik ko'nikmalar shakllanmaydi. Ma'lumki, bilim va ko'nikmalar o'rtasida dialektik bog'lanish mavjud. Ko'nikmalar zahirida bilimlar yotadi, lekin ko'nikmalar taqlid qilish, o'rganish mexanizmi asosida, lozim darajada tushunib yetmasdan shakllanishi ham mumkin. Boshqa tomonlan, ko'nikmalar bilim manbai hisoblanadi.

Amaliy faoliyatda bilimlardan samarali foydalanish muammosini yechishga oid muayyan umumilmiy yondashuvlar bilimlarni o'zlashtirish muammosini umumiy tarzda tadqiq qiladigan semantika asosida belgilanadi. Tor ma'nodagi semantika – bu so'zlarning ma'nosi haqidagi fan, lekin so'nggi yillarda uning qamrov doirasi kengayib bormoqda. Keng ma'nodagi semantika insonning shaxs va mutaxassis sifatida shakllanishi jarayonida tabiat, jamiyat, texnika bilan o'zaro ta'sirga kirishishi asnosida oladigan axborotlari ma'nosini ifodalovchi fandır. Didaktikaning semantik muammolari pedagogika fani va pedagogik ta'limning hozirgi rivojlanishida o'ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborotning ma'nosi transformatsiya va reduksiya jarayonida ko'pincha o'zgarib ketadi yoki qashshoqlashadi. Ilmiy ish mualliflariga mutlaqo tushunarli bo'lgan g'oyalarni obyektiv ifodalash ko'pincha qiyin kechadi. Bu fanning o'zida ham jiddiy didaktik va semantik muammolar mavjudligini anglatadi. Ilmiy ishlanmalarga maxsus didaktik talablar qo'yilmaydi – faqat vakolatli ilmiy instansiyalar tomonidan



tekshirilishi mumkin bo'lgan talablarga, ya'ni ilmiy izchillik, nazariy va eksperimental ishonchlilikka rioya qilinadi. Bu didaktik kamchiliklar uning hozirgi muammolariga nisbatan keng yondashish imkonini bermasligi ta'kidlanadi.

Fikrimizcha, ushbu muammoni hal qilishda fan va amaliyot o'rtasidagi bog'lovchi va o'zgartiruvchi bo'g'in hisoblanadigan oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari zimmasiga muayyan vazifalar yuklanishi lozim.

Yuqorida aytilganlar bilimlarni qabul qilish va tushunishga ma'lum tayyorgarlik zarurligini ko'rsatadi.

Muta xassislarining tadqiqotlari natijasida pedagogik bilimni qabul qilishga tayyorgarlikning besh darajasi, chunonchi: axborot, tezausus, uslubiy, texnologik, tadqiqot darajalari aniqlangan.

Axborot darajasida vazifa mavjud bilim haqida axborot olish imkoniyatini ta'minlashdan iborat.

Tezausus darajasi fan tili bilan bog'liq. Kasbiy mahoratga ega bo'lgan pedagog bu tilni bilishi shart, chunki bilimlar ularni lozim darajada qabul qilish va tushunishni taqozo etadi. Tezausus darajasi bilim va inson o'rtasidagi axborotga oid to'siqlarni bartaraf etish va mutaxassisning fan tilini erkin o'zlashtirigga imkoniyat yaratishni nazarda tutadi.

Uslubiy daraja nafaqat bilimlar, balki kasbiy ko'nikmalarining ham mavjudligini, pedagog nazariyachilar tomonidan ishlab chiqilgan uslublarni o'zlashtirilganligini anglatadi. Muallif ilmiy ishlab chiqilgan uslubga erkin yondashishni ma'qul ko'rmaydi, har qanday uslubdan o'z bilganicha foydalanish, undan faqat keragini olish mumkin, degan fikrni qoralaydi.

Texnologik daraja ilmiy bilimlarni va tavsiya etilgan ilg'or tajribani amaliyotga joriy etish maqsadida ularni sifatli va samarali aks ettirgini nazarda tutadi. Aks ettirish to'g'ridan-to'g'ri nusxa ko'chirish, degani emas. Bunda muayyan uslub qo'llanilayotgan shart-sharoit, xususan, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, ularning odatlari, o'qituvchilarning texnologik madaniyat darajasi hisobga olinishi lozim.

Ta'kidlash zarurki, o'qituvchining texnologik madaniyati pedagogik madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Texnologik madaniyatli o'qituvchi pedagogika fani va amaliyotini birlashtiradi.

Tadqiqot darajasi shu bilan tavsiflanadiki, o'qituvchi ilmiy bilimdan foydalanuvchidan uni yaratuvchiga aylanadi. Yangilik yaratuvchi o'qituvchilar amaliyotning ilmiy salohiyatini, tadqiqot faoliyati uchun maydonning mavjudligini namoyish eta oladilar.



Pedagogika fani va amaliyotining o‘zaro uyg‘unligini anglab yetish o‘qituvchi pedagogik madaniyatining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Pedagogika fani amaliyotining o‘zaro ta‘sirini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini aniqlash uchun quyidagi masalalar yechimini hal qilish zarur: pedagogik bilimning amaliyotga ta‘siri samaradorligini oshirish, pedagogik bilimni ta‘lim-tarbiya faoliyatiga tatbiq etish jarayonini jadallashtirish, ta‘lim nazariyasini o‘qituvchi ijodiy izlanishlarining negiziga aylanishini ta‘minlash, o‘qituvchining tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanishga ehtiyoj sezishini ta‘minlash kabilar.

Pedagogik bilimlar ko‘nikmalar orqali amal qiladi va aamliy faoliyatda ular orqali ro‘yobga chiqadi. Pedagogik bilim va ko‘nikmalar bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli pedagogik ko‘nikmalar o‘qituvchi pedagogik madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Oliy ta‘lim muassasasida o‘qituvchini tayyorlash jarayonida u pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish uchun tegishli shart-sharoit yaratib berish lozim. Bunda pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish yetakchi o‘rin egallaydi.

O‘qituvchilarni kasbiy tayyorgarligi muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar ancha salmoqli va keng qamrovlidir. Ta‘kidlash joizki, o‘qituvchi kasbiy tayyorgarligi hamda ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uni boshqarish bilan bog‘liq muammolar yohud ularning yechimi har bir xalqning milliy-madaniy, milliy-psixologik va hududiy xususiyatlari mavjudligi bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулгалимов Г.Л. Модель готовности современного учителя к профессиональной деятельности // Стандарты и мониторинг в образовании. 2009. № 5. С.44-47.

2. Адольф В.А. Профессиональная компетентность современного учителя. Красноярск: Изд-во Красноярского гос. университета, 1998. 309 с.

3. Муслимов Н.А., Усмонбоева М., Мирсолиева М. «Иновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик» модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. - Т: 2016. - 147 б.



BOTANIKA FANINI O'QITISH MUSTAQIL TA'LIMNI SAMARALI TASHKIL ETISH METODIKASI

SH.X.SAIDMURATOV,

Nizomiy nomli TDPU mustaqil tadqiqotchisi

Mustaqil ta'lim olib boriladigan botanikaga oid bilimlar talabalarni bo'sh vaqtlaridan umumli foydalanishlariga, ayniqsa ularni tadqiqot ishlarini olib borishga yordam beradi. Mustaqil ta'limni tashkili etishda ochiq urug'lilar yoki qarag'aylar bo'limini o'zlashtirish bo'yicha innovatsion texnologiyalarni qo'llash lozimligi maqolada tahlil etilgan, shuningdek, pedagogik xususiyatlarga tayangan holda ochiq urug'i o'simliklarning paydo bo'lish davrlari va geografik mintaqalari bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish metod va shakllari ochib berilgan. Mustaqil ta'lim berish jarayonida talabalarning botanikaga oid bilimlarini chuqurlashtirish, ularda botanikaga oid faol ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ularning yo'qolib borayotgan o'simliklar bo'yicha mas'uliyatini qaror toptirish amaliy yondashuv asosida shakllanadi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, qarag'aylar, geografik mintaqa, tamoyil, kognitiv vazifa, tizimli yondashuv, pedagogik talab, mezon, LMS MOODLE.

Self-study botany knowledge helps students make the most of their free time, especially research. In the organization of independent education, the need to use innovative technologies for mastering the section of open-seeded plants or pines is analyzed in the article, as well as the periods of emergence of open-seeded plants based on pedagogical features. and methods and forms of acquiring knowledge in geographical regions are disclosed. In the process of independent education, deepening of students' knowledge of botany, formation of active skills and competences related to botany, determination of their responsibility for endangered plants is formed on the basis of a practical approach.

Key words: independent education, pine trees, geographical region, principle, cognitive task, systematic approach, pedagogical requirement, criterion, LMS MOODLE.

Respublikamiz ta'lim tizimida oliy ta'lim mazmunini botanikaga doir bilimlar bilan boyitilib, talabalarning botanika sohasidagi qiziqishi va bilim darajasini oshirish muammosi hal etilgan. Ammo, auditoriyadan tashqari ta'lim jarayonida talabalarda ochiq urug'li yoki qarag'aylar bo'limini o'qitishda maxsus pedagogik innovatsiyalardan foydalangan holda tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan. Bu hol esa talabalarning umumiy bilim saviyasiga salbiy ta'sir etadi. Vaholanki, bugungi kun jahon ta'limida qadimgi qazilma o'simliklar va ularning qirilib ketgan turlari haqida ma'lumotlarni to'plash, o'sib kelayotgan yosh avlodga qazilma o'simliklar va hozirda mavjud bo'lgan turlarni muhofaza qilishda yangi innovatsion texnologiyalar asosida yetkazib berish muhim sanaladi.

Oliy ta'limda olib borilayotgan islohot mohiyatan bilib olish paradigmasidan ta'lim paradigmasiga o'tish bilan bog'liq. Yangi ta'lim paradigmasida passiv bilim iste'molchisidan bo'lgan talaba muammoni to'g'ri shakllantirish, mumkin bo'lgan



yechimlarni tahlil qilish, optimal natijani topish va uning to'g'riligini isbotlay oladigan faol sub'ektaga aylanishi kerak. Shu nuqtai nazardan, talabalarining mustaqil ishi nafaqat o'quv jarayonining muhim shakli, balki uning asosiga aylanadi (Skoblyakova va Semenova, 2010). Zamonaviy hayotning haqiqatlari shundan iboratki, har qanday ta'lim yo'nalishi bo'yicha tehsil oluvchilar muntazam ravishda mustaqil kasbiy ta'lim faoliyatiga tayyor bo'lishlari kerak. Mehnat bozoridagi dinamik o'zgarishlar, yangi axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi, ulkan ma'lumotlar bazalarining to'planishi nafaqat bilimni, balki professional xavf-xatarlarga javob berish, katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash, tegishli sohalarni o'rganish va hokazolarni talab qiladi. Bundan tashqari, zamonaviy mutaxassis vaqtinchalik loyiha guruhlarida, jamoalarda ishlashga qodir bo'lishi kerak, u professional muhokamalarga va murakkab muammolar va muammolarni hal qilishga tayyor bo'lishi kerak (Semenova, 2013) [5]. I.F.Medvedev (2012) o'z-o'zini tarbiyalash tushunchasi ma'no jihatdan yaqin bo'lgan, uni to'ldiradigan va tuzadigan, shuningdek qo'llanish chegaralarini belgilaydigan bir qator tushunchalar bilan bog'liqligini ko'rsatib o'tadi (1-jadval) [6].

1-Jadval.

O'z ustida ishlash strukturasi

O'z ustida ishlashning toifalari	O'z ustida ishlashning bir-biriga yaqin funksiyalari
Motiv	Kasbiy o'z-o'zini anglash
Umumiy ko'rinish	Tashqi ko'rinish: 1. Umumiy – ta'lim tizimiga kiritish: <ul style="list-style-type: none">• Mustaqil ish orqali o'qitish• Shaxsning axloqiy fazilatlarini tarbiyalash 2. Fazoviy – masofaviy ta'lim 3. Vaqtinchalik: uzluksiz ta'lim 4. Maxsus: o'z ustida ishlash bo'yich kirish
	Ichki- o'z ustida ishlashning kompetensiyasi 1. <i>Havaskorlik faoliyati-faoliyatidagi o'ziga ishonish</i> (Xususan o'zini-o'zi tayorlash) 2. O'zini anglash – fikrlashdagi o'z mustaqilligi 3. O'zini faollashtirish- o'z-o'zini boshqarishning rivojlantiruvchi yo'nalishi
Komponentlar	Tashqi – o'zini-o'zi anglash Shaxsning ichki o'zini -o'zi rivojlantirish: <ul style="list-style-type: none">- Jismoniy yaxshilanish- ma'naviy o'zini-o'zi bilish- aqliy o'sish - ilmiy metodikani egallash
O'z-o'zini boshqarishning mexanizmlari	Oriantatsiya: <ul style="list-style-type: none">- tashqi shakl – o'z-o'zini nazorat yilish,- ichki shakl - aks ettirish, rejalashtirish: <ul style="list-style-type: none">- tashqi shakl - o'z-o'zini boshqarish,- ichki shakl - o'z-o'zini bilish. amalga oshirish: <ul style="list-style-type: none">- tashqi shakl - o'z-o'zini o'rganish- ichki shakl - o'z-o'zini takomillashtirish nazorat - o'zini o'zi nazorat qilish baholash - o'z-o'zini baholash



Shu sabab, mustaqil ta'lim sifatida ochiq urug'lilar yoki qarag'aylar bo'limini o'qitish talabalardan izlanish va ma'lumotlarni to'plab, bo'lim yuzasidan qaror qabul qilishga olib keladi. Dars vaqt jihatidan cheklangan. Auditoriyadan tashqari ta'lim jarayoni talabalar uchun erkin, mustaqil fikrlash, kuzatish, ijod maydoni hisoblanadi. Shu sababdan, talabalarning auditoriyadan tashqari ijodiy ishlarini tashkil etish muhim pedagogik muammo.

Muhokamalar. Ochiq urug'li o'simliklar devon davrida paydo bo'lgan yuksak o'simliklarning eng qadimgi guruhlaridan. Yer yuzida qarag'aysimon o'simliklarning 700 ga yaqin turi borligi aniqlangan. Ochiq urug'lilarning xarakterli belgisi shuki, ular urug' hosil qilib, shu urug'lari yordami bilan ko'payadi. Urug'lar shaklan o'zgarishga uchragan makrosporangiydan iborat bo'lmish «urug'kurtak»dan paydo bo'ladi. Urug'kurtak va shunga yarasha urug' to'g'ridan – to'g'ri sporofillarda joylashadi, ularning shu tariqa ochiq holda joy olishi – ochiq urug'lilarning ikkinchi xarakterli xususiyatidir [4].

Mustaqil ta'lim olib boriladigan botanikaga oid bilimlar talabalarni bo'sh vaqtlaridan umumli foydalanishlariga, ayniqsa ularni tadqiqot ishlarini olib borishga yordam beradi. Mustaqil ta'lim berish jarayonida talabalarning botanikaga oid bilimlarini chuqurlashtirish, ularda botanikaga oid faol ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ularning yo'qolib borayotgan o'simliklar bo'yicha mas'uliyatini qaror toptirish amaliy yondashuv asosida shakllanadi. Buning uchun talabalar mustaqil ta'lim olishda ochiq urug'lilarning tarqalish areali haqida ma'lumotlar bazasini shakllantirishlari va tizimli yondashuv asosida ochiq urug'li o'simliklarning kelib chiqish markazlari xususida qiziqarli, muhim, zarur tadqiqot ishlarini to'plashlari kerak bo'ladi.

Ochiq urug'li o'simliklar haqida mustaqil ishlarni olib borishga yo'naltirilgan mustaqil ta'limni tarbiyaviy tadbirlar quyidagi maqsadni amalga oshirishga xizmat qildi:

- talabalar tomonidan egallangan botanik bilimlarni amaliyotga tatbiq etish;
- talabalarning pedagogik xususiyatlariga tayangan holda ochiq urug'li o'simliklarning paydo bo'lish davrlari va geografik mintaqalari bo'yicha bilimlarni egallashlari;

- ijobiy sifatlarni o'zlashtirish;
- botanika sohasida kompetentlikni shakllantirish va hokoza.

Talabalarda botanik bilimlarini shakllantirishda quyidagi metod va shakllardan foydalanish maqsadga muvofiq:

a) talabalar ongiga ijobiy ta'sir etuvchi tarbiya metodlari – hikoya, tushuntirish, ma'ruza, bahs va munozaralar;

b) ijtimoiy xulq tajribalarini orttirish va faoliyatini tashkil etish metodlari – pedagogik talab, jamoatchilik fikri, topshiriq berish, tarbiyalovchi vaziyatlardan foydalanish;



v) botanika sohasidagi izlanishlarda ma'qullash va mulohazali metodlari – ko'ngil ko'tarish, maqullash, rag'batlantirish;

g) talabalarni ishonтира bilishlikka o'rgatish. Buning uchun qazilma o'simliklarni qirilib ketish sabablarini o'rganish va tahlil qilish asosida talaba xulosa chiqarishi kerak.

Talabalar botanika sohasidagi mavzular bo'yicha mustaqil ta'limni shakllantirishda o'qituvchi fikriga tayanishi, ilmiy tekshirish instituti xodimlari bilan uchrashishi, gerbariyalar namunasi bilan tanishishi, sayohat va ekspeditsiyalarda ishtirok etishlari ham mumkin bo'ladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

– topshiriqlar talabalar uchun qulay bo'lishi;

– rejali va tizimli;

– mustaqil ta'lim samaradorligi uchun zarur shart-sharoitlar yetarli bo'lishi kerak.

Mustaqil ta'limni muvaffaqiyatli bajarish uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

– o'quv vazifasini rag'batlantirish;

– kognitiv vazifalarning aniq bayoni;

– ishni bajarish algoritmi, usuli, talabani uni bajarish bo'yicha bilimi;

– o'qituvchi tomonidan hisobot shakllarini, ish hajmini, uni topshirish muddatlarini aniq belgilash;

– konsalting yordami turlarini aniqlash (o'rnatish, mavzuli, muammoli maslahatlar);

– baholash, hisobot berish va shunga o'xshash mezonlar.

Talabalar tomonidan vazifalarni tanlashda o'qituvchi quyidagi mezonlarga amal qilishi kerak:

– har bir topshiriqning hajmi shunday bo'lishi kerakki, o'quv materialini yaxshi bilgan holda, talaba topshiriqning barcha savollariga belgilangan vaqt ichida material topishga ulgursin;

– barcha vazifalar bir xil murakkablikda bo'lishi kerak;

– har bir topshiriqda yetarlicha aniq javoblarni talab qiladigan savollar bo'lishi kerak;

– har bir topshiriqda o'quv adabiyotlarida mustaqil o'rganiladigan material bo'yicha savol bo'lishi kerak;

– o'qilgan ma'ruza materiali bo'yicha cheklangan miqdordagi savollar bilan mutlaqo bir xil savollarga ega ikkita yoki undan ortiq topshiriq bo'lmasligi kerak.

Mustaqil ta'limni amalga oshirishda talabalar juftlikda, guruh bo'lib qatnashsa samaraliroq bo'ladi. Guruh ishi o'zaro nazorat tufayli motivatsiya darajasini,



o'quvchilarning bilim faolligini rivojlantirish, birgalikdagi ishlarni bajarishga qiziqishni oshirishga yordam beradi [2,3].

Bundan tashqari ochiq urug'li o'simliklar bo'limini o'qitishda talabalarga mustaqil ta'limni tashkil etish uchun LMS MOODLE tizimidan ham foydalanish ishini samarali bo'lishiga olib keladi. «Botanika» fanining o'quv kursida quyidagi elementlari ko'proq qo'llaniladi: «Ma'ruza», «SCORM to'plami», «Giperhavola», «Fayl», «Topshiriq», «Test». Kursning ushbu elementlari fanning turli bo'limlarini o'rganishda qo'llaniladi: «Morfologiya», «Sistematika», va hokazo. Botanika kursining o'quv jarayonida mustaqil ta'limni tashkil etishda LMS MOODLE dasturidan foydalanish talabalarda zarur kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi va fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga xizmat qiladi [1]. Shuni aytib o'tish kerakki, ochiq urug'li o'simliklar bo'yicha mustaqil ishlarni olib borish mashg'ulotlari vaqt jihatidan cheklanmagan. Shu sababdan, auditoriadan tashqari ish talabalar ijodiy faoliyatini kengaytirishga imkon beradi. Biroq, mustaqil ta'lim uchun ajratilgan vaqt kredit-modul tizimi bo'yicha taqsimlanadi.

Hozirgi kunda talabalar ilg'or texnologiyalarni qo'llab, mustaqil ta'limni o'zlashtirishlari uchun talab kuchaymoqda. Chunki, fan sohasida tadqiqotchilik nuqtai nazaridan berilgan mavzularda dolzarb masalalarni yechish va tegishli qaror chiqarish talabaning fikrlash doirasini kengaytirishga olib keladi va ijodiy qobiliyati rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дроздова И.Л. Организация самостоятельной работы по ботанике с применением ЛМС МООДЛЕ. Балтийский гуманитарный журнал. 2021. Т.10, №2 (35).
2. Левченко И.Е. Особенности организации самостоятельной работы студентов при реализации ФГОС / И.Е. Левченко. // Научные исследования в образовании, 2012. Выпуск №4. - С.154.
3. Омелаенко Н.В. Методика и организация самостоятельной работы студентов // Современные наукоемкие технологии. - 2016. - № 2-3. - С. 538-542;
4. Xo'janazarov O'.Э. va boshqalar. Botanika. Darslik. Toshkent: Innovatsiya Ziyo, 2022. - B. 113-114.
5. <https://www.redalyc.org/journal/310/31055914013/html/>
6. https://www.researchgate.net/publication/284213229_The_Self-Education_Concept_General_Notions_and_Structure#fullTextFileContent



SHAXS RIVOJLANISHIDA O‘Z-O‘ZINI ANGLASHNING O‘RNI VA O‘Z-O‘ZINI HURMAT QILISH DARAJASINI OSHIRISHDA OTA-ONA VA O‘QITUVCHILARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

R.X.KORSHUBAEVA,
*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Psixologiya kafedrası assistenti*

Ushbu maqolada shaxsda o‘z-o‘zini anglashning tarkib topishi, adekvat va noadekvat o‘z-o‘zini anglash sabablari va oqibatlari psixologik jihatdan sharhlangan. Shuningdek o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini hurmat qilish tuyg‘ularini to‘g‘rilash va rivojlantirish usullari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: «Men-kontsepsiya», O‘z-o‘zini baholash, narsissizm, altruistik instinktlar, majburiy, ijtimoiy, aybdorlik hissi, faoliyat, o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini o‘zgartirish, qayta qurish, muvaffaqiyat, xulq-atvor, mikro muhit, serber, flegmatizm.

В данной статье психологически объяснен состав самосознания человека. Причины и последствия адекватного и неадекватного самосознания. Также показаны методы коррекции и развития чувства самосознания и самооценки.

Ключевые слова: Я концепция, самооценка, нарциссизм, успех, альтруистические инстинкты, принуждение, социальное, чувствования, активность, самосознание, самотрансформация, перестройка, поведение, микросреда, сербер, флегматизм.

This article psychologically explains the composition of human self-awareness, the causes and consequences of adequate and inadequate self-awareness. Methods for correcting and developing a sense of self-awareness and self-esteem are also shown.

Key words: Self-concept, self-esteem, narcissism, altruistic instincts, coercion, social, guilt, activity, self-awareness, self-transformation, restructuring, success, behavior, microenvironment, serber, phlegmatism.

Uzluksiz ta‘lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma‘naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Uzluksiz ta‘lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta‘lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta‘lim dasturlarining izchilligi asosida ta‘minlanadi.

Maktabga kirish bolaning hayotidagi burilish nuqtasidir. Uzluksiz ta‘limda o‘quvchi pozitsiyasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning o‘qishi majburiy, ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatdir. Buning uchun u o‘qituvchi, maktab va oila oldida javobgardir. O‘quvchining hayoti barcha o‘quvchilar uchun bir xil bo‘lgan qat‘iy qoidalar tizimiga bo‘ysunadi. Uning asosiy mazmuni barcha bolalar uchun



umumiy bo‘lgan bilimlarni o‘zlashtirishdir. Uzlüksiz ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida mutlaqo alohida turdagi munosabatlar rivojlanadi. O‘qituvchi shunchaki katta kishi emas, bolaga yoqadigan yoki yoqmasligi mumkin bo‘lgan. U bola uchun ijtimoiy talablarning rasmiy tashuvchisidir. Uzlüksiz ta’limda o‘quvchining darsda olgan bahosi o‘qituvchining bolaga bo‘lgan shaxsiy munosabatining ifodasi emas, balki uning bilimi va tarbiyaviy vazifalarni bajarishining ob‘ektiv o‘lchovidir.

Sinfdagi bolalar o‘rtasidagi munosabatlar o‘yinda rivojlanadigan munosabatlardan farq qiladi. Uzlüksiz ta’limda bolaning tengdoshlar guruhidagi mavqeini belgilaydigan asosiy o‘lchov o‘qituvchining baholashi va akademik muvaffaqiyatidir. Shu bilan birga, majburiy faoliyatda birgalikda ishtirok etish umumiy mas’uliyatga asoslangan munosabatlarning yangi turini keltirib chiqaradi.

Bilimlarni o‘zlashtirish hamda o‘z-o‘zini o‘zgartirish va qayta qurish uzlüksiz ta’limning yagona maqsadiga aylanadi. Bilim va tarbiyaviy harakatlar nafaqat hozirgi, balki kelajak uchun, kelajakda foydalanish uchun ham olinadi. O‘qituvchi va ota-onalar bolaning puxta bilim va namunali tarbiya olishlarida eng avvalo uning o‘zida o‘z-o‘ziga bo‘lgan hurmat, «Men»iga bo‘lgan ishonch tuyg‘ularini hosil qilishlari lozim.

«Men-kontsepsiya» – bu shaxsning o‘zi haqidagi tasavvurlar tizimi, shaxsning ongli, aks ettiruvchi qismi. Shaxsning o‘zi haqidagi bu tasavvurlari ozmi-ko‘pmi ongli va nisbatan barqarordir. O‘z-o‘zini anglash – bu insonning o‘zi haqida, qanday fazilatlar va xususiyatlarga ega ekanligi haqidagi tasavvurlar yig‘indisidir Albatta, bu jarayon ma’lum bosqichlarda amalga oshadi.

Birinchi bosqich – o‘z-o‘zini hurmat qilishning paydo bo‘lishi – tug‘ilishdan bir yarim yoshgacha.

Bu davr tana-tuyush bilan belgilanadi. tana-tuyush orqali chaqaloq atrof-muhit haqida bilib olar ekan, bu bosqichda bolaga maksimal darajada g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ota-onalarning o‘z mehrini ko‘rsatishi juda muhim, shunda u ongsiz darajada muhim va zarur ekanligini tushunishni boshlaydi.

Ikkinchi bosqich – maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘z-o‘zini hurmat qilishning shakllanishi

Bu davrda bolalar dunyoni va bu dunyodagi o‘zlarini faol ravishda o‘rganadilar. Ular birinchi muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradilar, jamiyatdagi odamlar doirasi kengayadi va hokazo. 3-4 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun yaqinlarining xatti-harakatlari va xatti-harakatlariga munosabati hali ham muhimdir.



Bu bosqichda, hech qanday holatda, bolani tanqid qilmaslik, uning noto'g'ri xatti-harakatlari uchun uni qoralash, baqirish yoki boshqa bolalar bilan solishtirish kerak emas. Bu yoshga kelib, bolaga o'z fikri, xohish-istaklari va har qanday xatti-harakatlar uchun javobgar bo'lish qobiliyatiga ega bo'lgan mustaqil shaxs bo'lish hissini berish uchun elakdan o'tish (separatsiya)ning birinchi bosqichidan o'tish imkoniyatini berish kerak.

O'z-o'zini anglash va o'zini o'zi qadrlash erda bolalikdan boshlanadi. Bunga bolaning muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik tajribasi ham, ota-onasi bilan bo'lgan munosabatlari ham ta'sir qiladi.

O'rta bolalik davrida(5-7 yosh) bolalar o'zlari haqida ko'proq va barqaror g'oyalarni rivojlantiradilar va ularning o'zini o'zi anglashlari ham yanada realistlik bo'ladi.

Uchinchi bosqich – shaxsiy fazilatlarni shakllantirishning asosiy bosqichi.

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda o'z-o'zini hurmat qilishni shakllantirish shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishning asosiy bosqichidir. Bolada ish jarayonlariga va natijalarga erishishga qiziqish rivojlanadi. Endi uning uchun uning harakatlari va umuman shaxsiyati jamoaning boshqa a'zolari tomonidan qanday baholanishi muhim. Bola doimo o'zini tengdoshlari bilan taqqoslaydi va shunday xulosalar chiqaradi: «Men sportda Syuzandan yaxshiroqman, lekin men Tanya kabi mashhur emasman». bu kabi ta'kidlar, bolalarning o'z-o'zini anglashining paydo bo'lishi «filtr»ini yaratadi, bu orqali ular o'zlarining xatti-harakatlarini va boshqalarning xatti-harakatlarini baholaydilar. Biroq, endi paydo bo'lgan «Men» tushunchasi har doim ham etarli emas. Masalan, birinchi sinf o'quvchilari katta yoshdagi bolalarga qaraganda o'zlarining qobiliyatlari va ko'nikmalarini bo'rttirib ijobiy his qilishga moyildirlar

Muvaffaqiyatga erishmagan bolalarning o'zini o'zi baholashi.

Ota-onalarning munosabati va sinfdoshlarining fikriga ko'ra, sport kabi bir sohada muvaffaqiyatsizlikka uchragan bolalar ko'pincha o'zlari ustun bo'ladigan boshqa sohani topishlari mumkin. O'qituvchi, ota-onalar, tengdoshlar guruhlari va yaqin ijtimoiy muhitning bolaga ijobiy munosabati ham uning o'zini o'zi qadrlashiga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun butun dunyo bo'ylab ko'plab qora tanli bolalar, ko'pchilik tomonidan har kuni irqiy noto'g'ri qarashlar va murosasizlikka duchor bo'lishlariga qaramay, o'z-o'zini yuqori hurmat qilishni rivojlantirishga muvaffaq bo'lishadi (Spenser, 1988).

Maqto'v – o'z-o'zini yuqori baholash (hurmat qilish)ning shakllanishida



ma'lum ahamiyatga ega. Ko'pgina o'qituvchilar o'z o'quvchilarida yuqori o'z-o'zini hurmat qilishni hosil qilish uchun maqtovdan foydalanadilar. Mo'tadil va faqat haqiqiy yutuqlarni mustahkamlash uchun ishlatilsa, maqto'v juda samarali bo'lishi mumkin. Ammo haddan tashqari maqto'v bolaning kuchli va zaif tomonlarini aniqroq aniqlashiga to'sqinlik qiladi. U shunday fikrga kelishi mumkin: «Men nima qilsam ham zo'rman» – deb o'z-o'zini yuqori baholaydi.

O'z-o'zini yuqori baholash o'z ichiga quyidagi belgilarni oladi:

– o'zidan ketgan; tengdoshlariga nisbatan zo'ravonlik; narsissizm; nutqdagi «qo'mondon» lik ohangi; tanqidga noto'g'ri munosabatda bo'lish; o'z xatolarini tan olish istagi va bunda aybdorlik hissining yo'qligi; altruistik instinktlarning yo'qligi. Bu tengdoshlar o'rtasida va maktabda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. O'z-o'zini past baholashning belgilariga quyidagilar kiradi:

– o'zida ishonchsizlik; qat'iysizlik; haddan tashqari uyatchanlik; haddan tashqari ehtiyotkorlik; birovning fikriga bog'liqlik yoki unga noto'g'ri munosabatda bo'lish; sotsiopatiyaning namoyon bo'lishi.

Yakuniy bosqich – o'smirlik davri. Bolada o'zini o'zi qadrlashning shakllanishi bosqichma-bosqich sodir bo'lar ekan, yakuniy bosqich – o'smirlik davridir. 14-16 yoshda yoshlar o'z qadr-qimmatini bilishadi, lekin tashqi omillar va atrof-muhit hali ham shaxsning rivojlanishiga ta'sir qiladi. Imtihonlar paytida haddan tashqari stress, yoki tanish jamoani almashtirish ham zararli bo'lishi mumkin.

Bolada o'z-o'zini to'g'ri baholashni, o'z-o'zini hurmat qilishni, qanday shakllantirish kerak.

Bolaning etarli darajada o'zini o'zi qadrlashini shakllantirish ustida ishlashni boshlash uchun, u hozir qaysi darajada joylashganligini ota-onalar aniq tushunishlari kerak. Qoidaga ko'ra, bolaning o'zini o'zi qadrlashi buzilganligini vaqtda sezish unchalik oson emas. Ko'pincha bu rivojlangan holatlarda, xatti-harakat omillari o'zgarib bo'lganda sodir bo'ladi. Bundan tashqari, uyda muvozanatni tiklash deyarli mumkin emas. Bunday holda, psixoterapiya uchun psixologga tashrif buyurish kerak. Biroq, ota-onalar ham tuzatishda ishtirok etishlari kerak.

Bolalarning o'zini o'zi qadrlashini tuzatish yo'llari:

1. Avvalo, oiladagi vaziyatni yaxshilash, bezovta qiluvchi omillarni minimallashtirish, uyg'un mikro muhit yaratish kerak. . Mehr va e'tibor ko'rsating. Albatta, me'yorida

2. Bola bilan muloqotni yo'lga qo'ying, uning muammolariga e'tibor bering.



Farzandingizga o'zining kuchli tomonlari va haqiqiy imkoniyatlarini muvozanatlashga o'rgating; ambitsiyalar(katta maqsad, reja, g'oyani amalga oshirishga bo'lgan kuchli istak sog'lom fikrdan ustun bo'lmasligi kerak. Kichkintoyingizga maksimal darajada e'tibor, iliqlik va g'amxo'rlik qiling, u o'zini muhim va zarurligini his qilishi kerak, shuningdek, hayotda doimo suyanish kerak bo'lgan yelkasi borligini tushunishi kerak.

3. Ota-ona tarbiya usullarini qayta ko'rib chiqing, bosim usullarini aniqlang va ulardan voz keching. Zulmning barcha manbalarini yo'q qiling.

4. Bolaga maksimal muloqot va har qanday masala bo'yicha fikr-mulohaza bildirish imkonini bering. Siz bilan hamma narsani baham ko'rishi mumkin bo'lgan do'st bo'ling. Shaxsiy fikr bildirish huquqini bering. Mustaqil fikrlashga va javobgarlikni ham o'z bo'yniga olishga imkon bering.

5. Bolaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlang. Ikkinchisiga e'tibor qarating va ularni rivojlantiring.

6. Bolaning qiziqishlarini aniqlang va u yoki bu sohada rivojlanish imkoniyatini ta'minlang. Xobbi va ehtirolarni toping, urinishlarini qo'llab-quvvatlang.

7. Atrof-muhitning ta'sir darajasini aniqlang va bolangizning ijtimoiy doirasi bilan tanishing. Hozirgi jamoa farzandingizga salbiy ta'sir ko'rsatsa, bunday holda, siz taklif qilgan guruh haqiqatan ham yaxshiroq ekanligini ko'rsatib, muhitni o'zgartirishingiz kerak.

8. Agar siz ilgari to'liq nazorat va haddan tashqari himoyalashga rioya qilgan bo'lsangiz, shoshilinch ravishda elakdan o'tish, tanlash erkinligi va bolaga o'z harakatlari uchun javobgarlikni olish imkoniyatini berish kerak. Xato qilishiga, va «xatolardan pushaymon qilishiga qo'yib bering».

9. Hamma narsada muvozanatni saqlang va esda tuting: bola mustaqil shaxs, siz esa serber emas, do'stsiz. Shu bilan birga, bolangizga nisbatan befarqlik va flegmatizm bo'lmasligi kerak.

(SERBER – Yovuz, vahshiy vazifa ustasi [asl. (qadimgi yunon mifologiyasida: do'zaxga kirishni qo'riqlagan yovuz uch boshli it)

10. Individuallikni hurmat qiling, garchi u siznikiga zid bo'lsa ham.

11. Boshqa odamlar, ayniqsa tengdoshlari bilan solishtirmang.

12. Tanqid qilmang, ayniqsa mayda-chuydalarni.

13. Bola haqida uchinchi shaxsda gapirmang.

14. Farzandingizni maqtang, ko'p va tez-tez, har qanday yaxshi harakati uchun.



15. Ko'p talab qilmang yoki to'siqni juda baland qo'ymang.
16. Har qanday muvaffaqiyat va yutuqlar uchun mukofotlang.
17. Hayotda muvaffaqiyatga ham, muvaffaqiyatsizlik uchun ham joy borligini va har qanday qiyinchilikni engish mumkinligini ayting.

Ota-onalar mutaxassis – bolalar psixologiga tashrif buyurishni e'tiborsiz qoldirmasligi kerak. Tuzatish kursi o'zini o'zi qadrlashning buzilishi kabi psixologik kasalliklar uchun haqiqiy davo bo'ladi.

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish tamoyillari to'la -to'kis amalga oshishi uchun o'z-o'zini anglash va o'z-o'ziga hurmatni ota-ona va o'qituvchilar bolalarda o'z vaqtda shakllantira olishlari lozim, shundagina ularning keyingi faoliyatlarida va rivojlanishlarida asosiy mexanizmlardan birini ishga tushirgan bo'lishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Обухова Л.Ф. Детская психология: теория, факты, проблемы.-М.1995
2. Фелдштейн Д.И. Психология развивающейся личности.- М.1996
3. Божович Л.И. Избранные психологические труды. Проблемы формирования личности. -М.1995
4. Ремшмидт Х. Подростковы и юношеский возраст: проблемы становления личности.-М.1994
5. M.Xolmatova. «Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi» T. «O'zbekiston». 2000 y.



KOMPETENTLI YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMMADANIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI

SH.D.XONBABAYEV,

Qo'qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Ushbu maqolada kompetensiya tushunchasi tobora ommalashib borayotgani hamda o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish dolzarb masala sifatida qarashlar dunyo va yurtimiz olimlari ushbu masala bo'yicha olib borgan ishlari yoritilgan. Uzluksiz ta'lim bu jarayomning muhim tarkibiy qismidir, chunki u hayot davomida bilim va malakalarni doimiy ravishda yangilash va kengaytirish imkoniyatini beradi. Bu o'quvchilarga tez o'zgaruvchan yashash va ish sharoitlariga moslashish, shuningdek, ko'p millatli va madaniy jihatdan xilma-xil muhitda samarali muloqot qilish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: ijtimoiylashuv, kompetensiya, milliy va umummadaniy kompetensiya, yondashuv, qadriyat, dunyoqarash, urf-odat, uzluksiz ta'lim, shaxs munosabatlari.

В данной статье освещается растущая популярность понятия компетенции и взгляды на развитие национальных и общекультурных компетенций у читателей как на актуальный вопрос. Непрерывное образование является важным компонентом этого процесса, поскольку оно дает возможность постоянно обновлять и расширять знания и навыки на протяжении всей жизни. Это позволяет учащимся адаптироваться к быстро меняющимся условиям жизни и работы, а также эффективно общаться в многонациональной и культурно разнообразной среде.

Ключевые слова: социализация, компетентность, национальная и общекультурная компетентность, подход, ценность, мировоззрение, традиция, непрерывное образование, отношения личности.

This article covers the growing popularity of the concept of competence and the development of national and Universal competencies in students views as an urgent issue scientists from the world and our country have been working on this issue. Lifelong learning is an important component of this process, as it provides an opportunity to constantly update and expand knowledge and skills throughout life. It allows students to adapt to rapidly changing living and working conditions, as well as communicate effectively in a multi-ethnic and culturally diverse environment.

Key words: socialization, competence, national and Universal competence, approach, value, worldview, tradition, lifelong learning, personality relations.

Bugungi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida o'tkazilayotgan islohotlar uzluksiz ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Umumta'lim maktablari oldiga yangi maqsad va vazifalar qo'yilmoqda. Barcha o'zgarishlarning maqsad va



mohiyati markazida rivojlanayotgan o'quvchi shaxsi – uning maqsadi va o'zini anglashi hamda o'zini tadqiq etishi, shaxs bo'lib yetishishi, ijodini namoyon etish kabi masalalar turadi.

Ta'limga kompetent yondashuv o'quvchilarda hosil bo'lgan kompetensiyalardan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda samarali foydalanishga o'rgatishni ko'zda tutadi. Bunda kutilmagan noaniq, yangi, muammoli vaziyatlarga duch kelinganda tegishli bilim, ko'nikma, malakalardan foydalana olishga alohida e'tibor qaratiladi. Ta'lim jarayoniga kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish nafaqat bilimlarni, balki zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qiymat yo'nalishlarini ham samarali shakllantirishga imkon beradi. Bunda milliy va umumiy madaniy kompetensiyalar muhim rol o'ynaydi, chunki ular o'quvchilarga madaniy xilma-xillikni tushunish va qadrlashga, boshqa xalqlarning urf-odatları va qadriyatlariga hurmatni rivojlantirishga yordam beradi.

Uzluksiz ta'lim bu jarayonning muhim tarkibiy qismidir, chunki u hayot davomida bilim va malakalarni doimiy ravishda yangilash va kengaytirish imkoniyatini beradi. Bu o'quvchilarga tez o'zgaruvchan yashash va ish sharoitlariga moslashish, shuningdek, ko'p millatli va madaniy jihatdan xilma-xil muhitda samarali muloqot qilish imkonini beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlash asosida bugungi kunda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qadrlash bilan bog'liq ijtimoiy ongdagi muammolarni, madaniyashunoslikdagi qadrsizlanish muammosini, fan va din o'rtidagi munosabatlarni, ilmiy va diniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash jarayonida ko'zga tashlagnayotgan muammolarga o'z yechimini taklif qila oldaigan, invasion yondashuvlar bilan qaray oladigan, umuman olganda ijtimoiy munosabatlardagi bunday muammolarni tarixiy xotira va tajriba asosida bartaraf eta oladigan mutaxxasislarni tayyorlash imkonini beradi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya atamasi ilmiy tadqiqotlar va metodik adabiyotlarning tez-tez murojaat qilib turadigan obyekti sanaladi. G.V.Yelizarova quyidagi ta'rifni beradi: milliy va umummadaniy kompetensiya «... ma'lum bir jamiyatga xos bo'lgan qadriyatlar, e'tiqodlar, xulq-atvor namunalari, urf-odatları, tili, madaniy yutuqlari to'g'risida bilimlar majmuasi» [1].

Maqolada o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish zarurati masalasi muhokama qilinadi, shuningdek ijtimoiylashuv va ijtimoiy moslashuv tushunchalari tahlil qilindi, ijtimoiylashish jarayonida subyekt va obyekt shaxs munosabatlarini rivojlanish darajalari yoritiladi.

O'quvchining milliy va umummadaniy qadriyatları va bilimlari, qobiliyatları va ko'nikmalari uning haqiqiy ijtimoiy mavqeiga muvofiqligini, uning madaniyati, axloq va qonun darajasiga mosligini taqozo qiladi. Milliy va umummadaniy



kompetentlikni yanadi to'liqroq aniqlash uchun uning tuzilishini ko'rib chiqish zarur. Biz buni quyida ko'rib chiqamiz.

Milliy va umummadaniy kompetentlikning tuzilishi deganda uning asosiy tarkibiy qismlari va turli mazmun-mohiyat darajalari tushuniladi. Umummadaniy kompetentlik quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

– aksiologik – asosiy hayotiy qadriyatlar iyerarxiyasi shaklida;

– gnoseologik – insonning o'zi bilan o'zi (o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini rivojlantirish), o'zgalar bilan ijtimoiy mohiyatli masalalarni hal qilishi bo'yicha ijtimoiy bilimlar; metodologik, kategorial, reflektiv (aks ettiruvchi) va loyihaviy fikrlashni nazarda tutadi; bunday tafakkur birlashmaning tizimli aloqalari bilan ishlaydi, bu subyektga ijtimoiy muammolarni prinsipial hal qilish, umumiy va o'zgaruvchan xususiy vaziyatlarga nisbatan umumiy yechimni turlicha o'zgartirish imkonini beradi;

– subyektiv – o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi boshqarish, tashabbuskorlik va qoidalar ishlab chiqarishga tayyorlik, ijtimoiy voqeilikda mustaqil ravishda yangi sabablarni topish qobiliyati va qabul qilingan va bajarilgan ishlar uchun javobgarlik hissi;

– praksiologik (texnologik) – ijtimoiy normalar va ijtimoiy munosabatlar tizimida gumanitar-ijtimoiy texnologiyalar hamda kommunikatsiyalarni amalga oshirish qobiliyati.

Milliy va umummadaniy kompetentlik orzu-umid bilan emas, balki harakatlar bilan, qadriyatlar va bilimlarni iroda bilan o'zligini topishga va amaliy harakatlarga o'tkazish bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun, ushbu kompetentlikda iroda alohida ahamiyatga ega, ya'ni o'quvchining qadriyatlar va bilimlariga muvofiq harakat qilishni o'zi belgilash qobiliyati. Shaxsiy muloqot darajasida milliy va umummadaniy kompetensiyaning ishonchli ta'rifi Z.A. Aksyutina tomonidan berilgan: «O'zgalar bilan birgalikda harakat qilish istagi va ko'nikmasi, o'ziga va o'zaro muloqot qobiliyatiga bo'lgan ishonch, hamkorlik qilish va muloqot jarayonida yuzaga keladigan muammolarni yengish qobiliyati» [3].

Milliy va umummadaniy bilimlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– til tashuvchilarning madaniy xususiyatlari, ularning urf-odatlarini, marosimlari haqida bilish;

– o'zini tutish va odob-axloq me'yorlarini, shu jumladan, og'zaki (verbal) va og'zaki bo'lmagan (neverbal) aloqa usullarini bilish;

– o'rganilayotgan til mamlakatining ijtimoiy-madaniy portretini (uning rivojlanishining asosiy bosqichlari, tarixidagi eng muhim bosqichlar, madaniy merosni bilish) bilish.

Milliy va umummadaniy ko'nikmalar blokiga quyidagilar kiradi:

– og'zaki va yozma muloqotda (tabriklash, xayrlashish, tabriklash, kechirim so'rash, iltimos qilish) odob-axloq qoidalari formulalaridan foydalanish qobiliyati;

– madaniyatlararo muloqotda o'z mamlakati, madaniyatini namoyish etish qobiliyati;



– birgalikda o‘rganilgan madaniyatlarning faktlari va hodisalarining o‘xshashlik va farqlarini o‘zaro taqqoslashni bilish;

– nutq va nutqsiz xatti-harakatlarni jamiyatning madaniy me‘yorlariga muvofiq ravishda qurish;

– umummadaniy, madaniyatshunoslik, ijtimoiy-lingvistik va lingvistik-madaniy xarakterdagi ma‘lumotlarni to‘plash, tizimlashtirish, tahlil qilish va talqin qilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiyani rivojlantirish o‘quvchining ma‘lum qobiliyatlari va fazilatlarini shakllantirishni nazarda tutadi, ularga quyidagilar kiradi:

– ochiqlik (odamlarga nisbatan, boshqa madaniyat vakillariga nisbatan xurofotdan ozod bo‘lish);

– suhbatdoshni eshitish va tinglash qobiliyati;

– bag‘rikenglik (boshqa madaniyatlarda bizga tanish bo‘lmagan namoyishiga nisbatan bag‘rikenglik munosabati);

– muloqotga tayyorlik (o‘z va boshqa ijtimoiy-madaniy hamjamiyat vakillari bilan faol muloqotda bo‘lish istagi va qobiliyati);

– nutq va ijtimoiy-madaniy muloyimlik va xushmuomalalik.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlash quyidagilarga bog‘liq:

– jamiyatning tarixiy va madaniy rivojlanish xususiyatlariga;

– o‘qituvchilarning ijtimoiy va professional hamjamiyat sifatidagi o‘rniga;

– zamonaviy ta‘limning ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida rivojlanishiga;

– ma‘lum ta‘lim muhitining ijtimoiy-ta‘lim holati faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlariga;

– kasbiy faoliyatni shakllantirishning shaxsiy mexanizmlariga;

– o‘qituvchi tomonidan ta‘limning gumanistik paradigmasini o‘zlashtirishi va uni amal oshirishiga.

Bizning fikrimizcha, bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlash kerakli miqdordagi ijtimoiy-madaniy xarakterdagi bilim hamda mutaxassisni tayyorlash talablari asosida qurilishi kerak. Bunday bilimlarga quyidagilar kiradi:

– o‘z mamlakatining milliy va madaniy xususiyatlari, zamonaviy dunyoda o‘z ona tilining ahamiyati, shaxslararo va madaniyatlارaro muomala, odob-axloq qoidalarini bilish;

– o‘z mamlakatining «milliy va ijtimoiy-madaniy portreti», ramzlari va madaniy merosini bilish;

– madaniyat va madaniy meros sohasidagi bilimlar (dunyoga mashhur yodgorliklar va diqqatga sazovor joylar, taniqli insonlar va ularning jahon madaniyatiga qo‘shgan hissasi, san‘at asarlari, artefaktlari).



Xulosa qilganda, milliy va umummadaniy kompetensiya bugungi zamonning ijtimoiy talablaridan kelib chiqqan holda shakllantiriladigan hayotiy bilim va ko'nikmalarga asoslanadi. Bunday bilim va ko'nikmalar milliy va madaniy qadriyatlarga tayanadi. Kompetentlik va kompetensiyaning umumiy tomoni shundaki, ular shaxsni faoliyat subyekti sifatida tavsiflaydi, shuning uchun ular faoliyat toifalari sifatida tan olinishi kerak. Farqi shundaki, kompetensiyani rivojlantirish mumkin, ammo o'quv jarayonida kompetentlikni rivojlantirish mumkin emas, chunki kompetentlikni rivojlantirish muayyan faoliyat sohasida tajriba talab qiladi. Shunday qilib, kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida milliy va umumiy madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish nafaqat bilimlarni shakllantirishni, balki zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli moslashish va o'zini o'zi anglash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar, ko'nikmalar va qiymat yo'nalishlarini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, uzluksiz ta'lim muhim rol o'ynaydi, bu butun umr davomida vakolatlarning doimiy yangilanishi va kengayishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Елизарова, Г. В. О природе социокультурной компетенции [Текст] / Слово, предложение и текст как интерпретирующие системы. *Studia Linguistica* 8. - СПб.: Тригон, 1998. - С. 28.

2. Мельникова, Д.С. Формирование иноязычной социокультурной компетенции студентов художественно-графического факультета педагогического университета (на материале английского языка) [Текст]: дис... канд. пед. наук: 13.00.02. - СПб., 2005. - 243 с. с.32.

3. Аксютин, З. А. Концепция компетентностной подготовки к социальному воспитанию в вузе / З. А. Аксютин // Сибирский педагогический журнал № 3. -Новосибирск, 2011.-С. 130

4. Риске, И.Э. Формирование социокультурной компетенции у учащихся старшей ступени обучения на материале англоязычной поэзии [Текст]: дис... канд. пед. наук: 13.00.02. - С-Пб.: РГПУ, 2000. - 259 с., с. 119.



PSIXOLOGIK SOG‘LOM OILA – KELAJAK POYDEVORI

S.I. QULMAMATOV,

Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti

SH.A.XUDOYNAZAROV,

Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Ushbu maqolamizda ayollarning qadri, oilaviy ajrimlar, farzand tarbiyasi, ona yurtning ishongan poydevori bo‘lgan yoshlarga ko‘rsatilayotgan oiladagi ijtimoiy, psixologik muammolar va ulardan vos kechish uchun ko‘rsatmalar berilmoqda, zero kelajak yoshlarniki.

Kalit so‘zlar: *Yurt, Oila, farzand, ayol qadri, ajirinning psixologik sabablari.*

В данной статье показаны значение женщины, семейные споры, воспитание детей, социальные и психологические проблемы в семье, которые являются надежным фундаментом Родины, и даны указания избегать их, ведь будущее принадлежит молодым людям.

Ключевые слова: *Страна, семья, ребенок, ценность женщины, психологические причины развода.*

This article shows the importance of women, family disputes, raising children, social and psychological problems in the family, which are the reliable foundation of the Motherland, and gives instructions to avoid them, because the future belongs to the young People.

Key words: *Country, family, child, value of a woman, psychological reasons for divorce.*

Yurt taraqqiyoti buguni va ertasining istiqbolli kelajagi haqida o‘ylar ekanmiz bu borada biz yoshlarga bildirilayotgan ishonch, kelajagi buyik davlatning oliy maqsadidir. Ma’naviyatli, bilimdon, saloxiyati katta yoshlarni tarbiyalashda albatta oila poydevor vazifasini bajaradi. Shu boiski, Respublikamizda oilalarga qaratilayotgan e’tibor davlat siyosati miqiyosida ko‘rilmogda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 7-martdagi PF-87-sonli farmonida 2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faoliligini oshirish bo‘yicha «Milliy dasturi» O‘zbekistonda «2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalar» doirasida ustuvor maqsadlardan biri sifatida «Gender tenglikni ta’minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishni» belgilab berdi.



Bunday qonun, farmon, farmoyishlardan ma'lumki, yurtimizda ayollarning ijtimoiy siyosiy mavqeyi qay darajada oshirilganligi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shuni ta'kidlash kerakki, oila va undagi muamolar oila haqidagi bilimlar bugun yokida kechagi kunda paydo bo'lgan narsa emas oila haqidagi bilimlar yillar davomida rivojlanib hozirga darajaga yetib keldik.

Oila haqidagi ilk qarashlar eramizdan oldingi davirlarga tog'ri keladi. Platon, Aristotel, Geradot asrlarida oila haqidagi ilk qarashlar keltirilgan bo'lsa, sharq mutafakkirlaridan Farobiyning «Fozil odamlar shaxri», Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'ati turk», Alisher Navoiyning «Xamsa» kabi asarlarida oila va undagi qilinishi kerak bo'lgan vazifalar keltirib o'tilgan bo'lsa bugungi kunda Shayx Muhammad Sodiq muhammad Yusuf hazratlarining «Baxtiyor oila», Vasila Karimova «Oila psixologiyasi», G'.B.Shoumarov «Oila psixologiyasi» darslik va o'quv qo'llanmalarida oilada er-xotin munosabatlari oilaviy ma'lumotlardan foydalangan holda maqola yaratilgan.

Asosiy qisim. Oila er, xotin va bolalardan tashkil topgan jamiyatning eng kichik qismi bo'lib, jamiyatni shakllantirishda juda muhim vazifalarni bajaradi. Oila institut sifatida ijtimoiy o'zgarishlar jarayoniga ham ta'sir qiladi. Zamonaviy sanoatning rivojlanishi jamiyatida oilaning tuzilishi, shakli va funktsiyalarida farqlarni yuzaga keltirdi. Bu jarayonda to'liq, farzandsiz oilalar, turmushga chiqmaganlar tomonidan tuzilgan oilalar kabi yangi oila shakllari paydo bo'ldi. Oila jamiyatning asosi sifatida qabul qilinadi.

Biroq, oilaviy munosabatlar har doim ham siz va biz xohlagancha davom etavermaydi. Ba'zan oilada nizo va zo'rvonlik muhiti borligi ko'rinadi. Bu mavzu bo'yicha ko'plab tadqiqot natijalariga ko'ra, oiladagi nizolar muqarrar, ammo bu nizo ham turmush o'rtoqlar va oila a'zolari o'rtasida yaqinlikni keltirib chiqarishi mumkin. Ijtimoiy o'zgarishlar jarayoni jamiyatdagi o'zgarishlar bilan bir qatorda oilaga ham ta'sir qilishi mumkin.

Modernizatsiya, sanoatlashtirish va urbanizatsiya kabi inson hayotiga ta'sir qiluvchi omillar ayollarning oila va ijtimoiy hayotdagi yukini oshirdi. Ayollar nafaqat «uy bekasi»; U hayotdagi rolini ona, xotin va ishbilarmon ayol sifatida oldi. Ushbu maqolaning maqsadi birinchi navbatda oilada er ayol hayoti va uning oiladagi ro'li muomolari va farzand hayotiga ijtimoiy va psixologik ta'sirini yoritishga qaratilgan. Sog'lom oila muammoli yoki muammosiz oila emas.

Oila a'zolari o'z muammolarini aniqlashlari va ulami tegishli yo'llar bilan hal



qilishlari mumkin. Aynan oilada boshdan kechirgan muammolarning yechimini topadi va tegishli usullar bilan hal qiladi. Boshqacha qilib aytganda, oilalar nizolarga qanday yondashadi va muammolarni qanday hal qiladi? Yoki ular bu muammolarni hal qilish uchun harakat qilishadimi yoki muammoni e'tiborsiz qoldirishadimi? Aytish mumkinki, sog'lom oilalar bu muammolarga to'g'ri yechimlarni qaror qabul qilish jarayonlari orqali birgalikda qo'llaydigan va hayotlariga tadbiiq etadigan oilalardir. Oilaviy nizolarning er va xotin orasida muhokama qilinishi va bu muammolarning farzandlar hayotiga salbiylik, tamonini diqqatimiz markazidan qochirmasak maqsadli bo'lar edi.

O'smir yoshdagi bolalarning ota-onasining doimiy nizolari ulardagi kuchli psixologik muammolarga sabab bo'lmoqda.

O'smirlik – bu alohida davr bo'lib, unda bir qator o'zgarishlar ro'y beradi, bu esa keyinchalik balog'atga etishishga ta'sir qiladi. O'smiring rivojlanishida psixologik jihat birinchi o'ringa chiqadi.

O'smirilar boshqalarning fikriga nisbatan sezgirlikni rivojlantiradilar, ular ko'proq ta'sirchan bo'lishadi. Ularning xatti-harakatlarida namoyishkorlik, tashqi isyon, o'ziga ishonch, kattalarning g'amxo'rliigi va nazoratidan xalos bo'lish istagi qayd etilgan. Tavakkalchilikka ishtaha bor. Stressga nisbatan past qarshilik tufayli ular o'ylamasdan harakat qilishlari va o'zlarini noto'g'ri tutishlari mumkin.

Muloqot va do'stlikka ehtiyoj bor. Rad etishdan qo'rqib, ularning ko'pchiligi tengdoshlari bilan ham, kattalar bilan ham aloqa o'rnatishda qiynalishadi. Ular eshitishni xohlashadi.

Tashqi ta'sir ostida ota – onalar, sinfdoshlar, do'stlar bilan muloqot qilish o'smir tabiatining xususiyatlaridir o'smiring shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga va keyingi ijtimoiylashuviga ota – onaning kundalik hayotdagi muomila va munosabatlari sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

«Ota-onalar o'rtasida kerakli hamkorlikni ta'minlay oladigan munosabatlar mavjud bo'lmagan holda bolalar uchun, ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalar uchun halokatli» dedi – Makintosh. Bunday fikirlar bilan shu narsaga imonimiz komilki, oiladagi nizo nafaqat o'smirilar balki, maktabgacha yoshdagi bollarning xotira, xayol, nutq kabi psixologik jarayonlariga o'z tasirini ko'rsatmoqda.

Nizolardan holi oila bo'lmaydi ammo muammoli oilalarning ko'payishi jamiyat tanazzulining belgisidir. Oiladagi nizolarga sabab bo'layotgan asosiy muammolarning bir qismiga to'xtalib o'taylik.

Ichkilikbozlik (narkomaniya)

Erning doimiy ishsizligi.



Ayollarning mehnat bozorida muvofaqqiyatlari.

Ayollarni qiyinlab kelayotgan muommolardan erlarining doimiy ishlamasliklari yoki, kam daromad sifatida birinchi omil ko'rilayotgan bo'lsa ikkinchi omil sifatida ichkilikbozli (narkomaniya), ayollarini jismoniy, manaviy, psixologik kamsitish ularning nafsoniyatiga tegish sifatida qaralishi oilaviy muhitning buzilishiga sabab bo'layotgan omillardan biridir. Shu o'rinda muqaddas dinimizning Hadisi sharifga nazar tashlamoqchiman: «Ayollar erkaklarning tug'ishgan opa-singillaridir» (Termiziy rivoyati); «Ayollarga yaxshi muomala qilinglar» (Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyati), deyiladi. Muqaddas dinimizda ayollarga yaxshi munosabatda bo'lishlikni targ'ib qilayotgan ekan, ayolga bo'layotgan qo'pol muomiladan vos kechishimiz oilaviy nizolarning oldini olishdagi muhim qadamdir. Uchunchi ko'rsatilgan sababimizda oramizda oliy ma'lumotli ayollarning ko'payish, erkaklarsiz ham o'zining iqtisodiy ehtiyojlarini qondira olishlik hilatlari ham oilaviy ajrimlarning kichik bir sababi bo'lmoqda.

Ajrashga tayyorlanayotgan oilalarning ajralish madaniyati ham bor, er-xotinlarning beqarorligi barcha ijtimoiy kelib chiqishiga taalluqlidir, u barcha madaniyatlarga kirib, barcha avlodlarga tarqaldi. Ajralish oqibatlarining ta'siri amaldagi qadriyatlar va me'yorlarga (xususan, ajralish darajasi va oilaviy norma o'rtasidagi munosabatlarga) bog'liq bo'lib, ular ijtimoiy norozilik darajasi kattalar va bolalarni qoralash shakllari sezilarli darajada farq qilishi mumkin.

Oilaviy standartga javob beradigan ajralish darajasi bugungi kunda 10% dan past natijani ko'rsatmoqda standart darajasi deganda biz er va xotinning o'zaro tushungan holdagi, farzandlarning ongiga bir-birlariga hos bo'lgan mafkuraviy fikirlarni singdirmasdan hamkarona ajralish nazarda tutuladi.

Sotsiologiyaning ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri Endryu Cherlin ajrashgan oilalarning farzandlari haqida shunday deydi: «Biz ota-onalari bilan ajrashgan bolalar, ota-onalari birga bo'ladigan bolalarga qaraganda ko'proq xulq-atvor muammolari va o'qishda qiyinchiliklarga duch kelishlarini aniqladik».

Pol Archambault? tomonidan olib borilgan tadqiqot «Ajralish va ajralish» qanday oqibatlar 2002 yil may oyida ommaviy axborot vositalarida shunday aksado paydo bo'ldi. Uning «Ijtimoiy kelib chiqishi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, er-xotinning ajralishi bolaning o'qishdagi muvaffaqiyatining pastligi bilan bog'liq».

Oilani mustahkam ushlovchi ijtimoiy psixologik sabablar va maslahatlar.

Oilani mustahkamligi normal holatdagi erkak va ayolning orzu va istaklaridan biridir.

Ishonch. Oiladagi er va xotinning o'zaro ishonchi.



Sevgi. Erkak va ayolning sevgisi, ha albatta erkak va ayol har doimo bir birlarini sevishi ulardagi baxt darvozasining kaliti.

Ehtiyojlar. Jinsiy, moddiy va manaviy ehtiyojlardan normal darajada qoniqish olish.

Erkakning doimiy ishlashi. Oilasining barqarorligini taminlovchi omillardan biri, har bir ayol xoxlaydiki, kun avvalida erini ishga kuzatishni, moddiy taminlanganlik.

Reproduktiv funksiya. Oilaning o‘z va jamiyat ehtiyojlari uchun nasl qoldirishi.

Oiladagi dominantlik. Ayol yoki erkakning doimiy dominantligi oilaning boshqa azolariga ham o‘zining fikrini singdiraolish.

Oiladagi sog‘lom muhit. Narkomaniya (ichkilikbozlik) dan holi bo‘lgan oilalar.

Oiladagi ijtimoiy va individual psixologik muomolar, farzand tarbiyasidagi og‘ishishlarning bosh omili sifatida qaralmoqda, yosh avlod yutr tayanchi va ishonchidir.

Biz bu maqolada bugungi kunning oilaviy muomolriga yechim va xulosalar berishga harakat qildik, Maqolada oila va undagi ajirimlar va farzandlar tarbiyasiga keltiriladigan og‘ishishlarning ijtimoiy omili sifati ekanligi, ona yurt istiqbolining oyog‘iga urilayotgan bolta ekanligini isbotlashni o‘z oldimizga maqsad qilgan edik, qaysidir manoda buning ustidan chiqdik deb o‘ylayman. Qadirlı yutrdoshim sizning oilaviy tinchligingiz yurt taraqqiyotiga qo‘shgan hissangizdir. Bu maqoladan o‘zingiz uchun kerakli xulosani olasiz degan umiddaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Podrobneye: https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/nikoh_va_oila_-qonun_hujjatlari.
2. «Ijtimoiy boshqaru» jurnalidan.
3. Roussel L. La Famille incertaine. Editions Odibe Jacob, 1989.
4. Hatay Mustafu Kamol universiteti «Ijtimoiy va diniy tadqiqotlar» jurnali.
5. Волков А.Г. Семья – объект демографии. - Москва:
6. Антонов А.И. Социология семьи: Учебник. - Москва: ИНФРА-М, 2009. Cairn.info saytida 30.06.2022 da chop etilgan.
7. <https://doi.org/10.3917/tiers.012.0051>.



MALAKA OSHIRISH INSTITUTLARIDA TA'LIM SIFATINI BAHOLASH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

X. G. OSTONOVA,

Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodisti

Ushbu maqolada malaka oshirish insitutlaridagi ta'lim sifatini oshirish hamda baholash, shu bilan birga boshqaruv tizimini rivojlantirish hamda bu borada olib borilayotgan say-harakatlar va mexanizmlar haqida so'z boradi. Ta'lim sifatini boshqarishning xalqaro sifat standartlari, uning modellari va tarkibiy qismlari asoslab o'tilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, ta'lim sifati menejmenti, yondashuvlar, modellar, «Deming sikli», xalqaro sifat standartlari, «fransuz» metodi, «ingliz» metodi.

В данной статье описывается, что повышение качества образования и оценка его по показателям развития навыков, а также развитие системы управления, а также действия и механизмы, осуществляемые в связи с этим. В основу положены международные стандарты управления качеством образования, его модели и компоненты.

Ключевые слова: Качество образования, Управление качеством образования, подходы, модели, «цикл Деминга», международные стандарты качества, «французский» метод, «английский» метод.

This article describes that improving the quality and assessment of education in skills development indicators, as well as the development of the management system, as well as the actions and mechanisms carried out in this regard. The international quality standards for quality management of education, its models and components are based on.

Key words: Quality of education, Quality management of education, approaches, models, «Deming cycle», international quality standards, «French» method, «English» method.

Ta'lim va tarbiya eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan bugungi sharoitda ta'lim natijalarini baholash samaradorligini oshirish va usullarini takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali barcha insonlar uchun sifatli ta'lim olish imkoniyatlari yaratilmoqda. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasiga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Bu esa o'z navbatida kadrlar tayyorlash sohasi oldiga ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini zamonaviy talablar asosida oshirish vazifasini qo'yimoqda. Shu sababli ham bugungi kunda bo'lajak mutaxassislarni yuksak kasbiy salohiyat va insoniy sifatlarga ega bo'lishi talab etiladi.



Jahon amaliyotida muayyan mutaxassislar kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda ta'lim boshqaruvi natijaviyligiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, bunda asosiy urg'u ta'lim sifati menejmentiga qaratilmoqda. Bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar oliy ta'lim tizimini boshqarishning nazariy-metodologik asoslari, sifat menejmenti va ta'lim sifati monitoringini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish hamda ta'lim sifati va samaradorligi uyg'unligini ilmiy jihatdan asoslovchi takliflarni ishlab chiqish, oliy ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish masalalariga qaratilgan. Respublikamizda kadrlar tayyorlash sohasida amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimidagi islohotlar ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy talablariga mos keladigan, demokratik va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan ta'lim sifati boshqaruvini shakllantirishni taqozo etmoqda.

Ta'lim sifati menejmenti natijaviyligini kafolatlash uchun ta'lim muassasalari rahbar xodimlari boshqaruvga boshqaruv subyektidan amalga oshiriladigan uzluksiz, izchil faoliyat sifatida qarashi lozim bo'ladi. Bunda ta'lim jaryonlari doimiy harakatdagi dinamik ijtimoiy tizim sifatida boshqaruv obyekti hisoblanadi va u ijtimoiy tizimlarga xos bo'lgan barcha xususiyatlarni o'zida jamlaydi.

Ta'lim muassasasi va undagi ta'lim sifatini boshqarishga metodologik yondashuvlarni boshqaruvning umumiy qonuniyatlari, tamoyillari va funksiyalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish lozim. Ta'lim sifatini boshqarish ta'limni boshqarishning umumiy tuzilmasi tarkibiga kiradi va uning samaradorligi ta'limning umumiy boshqaruvini sezilarli darajada oshirishini ta'minlashi mumkin bo'lgan tuzilma hisoblanadi. Shuning uchun ham ta'lim sifati menejmenti ta'lim tizimidagi boshqaruv faoliyatining mavjud nazariyasi va amaliyotini muhim elementlar bilan to'ldiradi va samarali natijaviyligini ta'minlaydi.

«Ta'lim sifati» so'z birikmasi mamlakatimizda ilk bor 1997 yilda O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarining ta'lim sifati ustidan davlat nazoratiga bag'ishlangan modda va bo'limlarida rasmiy ravishda qayd etilgan. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini ta'minlashga doir qator nazariy va amaliy ishlanmalarning yaratilishiga turtki bo'lmoqda. Sh.Qurbonov va E.Seytxalilovlarning tadqiqotlarida ta'lim sifati deganda ta'lim jarayonining turli ishtirokchilari ta'lim muassasasi tomonidan ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlaridan kutganlarining qanoatlantirilishi darajasi tushuniladi. N.Shmyreva, M.Gubanova va Z.Kresanlar ta'lim sifati – o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga doir ehtiyojlarni qondirishni



ta'minlovchi ta'lim xizmatlari iste'mollilik xususiyatlarining majmuasi, deb hisoblaydi.

A.Voronin tomonidan ta'lim sifati – jamiyatda ta'lim jarayonining holati va natijasini, shaxsning fuqarolik, ha'tiy va kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishi hamda shakllanish ehtiyojlari va umidlariga muvofiqligini aniqlovchi kategoriya tarzida talqin qilingan. Ye.Dombrovskaya ta'lim sifati ta'limning Davlat ta'lim standartlari, tegishli ta'lim dasturining o'quv-dasturiy hujjatlari talablariga muvofiqligi, deb e'tirof etadi. Adabiyotlar tahlili umumlashgan ma'noda, ta'lim sifatiga inson ehtiyoji hamda jamiyat va davlat manfaatlarini qondiruvchi xususiyatlar yig'indisi sifatida qaralganligini ko'rsatadi. Yuqoridagi tavsiflardan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim sifati – ta'lim oluvchilar bilimining halqaro davlat standartlariga mosligi, turli darajalardagi ta'lim muassasasi sifat natijaviyligi, muassasaning muvaffaqiyatli faoliyati, shuningdek, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining innovatsion ta'lim xizmatlari sifatini ta'minlashdagi faoliyati natijasi hisoblanadi. Tadqiqotlar jarayonida «ta'lim sifati menejmenti»ni tavsiflashga bo'lgan turli yondashuvlar-ning mavjudligi qayd etildi, jumladan, Sh.Qurbonov, E.Seytxalilovlar ta'lim sifati boshqarish – muayyan ijtimoiy va pedagogik shart-sharoitlarning ta'siri oqibatida yuzaga kelgan va ko'p funksiyali vazifalarni o'z ichiga olgan tizim, deb ta'riflaydi. M.Potashnik, V.Panasyuk va boshqalar ta'lim sifati boshqarishni raqobatbardosh mutaxassisni shakllantirishga bo'lgan ijtimoiy buyurtmani qondirishga yo'naltirilgan ko'p o'lchovli moslashuvchan tizim, deb hisoblaydi.

Tahlil qilingan tadqiqotlar ta'lim sifati boshqaruvi yo'nalishida turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'rsatdi va ularni izohlab o'tish maqsadga muvofiq. Sifat menejmenti asoschisi V.Shuxart mahsulot sifatini har bir qismini nazorat qilishga asoslangan yondashuvni texnologik jarayonlarning bir me'yorda ishlashini ta'minlashga qaratilgan metodika bilan almashtirishni taklif qilgan. Uning sifatni doimiy yaxshilab borish zarurligi to'g'risidagi g'oyasi E.Deming tomonidan rivojlantirilib, ishlab chiqarish amaliyotiga PDCA (Plan-Do-Check-Act), ya'ni RBNH (RejalashtirishBajarish-Nazorat-Harakat) - «Shuxart-Deming metodi» yoki «Deming sikli» nomi bilan joriy etildi. Keyingi sifat menejmenti mutaxassisi A.Feygenbaum sifatni ishlab chiqish, qo'llab-quvvatlash va yaxshilash bosqichlaridan iborat bo'lgan Sifatning Yalpi Nazorati (Total Quality Control) tushunchasini kiritdi. Shuxart, Deming va Feygenbaumlardan tomonidan joriy etilgan mazkur sifat menejmenti metodi asosida sifatni yalpi boshqarish konsepsiyasi (Total Quality Management – TQM) ishlab chiqildi. Uning mohiyati boshqarishning ta'lim muassasasini muvaffaqiyatiga olib boruvchi tamoyillaridan foydalanishdan iborat.



TQM konsepsiyasida sifatni boshqarishga doir avvalgi konsepsiyalarga xos bo'lgan barcha ijobiy jihatlari o'z aksini topgan. U ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida ko'pgina zamonaviy menejment tizimlarining asosini tashkil qiladi. TQMning ko'pgina yondashuvlari ISO oilasiga kiruvchi xalqaro sifat standartlarining zamonaviy avlodi g'oyalari tarkibiga kiritilgan.

V.Nujdinning ta'kidlashicha, TQM tamoyilari va metodlarini ta'lim xizmatlari sohasiga moslashtirish natijasida sifatni rejalashtirish, nazorat qilish va yaxshilash faoliyat turlarini ajratib olish imkoniyati paydo bo'lgan. Dastlab iqtisodiyotning sanoat sektori uchun ishlab chiqilgan TQM tamoyillari xorijiy ta'lim muassasalarini boshqarish amaliyotida keng foydalanilgan, AQSh ta'lim tizimida 1985-yildan boshlab TQM qo'llanila boshlangan va 1996 yilga kelib sifatni takomillashtirish tamoyillaridan 252 ta'lim muassasalarida foydalanila boshlangan.

Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o'quv-biluv jarayonlarini sifatli tarzda boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirishni, demokratik, insonparvarlik tamoyillarga asoslangan ta'lim boshqaruvini shakllantirish zarurligini talab qilmoqda. Ayniqsa, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sohasining sifat bosqichida mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ta'lim sifati va samaradorligini doimiy tarzda oshirib borish zarurati maktab o'qituvchilari kasbiy-pedagogik kopmetensiyalarini yanada rivojlantirish, ulardagi ta'lim sifatini boshqarishni zamon talablari darajasida tashkil etishni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmanova J.N., Toshtemirova S.A. (2020). Innovatsion texnologiyalar va axborot madaniyatini shakllantirish pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri. Science and Education. 1(7). 436-442
2. Mustafaqulov A.A. Pedagogik kadrlarni yalpi sifat boshqaruvi sharoitida tayyorlash tizimi / Ped. f. f. dok.diss. -T.: 2019.
3. Toshtemirova S. A. (2020). Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // Uzlüksiz ta'lim. № 1 (86). - S.5.
4. Селезнева Н.А. Качество высшего образования как объект системного исследования: лекция-доклад. - М.: 2001. - 79 с.



O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARDA GENDER MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH

D.I.ALIBEKOV,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi
O'zPFITI izlanuvchisi

Ushbu maqolada o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'yinlar vositasida gender madaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda o'qituvchilarning shaxslararo munosabatlari, o'smir yoshdagi o'quvchilarning jinsiy barqarorlik va barqaror jamiyat tushunchalarini o'rganishi, tushunishi kabi qator pedagogik jarayonlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: gender madaniyat, pedagogik jarayon, o'smirlilik, intellektual rivojlanish, kommunikativ qiyinchilik.

В данной статье рассматривается ряд педагогических процессов, таких как межличностные отношения учителей, усвоение и понимание понятий сексуальной устойчивости и стабильного общества учащихся-подростков в педагогическом процессе, направленном на развитие гендерной культуры посредством игр. говорится

Ключевые слова: гендерная культура, педагогический процесс, подростковый возраст, интеллектуальное развитие, коммуникативные трудности.

In this article, a number of pedagogical processes, such as interpersonal relations of teachers, learning and understanding of the concepts of sexual stability and stable society of teenage students in the pedagogical process aimed at developing gender culture through games, are discussed in this article. is spoken

Key words: gender culture, pedagogical process, adolescence, intellectual development, communicative difficulty

O'smiring o'z-o'zini anglashlariga sinfdoshlari, yaqin do'stlari ko'maklashadi. U o'z xatti-harakatlarini ularniki bilan qiyoslaydi. Kattalar orasidan o'ziga yaqin xamfikrlarni izlab, ularga ergasha boshlaydi. O'smiring o'zini bilishi unda kognitiv xarakterdagi gender madaniyatning shakllanishiga asos bo'ladi.

Yangi shakllangan o'smirlilik yoshining tanqidiy bosqichi o'zini kattalarday his qilish va o'z-o'zini anglashning yaqqol ifodalanishida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda o'smirlar atrofdagilar bilan munosabat o'matib, o'z rivojlanish yo'llarini tanlaydilar. O'smir yoshdagilar kattalarga taqlid qilib, ularning xulq-atvorlarini qabul qila boshlaydilar. Aksariyat hollarda alohida odatlar, ya'ni chekish, alkogollarni iste'mol qilish, nazoratdan qochish kabi xatti-harakatlari bilan kattalarga taqlid qiladilar.

O'smir yoshdagilar o'z-o'zlarini o'zgartirib, kattalardek tutishga intiladilar. Shuning uchun ham ular kuchli tarzda o'z-o'zlarini shakllantirish, mustaqil bilim



olish va o'z-o'zlarini anglashga intiladilar. Bu ularning tashqi tomondan kattalarga o'xshashlari, kiyinish, pardoz-andoz anjomlarini yoqtirishlarida o'z ifodasini topadi [1]. 14 yoshli o'smir qizlar o'zlari va o'g'il bolalar orasida ko'proq mavqega ega bo'lishni xohlaydilar. Jismoniy jihatdan zaif bo'lgan o'g'il bolalar o'zlarini to'laqonli shakllangan deb hisoblamaydilar. Ularda o'zlariga nisbatan salbiy munosabat, tobelik hissi kuchli bo'ladi. Rivojlanishdan orqada qolayotgan qizlarda esa, ruxiy kechinmalar boshqacha tarzda namoyon bo'ladi. Yaxshi rivojlanayotgan tengdoshlariga nisbatan ularda xavotir xissi kuchli bo'ladi. Bunday xavotirlik ularning jismoniy rivojlanishi bilan bog'liq tarzda vujudga keladi. Shunday rivojlanishga ega bo'lgan o'g'il bolalar esa, qiyinchiliklarga duch kelmaydilar.

O'smir yoshdagi o'g'il bolalarda atrofdagilarni tanqid qilish qizlarga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Ular ko'proq qiz bolalarni tanqid qiladilar. O'smir yoshdagi o'g'il bolalarda yosh erkaklik, qizlarda esa, ayollik belgilari kuchayib boradi. O'smirlarda vujudga kelgan o'z-o'zini anglash va baholash aksariyat hollarda o'zaro muvofiq kelmaydi. И.С.Клецина [3] ning fikricha, o'smirlar o'z imkoniyatlarini juda yuqori yoki juda past qo'yadilar. O'z imkoniyatlarini yuqori qo'yadigan o'smirlar allaqachon barcha ijobiy sifatlar va layoqatlarni egallaganman deb hisoblaydilar. O'z imkoniyatlarini past deb hisoblaydiganlar esa, zarur layoqatlar va sifatlar o'zlarida mavjud emas deb o'ylaydilar. O'z-o'zini baholash shaxsning intellektual rivojlanish darajasi bilan bog'liq. O'smirlar o'z oldilariga aniq maqsadlar qo'yib, unga erishish uchun harakat qilganlarida, o'z imkoniyatlarini munosib baholash ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Ilk o'smirlik davrida bolalar o'zlariga nisbatan obrazli munosabatda bo'ladilar, o'zlarini shunday qabul qiladilar. Ko'pchilik o'g'il bolalar va qizlar o'zlariga nisbatan salbiy munosabatda bo'lib, imkoniyatlarini past baholaydilar. Bunday bolalar o'zlarini tan olmaydilar, imkoniyatlarini yetarlicha baholamaydilar. Bir guruh o'smirlar esa o'zlarida salbiy sifatlar bilan bir qatorda ijobiy sifatlar ham mavjud deb hisoblaydilar. Ularning o'zlariga nisbatan bergan baholarida salbiy xulq-atvor ko'rinishlariga egaliklari yaqqol namoyon bo'ladi. Aksariyat o'smirlar o'zlarida kamchiliklar mavjudligini tan oladilar, ayniqsa kichik o'smir yoshidagilarning bergan tavsiflarida salbiy xissiy fon ustunlik qiladi.

Bunday vaziyatlarda o'smirlarda o'z-o'zini baholashga bo'lgan ehtiyoj kuchayib, o'zlarini munosib baholay olmasliklaridan ranjishlari kuzatiladi. O'smirlik davrining ikkinchi bosqichida vaziyat bilan bog'liq holda bolaning o'ziga nisbatan salbiy bahosi namoyon bo'ladi. Bunda ular atrofdagilar ayniqsa, tengdoshlarining bergan baholaridan o'zlari uchun muhim bo'lgan jihatlarni izlaydilar. Shu bilan bir qatorda o'smirlarning o'ziga nisbatan salbiy bahosi ularning o'z-o'zini hurmat qilish, o'ziga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lish ehtiyojini kuchaytiradi.



O'smirlikning uchinchi bosqichida (14-15 yosh) o'z-o'zini tezkor baholash, o'ziga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ular o'zlarining shaxsiy xususiyatlarini atrofdegilamiki bilan qiyoslaydilar. Muayyan me'yorlarga asoslangan xulq-atvor shakllari shaxsiyatining ideal ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. O'smirlarda shakllangan tasavvurlar o'z-o'zini baholash mezonlari asosiy faoliyat jarayonida o'zlashtiriladi. O'z-o'zini bilishning asosiy shakli tengdoshlari va atrofdegilar bilan o'zini qiyoslash natijasida hosil bo'ladi. Muloqot jarayonida turli-tuman kishilar bilan o'zaro munosabat shakllari vujudga keladi. O'z-o'zini baholash o'smirlarning kattalar va tengdoshlari bilan muloqotini boshqarish imkonini beradi. Ota-onalarning ta'siri pasayib, tengdoshlariniki kuchaya boshlaydi. O'smir yoshdagi o'g'il bolalar o'z tengdoshlari bo'lgan qizlar bilan ko'proq muloqotga kirisha boshlaydilar. Bu esa ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlaydi. O'z-o'zini anglashning muhim tarkibiy qismi o'z-o'zini hurmat qilishdir.

O'z-o'zini hurmat qilish ma'qullash yoki ma'qullamaslikning asosiy shakli bo'lib, o'smir o'zini qaysi vaziyatlarda layoqatli, ahamiyatli, ulguruvchi va munosib deb hisoblashini ko'rsatadi. 12-14 yoshli qizlarda o'z-o'zini hurmat qilish hissi pasayib boradi.

O'z-o'zini anglashning muhim belgilaridan yana biri yolg'izlikni cheklash va ixtiyoriy tarzda yolg'iz qolishga intilishdir. O'smirlar bu hodisani etarlicha baholay olmaganliklari uchun ham yolg'iz qolishni atrofda biror kimsaning bo'lmasligi sifatida baholaydilar. Natijada o'smirlarda ichki bo'shliq va uni to'ldirishga bo'lgan intilish kayfiyati vujudga keladi. Bu esa, vujudga kelgan bo'shliqni to'ldirish maqsadida sokinlik, osoyishtalikka intilishni rag'batlantiradi.

Yosh o'tgan sari yakkalik va yolg'iz qolishga intilish kayfiyati ham kuchayib boradi. O'smir yoshdagi qizlar yolg'iz qolishning mohiyatini anglab etsalar-da ko'proq yakka qolishga intiladilar. Qizlar yolg'izlikdan ko'proq ranjiydilar, uning zararini tushunib etadilar, shunga qaramay, ba'zi hollarda yolg'iz qolishni xohlaydilar. O'g'il bolalarda bu osonroq kechadi. O'smir yoshdagi o'g'il bolalar yolg'izlikdan qiynalsalar-da, bu haqida hech kimga sir-boy bermaydilar. Chunki ularning fikricha, bu erkakning ishi emas[4].

Yolg'izlik – erkin tanlov yoki kommunikativ qiyinchiliklar natijasidir. Uyatchanlik haqida ham shunday fikrni bildirish mumkin.

O'smir yoshdagi qizlar o'zlarining uyatchanliklaridan tez-tez shikoyat qiladilar. O'g'il bolalarda esa bu erkaklik sifatlarining etarlicha shakllanmaganligidan dalolat beradi. Ushbu masalada o'g'il bolalar bilan qiz bolalar orasida kuzatiladigan farq guruh a'zolari orasida kuzatiladigan farqlardan ko'ra ko'proq namoyon bo'ladi. O'smirlar uchun hissiy beqarorlik xosdir. Shunga ko'ra ularning kayfiyati ham tez-



tez o'zgarib turadi. Bu ularning xulq-atvorida o'z ifodasini topib, o'z kafiyatlari o'zgariganligini tez-tez namoyish qiladilar:

- maqsadga intiluvchanlik va qat'iyatlik impulsivlik bilan uyg'unlashadi;
- muayyan ishni bajarish xohish-istagining yo'qolganligi;
- o'z-o'ziga ishonchning ortishi va ishonchsizlik bilan tezgina o'rin almashinishi;
- xulq-atvor ko'rinishlarining uyatchanlik bilan uyg'unlashuvi;
- romantikaga xos kayfiyatning ehtiyotkorlik, uyatchanlik bilan tez-tez almashinuvi;
- ga kechishi;
- muloqotga bo'lgan ehtiyojning yolg'izlikni qo'msash ehtiyoji bilan uyg'unlashuvi.

O'smirlarning o'z-o'zini sevishiga atrofdagilardan kimdir zarar etkazmoqchi bo'lsa affektiv xarakterdagi keskin norozilik kayfiyati vujudga keladi. Emosional qat'iylik o'g'il bolalarda 11-13 yoshda, qiz bolalarda esa 13-15 yoshda vujudga keladi.

O'smirlarda ko'plab o'zgarishlarga nisbatan xavotirlik vujudga keladi. O'smiring ichki meni bilan tashqi xulq-atvor ko'rinishlari uyg'unlashganda o'z-o'zini nazorat qilish shakllanadi. O'smirlardagi o'z-o'zini tanqidning eng zaif ko'rinishi irodaning kuchsizligi bilan izohlanadi. Bunday jarayonlar o'smir yoshidagi o'g'il va qiz bolalarda mazmuni va muddatiga ko'ra turlicha kechadi. Birinchidan, o'smirlarning gender xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kognitiv va emosional rivojlanishi muvofiqlashadi.

O'smir yoshdagi qizlar o'z kechinmalarini yaxshiroq ifodalab, ko'proq so'z zaxirasiga ega bo'lganliklari uchun ham o'z-o'zini anglashning o'ta nozik va murakkab jihatlarining shakllanishi oson kechadi. O'smir yoshdagi o'g'il bolalarda esa emosional jihatlar kuchli bo'lib, ular bu haqida ko'p gapirmaydilar. Ular o'z his-tuyg'ularini shartli ravishda ba'zan esa musiqa yordamida ifodalaydilar. Biroq so'zlab berishni xoxlamaydilar. Shunga ko'ra pedagogik jarayonda ayniqsa, o'smirlarda gender madaniyatni shakllantirish jarayonida o'g'il va qiz bolalarning jinsiy xususiyatlarini alohida hisobga olish talab qilinadi.

O'qituvchining asosiy vazifalaridan biri o'yinlar vositasida o'smir yoshdagi o'quvchilarda gender madaniyatni rivojlantirishdan iboratdir. Chunki o'qituvchi pedagogik faoliyatining asosini yosh avlod ma'naviyatini shakllantirish tashkil etadi. Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, tarbiyaning usullari, nuqtai nazarlar nafaqat jamiyat hayotining o'ziga xos talablari bilan bog'liq holda tarkib topadi, balki xalqning an'analari, davlatning siyosiy qurilishi, o'qituvchining o'ziga xos xarakteri, nuqtai nazarlari va xalqning turmush tarzi bilan ham bevosita bog'liqdir.



Jumladan, ta'lim jarayoni subyektlarining oilaviy hayoti, atrof-muhit va jamiyat a'zolariga bo'lgan munosabati hamda ular o'zlashtirgan qadriyatlar bunga misol bo'la oladi. Shuning uchun ham jamiyat a'zolari orasida gender madaniyatga nisbatan xaqqoniy munosabatni shakllantirish tobora dolzarblashmoqda. Chunonchi, ustoz-shogird munosabatlari, ota-onaga hurmat, qarama-qarshi jins vakillarini qadrlash, Vatanni sevish, oilani muqaddas deb bilish, ajdodlarimizga nisbatan hurmat va e'tibor shular jumlasidan.

Buning uchun o'qituvchi muayyan nuqtai nazarlarning yaxlitligiga erishishi, o'yinlar vositasida o'smir yoshdagi o'quvchilarda gender madaniyatni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari yaxshi bilishi lozim. Gender madaniyat elementlari dastlab ota-onalar bilan farzandlar, o'qituvchi va o'quvchilar orasida vujudga keladi. O'smir yoshdagi o'quvchilarda o'yinlar vositasida gender madaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda o'qituvchilar shaxslararo munosabatlarga asoslanshlari lozim. Umuman olganda, o'quvchilarning o'smir yoshdagi yoshlarida gender madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlar, ularning jinsiy barqarorlik va barqaror jamiyat tushunchalarini o'rganish, tushunish va qo'llab-quvvatlashlariga qaratilgan bo'lib, bu jarayonlar o'quvchilarning jinsiy identifikatsiyani tushunish va qo'llab-quvvatlashlari uchun katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Карпара Дж., Сервон Д. Психология личности. - М.: Питер, 2003. 640 с.
2. Кирилина А.В. Исследование гендера в лингвистических научных дисциплинах / А.В. Кирилина // Гендерное образование в системе высшей школы: состояние и перспективы: мат-лы междунар. науч.-практ. конф. - Иваново, 2003. - С. 132-136.
3. Клецина И. С. Развитие гендерных исследований в психологии // Общественные науки и современность. - 2002. - № 3. - С. 181-192.
4. Кудинов С.И. Полоролевые аспекты любознательности подростков // Психологический журнал. - 1998. - Т. 19. - № 1. - С. 26-36.



O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARDA O‘Z-O‘ZINI ADEKVAT BAHOLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA OILANING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

A.A.HAMIDOV,
O‘zPFITI mustaqil izlanuvchisi

Ushbu maqolada o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, oilada o‘smirlarda o‘z-o‘zini obyektiv baholashga o‘rgatish majmuaviy, tabiiy tavsif kasb etishi, bu jarayonda o‘smir yoshdagi o‘quvchilarga jinslarning o‘zaro munosabatlari va kelgusi hayotdagi ijtimoiy munosabatlardan saboq berishi haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: o‘smir yoshdagi o‘quvchi, oila, oilaviy munosabatlar, o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini anglash, ijtimoiylashuv, shaxsiy sifatlar, pedagogik omillar, pedagogik hamkorlik, kolloborativ tizim.

В данной статье раскрываются педагогические возможности семьи в развитии навыков адекватной самооценки у школьников подросткового возраста. Также считается, что обучение подростков объективной самооценке в семье приобретает сложный, закономерный характер и в этом процессе обучает подростков отношениям полов и социальным отношениям в будущей жизни.

Ключевые слова: школьник-подросток, семья, семейные отношения, самооценка, самосознание, социализация, личностные качества, педагогические факторы, педагогическое сотрудничество, система сотрудничества.

This article reveals the pedagogical possibilities of the family in the development of adequate self-assessment skills in adolescent students. It is also thought that teaching adolescents to objective self-evaluation in the family acquires a complex, natural description, and in this process teaches adolescent students about gender relations and social relations in the future life.

Key words: adolescent student, family, family relations, self-esteem, self-awareness, socialization, personal qualities, pedagogical factors, pedagogical cooperation, collaborative system.

Uzluksiz ta‘lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari bir muhim va ahamiyatli mezon bilan birlashtirilgan – bu sifattir, u pedagoglarning kasbiy kompetentligi darajasi va ota-onalarning pedagogik madaniyatiga bevosita bog‘liq. O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalari rivojlanishining yuqori darajasiga, ota-onalar talablari va o‘smirlar qiziqishlarini to‘la qondirishga, o‘smir shaxsi uchun yagona ta‘lim makonini yaratishga faqat



umumiy o'rtta ta'lim maktablari va oila hamkorligining yangi kolloborativ tizimini ishlab chiqish sharti bilan erishish mumkin.

O'smir yoshdagi o'quvchilarni me'riy rivojlanishini ta'minlash hamda ularda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda maktab va oilaning o'zaro ta'siri muammosi oxirgi vaqtda eng dolzarb muammolar qatoriga kirgan. O'zgargan zamonaviy oila, moliyaviy va ijtimoiy tabaqalanish, eng yangi axborot texnologiyalarning ko'pligi, ta'lim olishning keng imkoniyatlari o'zaro ta'sirining yangi shakllarini izlab topish zaruriyatini vujudga keltiradi. Ota-onalar maktab – o'smir tarbiyasida faqat yordamchi ekanligini, shuning uchun ular butun mas'uliyatni pedagoglar zimmasiga yuklatishlari va ta'lim-tarbiya jarayonidan chetlashishlari mumkin emasligini unutmashliklari kerak.

«Oila» atamasi o'zining uzoq mavjudlik tarixiga ko'ra o'zgarib kelgan, bu insoniyatning rivojlanishi, jinslar o'rtasidagi munosabatlarni jamiyat boshqaruvi shaklini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan. Bu shakllarning ba'zilar alohida qabilalarga xos bo'lgan bo'lsa, boshqalari esa keng tarqalishga egadir. Ularning umumiyliigi – jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy aniq rivojlanish darajasiga bo'ysunishidir.

Sharq va G'arbda keng tanilib «Shayx ur-ra'is» nomiga sazovor bo'lgan Abu Ali Ibn Sino[1]ning (980-1037) «Tib qonunlari» va «Tadbiri manzil» asarlarida oila, ota-ona hamda bola munosabatlariga oid pedagogik va psixologik qarashlari bayon etilgan. Uning oilani shaxslararo munosabatlar manbai, o'zaro ta'sir o'tkazishning qulay ijtimoiy muhiti, milliy an'analar ta'sirchanligi, taqlid, yuqish fenomenlari negizi ekanligi to'g'risidagi mulohazalari to'hozirgi davrgacha o'z kuchini yo'qotgani yo'q. U shaxs tarbiyasida ota-onalarning umuminsoniylik tamoyillariga amal qilishlarini ta'kidlaydi. Tarbiyachi, ota-onalarga uni qattiq tana jazosidan farqli o'laroq, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma'qulligini uqtirgan. Ibn Sino oila boshlig'i oldiga katta talablar qo'yadi, farzandlarni bir-biriga nisbatan mehr-oqibat tuyg'usi orqali tarbiyalash, iliq ruhiy muhitni yaratishni uqtiradi. Oiladagi noxush tarbiya faqat shu oilagagina salbiy ta'sir qilib qolmasdan, balki boshqa oilalarga ham xuddi shunday ta'sir qilishini oqilona tarbiya oila baxtining muhim asosi ekanligini ta'kidlaydi. Ibn Sino bola yomon xarakter xislatning egallashini kutmasdan turib, uni ijobiy fazilatlar bilan tanishtirib, bolaga yaxshi odobni singdirish kerak, – deb yozadi. Uning ta'kidlashicha, sharoit (muhit) qanday bo'lishidan qat'iy nazar, farzand kamoloti ota-onalarning asosiy vazifasidir, ular davlat boshlig'imi yoki jamiyatning oddiy bir a'zosimi, bari bir tarbiya masalasida ular uchun bir xil talab qo'yilishi kerak, chunki bu ijtimoiy ehtiyojdir [1].

Ma'rifatparvar olim Abdurauf Fitrat ham bola tarbiyasida oila eng asosiy rol o'ynashiga e'tibor qaratadi va quyidagi fikmi keltiradi: «Bolalar suvga o'xshaydilar. Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi, bolalar ham



qanday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning ham shunday odat va axloqini qabul qiladilar»[2; 55-b].

Ushbu keltirilgan fikrlar va Islom dinidagi boshqa ko'pgina dalillar oilada o'smir bolalar tarbiyasiga bag'ishlangan bo'lib, bu oilaning eng zarur majburiyatlardan biri ekanligiga shak-shubha qoldirmaydi.

Bundan sharq mutafakkirlari ham pedagogik g'oyalarni rivojlanishida ahamiyatli ta'sir ko'rsatishganligi ko'rinib turibdi. Ularni oilaning roli, shaxs tarbiyasida ma'naviyatni shakllantirish hamda tarbiya haqidagi g'oyalari va shu kabi jihatlar keyinchalik G'arbiy Yevropa tomonidan qabul qilingan.

Barcha oilalar o'z bolalarining baxt-saodatidan manfaatdor va ularning yaxshi va mamnuniyat bilan o'qishlarini istaydilar. Shuning uchun oila a'zolari uning yutuqlaridan xabardor bo'lishni xohlaydilar. Pedagoglar ota-onalar bilan farzandi haqidagi tasavvurlarini chuqurlashtirish va imkon qadar samarali ishlash uchun o'smirning uydagi va maktabdagi holati, uning kuchli va zaif tomonlarini, tashvish tug'diradigan barcha jihatlarini mamnuniyat bilan muhokama qilishlari kerak.

Ishlaydigan ota-onalarda ko'pincha bo'sh vaqt juda kam bo'ladi. Shuning uchun pedagoglar oilalar bilan suhbatlashishi mumkin bo'lgan tabiiy norasmiy vaziyatlar maktab va oila o'rtasidagi o'zaro aloqalarni rivojlantirish uchun juda muhim.

Yetakchi psixologlarning e'tirof etishlaricha, ko'pgina pedagoglar (sinf rahbarlari) ota-onalar bilan aloqa qilish uchun faqatgina ota-onalar majlislariga kelgan vaqtdan foydalanishga harakat qiladilar. Bu vaqtda ular ota-onalarga o'smiring muvaffaqiyatlari to'g'risida xabar berishlari, o'tkazilishi rejalashtirilgan majlis va boshqa narsalar haqida ma'lumot berishlari mumkin.

Yana shuni ham e'tirof etish kerakki, pedagoglar va o'smir yoshdagi o'quvchilar o'rtasida o'zaro hurmat bo'lishi kerak. Maktabdagi sinf jamoasi a'zolari o'rtasida hurmat zarur tarkibiy element hisoblanadi. Pedagoglar ular o'smirlardan kutadigan o'zaro bir-birini tushunish, hurmat qilish va bir-biriga g'amxo'rlik ko'rsatishda namuna bo'ladilar. O'smirlar boshqalar bilan ijodiy o'zaro munosabatlarning mustahkam poydevorini qo'yadi.

Pedagoglar shuni tushunib etishlari kerakki, o'smir yoshdagi o'quvchilar o'zlariga bildirilgan samimiyatni his etadilar va bu ular uchun juda muhim o'rin tutadi. O'smirlarni ular bajargan ish natijalari uchun maqtash samimiyatni talab etadi, o'zaro ta'sir tabiiy holda va majbur etmaslik tarzida bo'lishi lozim.

O'z ustida ishlaydigan va mahoratini uzluksiz oshirib boradigan pedagog o'smirlarning ota-onalari bilan ishlashda telegram yoki boshqa ijtimoiy muloqot vositalaridan foydalanishi ham mumkin. Xususan, ota-onalarning vaqti juda cheklanganda bu o'zaro aloqaning juda yaxshi usuli hisoblanadi. Agar o'smir



shaxsida qandaydir shikoyat yoki muammolar bo'lsa, telegram vositasidagi muloqot doimiy aloqani ta'minlaydi hamda ota-onalar yoki pedagoglar jamoasini u yoki bu o'zgarishlardan xabardor qiladi. Bu usul ayniqsa, ota-onalar uchun qo'l keladi. Chunki ular o'z fikrlarini yozma shaklda oson ifodalaydilar.

O'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda maktab va oila hamkorligining eng yaxshi pozitsiyasi – uch asosiy shartga javob berishi kerak: adekvatlik, qayishqoqlik va bashorat qilishlik.

Katta yoshli kishi pozitsiyasining adekvatligi o'z farzandi yoki tarbiyalanuvchisining fazilatlarini real aniqlikda baholash, uning individualligini ko'ra olish, tushunish va hurmat qila bilishga asoslanadi.

Pedagog yoki ota-ona holatining ko'nishga moyilligi (qayishqoqlik) muloqot tarzi, o'smiring ulg'ayishiga qarab hamda oila turmushi sharoitlari turli o'zgarishlariga bog'liq ravishda unga ta'sir etish usullarini o'zgartirishga tayyorlik va qodirlik sifatida ko'rib chiqiladi.

Pozitsiyaning bashorat qilishligi o'smiring o'z-o'zini baholashga intilishi va ertangi kun vazifalariga mo'ljal olishida ifodalanadi. Bu katta yoshli kishining ortda qoldiruvchi tashabbusi bo'lib, o'smiring kamoloti, istiqbollarini hisobga olgan holda unga umumiy yondashuvni o'zgartirishga qaratilgan.

Tarbiyaning mazmun modellarini hisobga olgan holda gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda maktab jamoasi va oilalar oldida jiddiy vazifa turadi: o'smirlarda o'z-o'zini baholash qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha yangi tarbiyaviy strategiya asosida ko'p qirrali ish olib borish talab qilinadi.

Oilada bolalarda o'z-o'zini baholash qobiliyatini rivojlantirish g'oyalari, to'g'ridan-to'g'ri talqin etilmagan bo'lsa-da, A.Avloniy, Behbudiy [3] va boshqa ma'rifatparvarlar asarlarida rivoj topgan. Ularning kitoblarida o'z-o'zini anglash tushunchasining dastlabki asoslari: ota-onaga hurmat, oilada axloqiy me'yorlarga rioya qilish ochib berilgan.

Oilada o'smirlarda o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bog'liq qiyinchiliklar shu sabab bilan yuzaga chiqadiki, O.Musurmonova[4]ning fikricha, «ota-onalar o'z kamchilik va xatolarini to'g'rilamasdan, o'z nuqsonlarini oqlaydilar, bolalarida esa bu kamchiliklarni ko'rishni istamaydilar». Bolaga yaxshi tarbiya berish uchun avvalo o'zing tarbiya qilayotgan farzandingning ko'z oldida yaxshi yashashing kerak [4; 112-b.].

Qayd etishimiz joizki, aynan oila shaxs kamoliga ta'sir etishga qodir hamda barcha hayotiy faoliyat uchun asos solishi kerak. Ota-onada o'smirlik yosh davrining o'ziga xosligi haqidagi bilim va ko'nikmaning yo'qligi o'smir shaxsining ma'nan va ruhan kamol topishiga ongli ta'sir ko'rsata olmaydi, ularning g'amxo'r-



liklari esa ko'pincha tarbiyaning faqat moddiy tomonini qamrab oladi, xolos. Shu bois, nafaqat o'smirlar, balki ota-onalarda ham o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini obyektiv baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda o'qituvchining yuksak pedagogik mahorati alohida o'rin tutadi.

Tahlil natijalarini umumlashtirib, shunday xulosa qilish mumkinki, hozirgi aksariyat tadqiqotchilarning umumiy fikricha, o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda oila – ta'lim va jamiyat rivojining yangi sharoitlarida yaxlit pedagogik jarayonning etakchisi sifatida gavdalanadi. Oilada o'smirlarda o'z-o'zini obyektiv baholashga o'rgatish majmuaviy, tabiiy tavsif kasb etadi. Shuningdek, o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini baholash ko'nikmasini tarkib toptirishda oila bilan hamkorlikda:

– o'smirlar muloqoti rivojini barcha kengayuvchi sohalar qarindoshlik, o'quv, mehnat, dam olish va boshqa munosabatlarga yo'naltiriladi;

– o'smir yoshdagi o'quvchilarga jinslarning o'zaro munosabatlari va kelgusi hayotdagi ijtimoiy munosabatlardan saboq beradi;

– o'smir yoshdagi o'quvchilarga o'quv va mehnat faoliyati, jamiyat oldidagi javobgarlik, jamoatchilik va o'zaro yordam berish talablariga munosabatni shakllantiradi;

– jamiyatning dunyoviy, mafkuraviy, axloqiy, huquqiy qadriyatlariga ongli munosabat elementlarini tarbiyalaydi;

– o'smir yoshdagi o'quvchining umumiy fuqarolik, ta'lim-tarbiya va mehnat majburiyatlarini bajarishda mas'uliyatli munosabatni amalga oshiradi;

– pedagog va ota-ona hamkorligi natijasida o'smirda xarakter, ijtimoiy mazmun, o'zini baholash va tanqid qilish darajasi shakllanadi, bo'sh vaqtni o'tkazish strukturasi va mazmuni modellashtiriladi.

Xulosa qilib aytganda, o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari keng bo'lib, bugungi kunda ushbu kolloborativ hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zunnunov A. Oilada bola shaxsini shakllantirish. -T.: Fan, 2006. -112 b.
2. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. -T.: Sharq, 2000. - 237 b.
3. Pedagogika: ensiklopediya. I jild / tuzuvchilar: jamoa. - Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2015, 320-b.
4. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur: O'quv qo'llanma / S.Ochil umumiy tahriri ostida. - Toshkent: O'qituvchi, 1999. - 200 b.



KASBIY-PEDAGOGIK TA'LIM TIZIMI UZLUKSIZLIGI VA UZVIYLIGINI TA'MINLASHDA TA'LIM METODLARINING O'RNI

O.I.QARSHIYEV,

Oqdaryo tumani 1-son kasb hunar maktabi direktori

SH.M.QARAXONOVA,

1-son kasb hunar maktabi mahsus fan o'qituvchisi

Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash hozirgi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Mazkur maqola xam bevosita kasbiy ta'lim berish jarayonida o'ziga xos innovatsion yondashuvni tashkil etish masalalariga qaratilgan.

Kalit so'zlar: *kasb-hunar ta'limi, ta'lim mazmuni, ishlab chiqarish, ta'limning innovatsion metodlari, kasbiy-pedagogik ta'lim tizimi, o'quvchilar, kasb-hunarga yo'naltirish sohalari.*

Fundamentally reforming the education system, raising it to the level of modern requirements, establishing a new system of national personnel training, raising a competent, potential generation for the future has become a priority of state policy. This article is directly focused on the issues of organizing a unique innovative approach in the process of vocational education.

Key words: *vocational education, educational content, production, innovative methods of education, vocational-pedagogical education system, students, areas of vocational guidance.*

Uzluksiz ta'limning barcha shakllari kabi kasb-hunar ta'limi tizimidagi keng qamrovli tarkibiy islohotlarni amalga oshirish ta'lim jarayonida turli interfaol metodlar va ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan belgilanadi. Zero, hozirgi kunda ta'lim metodlari o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Mos ravishda tanlab olinadigan metodlarsiz o'qitish jarayoni maqsad va vazifalarini hal etishga yoki ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirishga erishib bo'lmaydi.

Kasbiy ta'lim tizimida o'quv fanlarini o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Kasbiy-pedagogik ta'lim jarayonida interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish, mashg'ulotlarni rang-barang, qiziqarli tashkil etish bilan birga o'quvchilarning fikrlash doirasini, tafakkurini kengaytiradi, o'quv materialini chuqur o'zlashtirish imkonini yaratadi.

Kasbiy-pedagogik ta'lim tizimida o'quv materiallarini uzatish va idrok etish manbalariga qarab ta'lim metodlarini quyidagicha ajratib qarab chiqamiz:



- a) og‘zaki metodlar;
- b) ko‘rgazmali metodlar;
- v) amaliy metodlar.

Ta‘limning og‘zaki metodlari qatoriga hikoya, suhbat, ma‘ruza kabilar kiradi. Hikoya metodini qo‘llash davomida ma‘lumotlarni bayon qilish, diqqatni faollashtirish, eslab qolishni tezlashtirish, taqqoslash va qiyoslashning mantiqiy usullaridan foydalaniladi. Ularni qo‘llash samaradorligini ta‘minlash uchun dars mavzusi, ko‘rgazma vositalar va misollar puxta tanlanishi, bayonni zarur hissiy darajada olib borish talab etiladi.

Ma‘ruza mashg‘ulotlarini samarali tashkil qilish uchun ma‘ruza rejasi puxta ishlab chiqilishi, rejada ko‘zda tutilgan har bir bandni tegishli mazmun va xulosalar asosida bayon qilish, biridan ikkinchisiga o‘tishdagi uzviy bog‘liqlik va mantiqiylikni ta‘minlashning aniq tizimi belgilangan bo‘lishi kerak.

Ta‘lim oluvchilarning ilgari o‘zlashtirgan bilimlarini qayta esga olishi, xulosalar chiqarishi, ma‘lum hodisaning amaldagi tadbiqiga oid yangi misollar topishiga oid usullar suhbat metodi samaradorligini oshirishga xizmat qilib, bunday usullar o‘rganilgan tushunchalarni takrorlash va xotirani faollashtirish bilan bog‘liq mashg‘ulotlar uchun tavsiya etiladi.

Og‘zaki metodlar qo‘llash jarayonida ko‘rgazmali qurollardan foydalanish mumkin. Masalan, o‘qituvchi tikuv mashinasining tuzilishini va ishlash tartibini tushuntirayotganda kinematik sxemadan foydalanishi mumkin. Lekin isbot mantiqini kinematik sxema belgilamaydi, balki u tushunchani o‘zlashtirishga yordam beradi, xolos.

Kasbiy-pedagogik ta‘lim tizimi uzviyligini va uzluksizligini ta‘minlashda og‘zaki metodlardan foydalanishning muvaffaqiyatli jihatlari o‘quvchilarning yangi bilimlarni eslab qolishlari va takror aytib bera olishni osonlashtirishda kўrinadi. Shuning bilan birga, og‘zaki metodlardan yangi materiallarni o‘rganish paytida foydalaniladi va egallangan yangi bilimlar kelgusi mavzularni ızlashtirishga zamin yaratadi.

Ta‘limning ko‘rgazmali metodlari o‘zida muhim didaktik talabni aks ettiruvchi usullar majmuasini ifodalaydi. Hozirgi davrda zamonaviy didaktika ko‘rgazmali vositalarni qo‘llashning eng yuqori ta‘limiy, tarbiyaviy hamda shaxs sifatlarini rivojlantiruvchi variantlarini qo‘llashni taqozo etmoqda.

Ta‘limning ko‘rgazmali vositalari bilimlarni o‘rganish va o‘zlashtirish xarakterini belgilaydi. Masalan, tikuv mashinasi detallari o‘rganilayotganda ularning namunalari ko‘rsatilib, mexanizmlar ishlashining virtual model orqali yoki tikuv mashinasida bajariladigan texnologik jarayonlarning videotasviri namoyish qilinishi orqali tushuntirish mumkin.



Ko'rgazmali ta'lim metodining o'ziga xos xususiyati uning hamma vaqt ma'lum darajadagi og'zaki metodlar bilan omuxta shaklda berilishidir. Og'zaki bayon va ko'rgazmalilikning birgalikda olib borilishiga bo'lgan ehtiyoj obyektiv borliqni bilishning dialektik yo'li ijodiy mushohada, abstrakt tafakkur hamda amaliyotning birligini taqozo etishdan kelib chiqadi.

L.V.Zankov tomonidan og'zaki nutqning ko'rgazmalilik bilan bog'liq ravishda amalga oshirilishining quyidagi shakllari o'rganilgan:

– o'qituvchi so'z vositasida ta'lim oluvchilarning obyektini kuzatish jarayonini boshqaradi;

– o'qituvchi ta'lim oluvchilarning obyektini kuzatish natijalari hamda ular ega bo'lgan bilimlariga tayanib, bevosita ko'rib bo'lmaydigan aloqalarni anglab yetishlarini ta'minlaydi;

– obyektning qiyofasi, uning bevosita ko'rish mumkin bo'lgan xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ta'lim oluvchilar o'qituvchining so'zlaridan bilib oladilar, ko'rgazmali vosita esa so'zlar vositasida ma'lum qilingan belgilarni aniqlashtirishga xizmat qiladi;

– ta'lim oluvchilarning kuzatish natijalaridan kelib chiqqan holda pedagog ko'rgazma vositasidagi ko'rinmaydigan aloqalar to'g'risida ma'lumot beradi yoki alohida belgilarni o'zaro bog'laydi, umumlashtiradi.

Kasbiy-pedagogik ta'lim tizimida ko'rgazmali metoddan foydalanilganda o'quvchilarning bilish faoliyati ko'rgazmali vositalar yordamida shakllanadigan yoki esga tushiradigan hissiy obrazlarga, tasavvurlarga bog'liq bo'ladi. Kasbiy-pedagogik ta'lim tizimi uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashda ko'rgazmali qurollar bilimlarni bir tizimga solish va boyitish, shuningdek, o'quvchilarning fikr yuritish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi.

Kasbiy-pedagogik ta'lim tizimi uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashga yo'naltirilgan darslar jarayonida ko'rgazmali metodlarni qo'llashda ko'rgazmali o'quv adabiyotlari, rasmlar, chizmalar, videotasvirlar, multimedialar, tajribaviy mehnat usullarini namoyish qilish hamda o'quvchilarning obyekt va jarayonlarni mustaqil kuzatishi kabilardan foydalanish mumkin.

Ta'limda o'quvchilarning mashqlar, mustaqil topshiriqlar, amaliy va tajriba-sinov ishlari asosida o'quv materialini egallash shakllari ta'limning amaliy metodlari jumlasiga kiradi. Amaliy ta'lim metodlaridan foydalanishda quyidagi usullar keng qo'llaniladi: masalaning qo'yilishi, uning bajarilishini rejalashtirish, tezkor rag'batlantirish, yo'llanma berish va nazorat qilish, yo'l qo'yilgan kamchiliklar sabablarini aniqlash, ta'lim maqsadiga to'la erishishni ta'minlash uchun tegishli tuzatishlar kiritib borish. O'quvchilarda ana shu metodlar yordamida o'quv faoliyatida hal qiluvchi o'rin tutadigan amaliy ko'nikma va malakalar shakllantirilib



boriladi. Ko'nikmalarni egallashning muvaffaqiyati uni shakllantirish sharoitiga bog'liq.

Birinchi shart – ko'nikma nima maqsadda shakllantirilishini anglashdir.

Ikkinchi shart – mashqlarning tizimli bo'lishi.

Uchinchi shart – amaliy harakatlarni anglagan holda bajarish.

To'rtinchi shart – dastlabki amaliy harakatlar va jarayonlarga puxta tayyorlanish.

Beshinchi shart – mashqlarni mustaqil bajarish va o'z-o'zini nazorat qilish.

Oltinchi shart – bajargan mashqlar, amaliy ishlar tahlili va ularni baholash.

Agar ko'nikmani shakllantirish shartlariga rioya qilinsa, o'qitishning amaliy metodlari o'quv materialining muvaffaqiyatli egallanishini ta'minlaydi.

Demak, kasbiy-pedagogik ta'lim tizimida amaliy ta'lim metodlarini og'zaki hamda ko'rgazmali metodlar bilan birgalikda qo'llab o'qitishni amalga oshirishning turli shakllari mavjud ekan. Ta'lim metodlarining qaysidir bittasini afzalroq deb baholash mumkin emas, zarur metodlarni qo'llashni esa har bir mashg'ulot uchun belgilangan vazifalar, mavzu mazmuni, mavjud ko'rgazmali vositalar xususiyatlari, ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib belgilash lozim.

Shunday qilib, oliy kasbiy-pedagogik ta'lim tizimi uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashda ta'lim metodlarini bir-biri bilan bog'lab olib borish:

– oliy pedagogik ta'lim muassasalari ta'lim oluvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam rivojlantirib borishga sharoit yaratib beradi;

– didaktikaning oddiy qoidasiga ko'ra soddadan murakkabga tamoyili asosida ta'limning muayyan bosqichida egallangan bilimlarni yangisi bilan boyitib boradi;

– o'quvchilar bilish imkoniyatlarining rivojlanishiga, mustaqil ishlashga shart-sharoit yaratadi;

– dars samaradorligining ortishi, o'quvchilar tomonidan bilimlarning mustaqil fikrlash, kuch va qobiliyatga asosan egallanishi bilan kasbiy ta'limda kadrlar tayyorlash sifatining ta'minlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Данные Планово-финансового управления Министерства просвещения. Уз. Ф. РНК - 76 - А за 1940 - 1945 г.г.

4. Педагогика фанидан изоҳли луғат / Муаллифлар: Ж.Ҳасанбоев ва бошқ. - Тошкент: «Fan va texnologiya» нашриёти, 2009. - 214-бет.

5. Ўқувчи маънавиятини шакллантириш / Тузувчилар: Ж.Фозиллов, Р.Султонов, Ҳ.Саидов. Нашр учун масъул: Ж.Ф.Йўлдошев. - Тошкент: «Ma'rifat-Madadkor» нашриёти, 2000. - 38-бет.



BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY PEDAGOGIK TAYYORGARLIK DARAJALARI

A.A.NURMATOV,

*O'zDJTU katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarni metodik bilimdonlik darajalarini, pedagogik faoliyatiga tayyorlik mezonlari va shu mezonlar asosida o'qituvchining pedagogik faoliyatga tayyorlik darajasini tavsiflari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *metodik bilimdonlik, kasbiy faoliyat, pedagogik hamkorlik, pedagogik faoliyat.*

The article describes the level of methodical knowledge of future teachers, the criteria of readiness for pedagogic activity and the level of teacher's readiness for pedagogical activity based on these criteria.

Key words: *methodological knowledge, professional activity, pedagogical cooperation, pedagogical activity.*

В статье описаны уровни методических знаний будущих учителей, критерии готовности к педагогической деятельности, а также уровни готовности учителя к педагогической деятельности на основе этих критериев.

Ключевые слова: *методические знания, профессиональная деятельность, педагогическое сотрудничество, педагогическая деятельность.*

Ta'lim-tarbiya jarayonini samarali va oqilona tashkil etish, o'z navbatida, bo'lajak o'qituvchining metodik bilimdonligini muayyan darajada ta'minlash lozim. Garchan o'qituvchining metodik bilimdonligi tushunchasi faoliyatini aniq aks ettirmasada, uning haqiqiy manzarasini ifodalamasada, talab qilingan ma'lumotlilik darajasini namoyon etishi lozim. Bo'lajak o'qituvchining metodik bilimdonlik darajasi esa, quyidagilarda namoyon bo'ladi.

O'qituvchining metodik bilimdonligi va unga nisbatan ijodiy munosabati uning o'z faoliyatini tadbiiq etishi bilan bog'liq quyidagi darajalarda aks etadi:

- 1) topshirilgan vazifani namoyishkorona tarzda bajarishligi, bu tarkiblashmagan daraja sifatida namoyon bo'ladi;
- 2) muayyan faoliyatdan tinchgina uzoqlashishga bo'lgan intilish;
- 3) pedagogik faoliyatni muayyan qoliplar asosida bajarishga bo'lgan intilish, bu eng sust daraja hisoblanadi;
- 4) bajariladigan ishini muntazam takomillashtirish, uning tarkibiga yangiliklar kiritishga bo'lgan intilishlar kiradi;



5) o'z faoliyatini takomillashtirish, boyitishga bo'lgan intilish, bunday intilish ijodiy daraja sifatida baholanadi.

Mutaxassislar o'quv jarayonidagi kasbiy faoliyat darajalarini ham ajratishga intilganlar: 1) nokasbiy xulq-atvor, unga tartibsizlik, noizchilik, egallagan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasiga ega emaslik, ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsiy quvvatlarni maqsadga yo'naltira olmaslik kabilarni kiritish mumkin; 2) uyushmagan xulq-atvor, tarbiyachilik uslubiga ega emaslik, shaxsiy pedagogik nuqtai nazarning vaziyat bilan bog'liq holda vujudga kelishi, tarbiyachilik faoliyatining qisman tarkiblashganligi; 3) me'yorlashgan xulq-atvor, bunday xulq-atvor muayyan namuna bilan bog'liq tarzda amalga oshadi, bunday darajaga ega bo'lgan o'qituvchi namunada ko'rsatilgan tartiblarga o'zgartirishlar kiritadi, lekin bu jarayonda uning shaxsiy-kasbiy bilimdonligi va individual hissasi yaqqol namoyon bo'lmaydi; 4) stixiyali-ijodkorlikka asoslangan xulq-atvor, bunda faoliyatning umumiy, me'yoriy negizida ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotiga asoslangan muayyan ijodiy o'zgarishlar kuzatiladi; 5) konseptual-kasbiy xulq-atvor, bunday xulq-atvorga o'zining shaxsiy pedagogik qarashlari, qat'iy nuqtai nazar, maqsadga yo'naltirilganlik, harakatlarining nazariy jihatdan asoslanganligi, maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyaviy faoliyat xosdir.

Bo'lajak o'qituvchining faoliyat darajasini belgilovchi mezon sifatida pedagogik tafakkurning konseptualligi, xulq-atvori hamda o'z kuchini bosqichma-bosqich faollashtirishi nazarda tutiladi. Agar o'qituvchi odatiy xulq-atvordan boshlab rivojlanish yo'lini o'tasa, hayotiy faoliyatning an'anaviy shakllaridan ongli, ijodiy faoliyat va ijodkorlikdan konseptual turmushgacha hamda kashfiyotlar qilishga asoslangan jarayonni o'taydi.

Pedagogik hamkorlik doirasida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro muloqotlari rivojlanadi. Shu tufayli o'qituvchilar uchun hamkorlik asosida rivojlanish muhim ahamiyatga ega.

Aniq qonunlarga bo'ysungan holda, muayyan bosqichga xos bo'lgan metodologik masalalarni inkor etmasdan, hayotiy faoliyati natijasida insonning taraqqiyot davrlarida uning kasbiy faoliyati rivojlanadi.

Bunday bosqichlarni ajratishda ko'pgina mutaxassislar pedagogik faoliyat tarkibining tahliliga alohida e'tibor qaratadilar. Bunda rivojlanish muammosining yaxlitligi nazarda tutiladi.

Umumta'lim maktablari pedagogikasida rivojlanish maromi va bosqichlari quyidagi tartibda o'lchanadi. Tarkibli munosabatlar nazariyasida o'qituvchining shaxsiy rivojlanishi u faoliyat ko'rsatgan vaqt bilan belgilanadi. Xuddi mana



shunday ichki asosga ko'ra, pedagogik faoliyatning shakllanish bosqichlari uzluksiz pedagogik ta'lim jarayonida amalga oshishi nazarda tutilgan. Pedagogik faoliyatni egallash jarayonida psixologik-didaktik qonuniyatlar tadbiq qilinadi.

Tabaqalashtirilmagan yo'nalishdan bosqichma-bosqich o'qituvchilik mehnatiga o'tilishi pedagogik kasbini chuqur o'zlashtirish imkonini beradi. Shu tariqa bo'lajak o'qituvchi faoliyatida konseptual, mualliflik, ijodkorlik ko'nikmalari tarkib topadi.

Bo'lajak o'qituvchilik faoliyatining izchillikda tarkib topishi, uning kasbiy faoliyat doirasini kengaytiradi. Shu bilan bir qatorda, uning kasbiy taraqqiyotini ta'minlovchi invariant tarkibiy qismlarni ham takomillashtiradi. Bo'lajak o'qituvchining pedagogik faoliyatga tayyorlik darajasini ifodalovchi ko'nikmalar yoki ko'rsatkichlar sifatida muayyan modellarning aniqlanishi, uning turlari, yaxlitligi, tizimligi, vazifasi jihatdan to'liqligi, o'qituvchi shaxsiyatini rivojlantirishga yo'naltirilganligida ifodalanadi.

Bo'lajak o'qituvchining pedagogik faoliyatiga tayyorligi quyidagilar bilan belgilanadi: pedagogik tafakkur falsafasi [1], uni tashkil etuvchi mezonlar va kontseptsiyalar ko'lami; o'zi o'qitadigan o'quv predmetiga yo'naltirilganligi; turli kasbiy vazifalarni bajarishga moyilligi va amaliy jihatdan tayyorligi, uzluksiz kasbiy tayyorgarlik [2] jarayonini o'tash istagining mavjudligi; pedagogik texnologiyalarni samarali o'zlashtirganligi [3]; pedagogik vaziyatlarda o'quvchiga chuqur bilim bera olishi, uni tarbiyalashi [4], mazkur vaziyatlarni tahlil qila olishi, loyihalashi, tashxislashi va tekshira olishi; tadqiqotchilik tajribasiga ega bo'lishi; o'z-o'zini rivojlantirish faolligining namoyon bo'lishi kabilar.

Mazkur ko'rsatkichlar bilan bog'liq tarzda o'qituvchining pedagogik faoliyatga tayyorlik darajasini quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Harakatlar darajasi – umumpedagogik tushunchalar yig'indisi sifatidagi pedagogik tafakkur, muayyan o'quv predmetiga oid tayanch bilimlar, o'zining kasbiy mavqeini himoya qilishga oid mayllar, pedagogik texnologiyalar sohasida – o'quv materiallarini didaktik jihatdan transformasiyalash ko'nikmasi, an'anaviy ta'lim jarayonida tipik pedagogik harakatlar.

2. Fikriy daraja – pedagogik faoliyatning yangi konsepsiyalarini o'zlashtirganligi, pedagogik faoliyat konsepsiyalari, muayyan o'quv predmetiga yo'naltirilganligi, DTSlari doirasida o'quvchilarga bilim berishi va zarur ko'nikma, malakalarni hosil qilishi, kasbiy yutuqlarga erishishga moyilligi [5], turli sohalarda kasbiy faoliyat tajribasiga egaligi, zamonaviy ta'lim-tarbiya texnologiyalarini o'zlashtirganligi, pedagogik muloqot ko'nikmasining mavjudligi.



3. Usullar darajasi – pedagogik faoliyatning muqobil konsepsiyalarini o‘zlashtirganliklari, fundamental-falsafiy, madaniy jihatdan tayyorlikka egaligi, muayyan o‘quv predmetiga yo‘naltirilganligi, psixodiagnostik texnologiyalarni o‘zlashtirganligi, o‘quv muloqotiga kirisha olishi, axborot texnologiyalarni qo‘llay olishi, pedagogik jarayonlarni loyihalashga tayyorligi.

4. Mualliflik ko‘rsatkichlari darajasi – kasbiy tafakkurning metodologik darajasiga erishganligi, ta‘lim falsafasi va shaxsiy konsepsiyasini izlay olishi, muayyan o‘quv predmeti doirasida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini egallaganligi, mualliflik ishlanmalari, qo‘llanmalari, loyihalarini ishlab chiqqan bo‘lishi, pedagogik muloqotning o‘ziga xos yo‘li va metodlariga ega bo‘lishi, ta‘limning yuqori samara beruvchi texnologiyalarini o‘zlashtirganligi, ilmiy-metodik tadqiqot o‘tkazish tajribasining mavjudligi, o‘zining hamfikrlaridan iborat guruhni tuza olishi kabilar.

Adabiyotlar:

1. Umaraliyeva M.A. Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘quvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish: Fals. fanl. d-ri (PhD) ... Avtoref. - T., 2020.

2. Umataliyeva K.T. Kasb-hunar kolleji o‘qituvchining metodik kompetensiyasini uzluksiz rivojlantirishda innovasion ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish: Ped. fanl. fals. d-ri (PhD) ... Dis. - T., 2018.

3. Паладе С. Педагогические технологии в 3 ч. - Ч. 1. Образовательные технологии: <https://www.litres.ru>

4. Kadirova F.R., Kadirova Z.R. Continuing education spiritual and moral development. 2 nd international scientific conference // European Applied Sciences: modern approaches in scientific researches. Hosted by the ort publishing and the center for social and political studies «Premier». - Stuttgart, Germany, 2013. - S. 61-63.

5. http://elib.osu.ru/bitstream/123456789/10728/1/3905_20131107.pdf



O'ZGARUVCHAN TA'LIM PARADIGMASI SHAROITIDA HARBIIY TA'LIM O'QITUVCHISINING KASBIY MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH

A.A.SAMADOV,

*Buxoro davlat pedagogika instituti,
harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi*

Doimiy o'zgarishlar bilan ajralib turadigan dunyoda harbiy ta'limning roli va mas'uliyati yillar davomida sezilarli darajada o'zgardi. Ushbu o'zgarishlar harbiy ta'lim va o'qitish metodologiyasini o'zgartirishni talab qiladi. Harbiy rahbarlarning keyingi avlodini shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan harbiy ta'lim o'qituvchilari ushbu rivojlanayotgan manzaraga moslashishi kerak. O'zgaruvchan ta'lim paradigmasi sharoitida harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish, ularning samarali va dolzarb bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Maqola ushbu transformatsiyaga yordam beradigan texnologiyaga asoslangan yondashuvlarni o'rganadi.

Kalit so'zlar: *harbiy ta'lim, o'qitish metodologiyasi, o'qituvchi, muniy o'rta ta'lim, o'zgaruvchan paradigma, kasbiy mahorat.*

In a world characterized by constant change, the role and responsibilities of military education have changed significantly over the years. These changes require a change in the methodology of military education and training. Military educators, who play a critical role in shaping the next generation of military leaders, must adapt to this evolving landscape. In the context of the changing educational paradigm, it is important to improve the professional skills of military education teachers, to ensure their effectiveness and relevance. This article explores technology-based approaches to help with this transformation.

Key words: *military education, teaching methodology, teacher, secondary education, changing paradigm, professional skills.*

Maktab ta'limida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga va vatanparvarlik tuyg'usiga ega intellektual rivojlangan yoshlarni tarbiyalash; ona Vatan kelajagi uchun o'ziga mas'uliyatni oladigan, Vatan sha'nini himoya qilishga tayyor, mustahkam qarash va qat'iy fuqarolik pozitsiyasiga ega o'quvchi-yoshlarni tayyorlash; o'quvchilarda harbiy burch va harbiy xizmatni ado etishda zarur bo'ladigan professional harbiy va ijodiy ko'nikmalarni shakllantirishda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisining o'rni va kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisining kasbiy rivojlanishini uzluksiz jarayon va kasbiy pedagogik faoliyat sub'ekti sifatida o'z-o'zini ongli, sifatli o'zgartirish natijasi va kasbiy salohiyatni rivojlantirish deb tushunish mumkin.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarining



pedagogik tayyorgarligining izchilligi va sifati Respublikada tashkil etilgan «Temurbeklar» maktabida yoshlarni tayyorlashda muhim omilidir.

Muvaffaqiyatli pedagogik faoliyatning asosi puxta pedagogik tayyorgarlik, pedagogik malaka, kasbiy pedagogika sohasidagi nazariy va uslubiy bilimdir. V. A. Slasteninning ta'kidlashicha, «... pedagogik faoliyat insoniyat tomonidan to'plangan madaniyat va tajribani keksa avloddan yosh avlodga o'tkazish, ularning shaxsiy rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish va ularni muayyan ijtimoiy rollarni bajarishga tayyorlashga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turidir. jamiyat» [3].

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarini kasbiy mahoratini takomillashtirish o'zgaruvchan didaktik ta'minotga asoslangan uslubiy tizimni joriy etishga, metodist lavozimidan turli kasbiy kompetensiyalarni va faoliyatga tayyorgarlikni rivojlantirish muammolarini hal qilishga hissa qo'shishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui sifatida tushuniladi. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarning tayyorgarligi kasbiy mahoratiga qo'yiladigan talablarga javob bermaydi. Bugungi kunda Milliy o'quv dasturiga muvofiq ta'limdagi sifat o'zgarishlari muammolariga e'tiborni kuchaytirish zarurati ortib bormoqda, bu esa chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarining pedagogik tayyorgarligini aniqlaydigan kompetensiyaga asoslangan va subyektiv yondashuvlar asosida maqsadli tashkil etish muammosini dolzarblashtiradi. Maktabda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisining pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlash uchun, bizning fikrimizcha, o'qituvchi ofitserlarni tayyorlash o'zaro bog'liq bo'lgan yo'nalishlarni: psixologik-pedagogik, texnologik va maxsus ma'lumotlarni o'z ichiga olgan tizimda amalga oshirilishi kerak.

Kasbiy pedagogik faoliyatga psixologik-pedagogik tayyorgarlik muayyan xususiyatlarga ega. Ofitser-o'qituvchi faoliyatining o'ziga xosligi quyidagi kasbiy vakolatlarning mavjudligini nazarda tutadi: aks ettiruvchi-pedagogik, tartibga soluvchi va ijtimoiy. Shu bilan birga, professor-o'qituvchilarning samarali pedagogik faoliyati ularning barcha ushbu sohalaridagi kasbiy mahorat darajasi bilan bevosita bog'liq. O'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning texnologik yo'nalishi kursantlarni tayyorlash jarayonida operativ, tashkiliy va kommunikativ kompetensiyalarni, shuningdek, metodik faoliyat texnologiyalari va usullarini rivojlantirishni ta'minlaydi. O'qituvchilarning o'quv faoliyati uchun maxsus axborot tayyorgarligi maxsus, axborot, kompyuter va prognostik kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi. U fundamental kasbiy bilimlarni, shuningdek, ta'limni axborotlashtirish vositalarining asoslarini, o'qituvchilarning shaxsiy amaliy faoliyatida ulardan maqsadli foydalanish qobiliyatini va tizimning keyingi rivojlanishini taxmin qilishni o'z ichiga oladi.

Ish jarayonida harbiy ta'lim o'qituvchilarining pedagogik tayyorgarligi samaradorligini ta'minlaydigan tashkiliy-pedagogik sharoitlar aniqlandi: harbiy o'qituvchilarni o'quv faoliyati jarayoniga moslashtirish; ofitser-o'qituvchining



pedagogik tayyorgarlikka motivatsiyasini va o'z-o'zini tarbiyalash faoliyatiga tayyorligini rivojlantirish; harbiy o'qituvchilar uchun pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy-funksional modelini ishlab chiqish; harbiy o'qituvchilarning pedagogik tayyorgarligi uchun foydali didaktik yordamni yaratish; xodimlarning o'qituvchilik faoliyati uchun kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan vakolatlarni egallashi.

Tadqiqotda biz chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarini kasbiy mahoratini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik shartlarini muhit, kursni belgilaydigan barqaror sharoitlar va ofitserlarning kasbiy va o'z-o'zini qadrlashini o'zlashtirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini aniqladik. Tadqiqotda, shuningdek, kasbiy ta'lim nazariyasining quyidagi tushunchalari berilgan: harbiy o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, tarkibiy-funksional model, didaktik ta'minot, modulli yondashuv, tabaqalashtirilgan yondashuv.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarining kasbiy mahoarti – bu bilimlarni o'zlashtirishga, ofitserlarda o'qituvchi sifatida muvaffaqiyatli pedagogik faoliyat uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalar va kasbiy muhim shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan tashkil etilgan pedagogik jarayon. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari uchun pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy-funksional modeli maqsadli, mazmunli, texnologik, samarali va aks ettiruvchi tarkibiy qismlar va uzluksiz kasbiy mahoratni takomillashtirishni tashqi va ichki muhitini monitoring qilish to'plamidir.

Kasbiy mahoratni takomillashtirish jarayonida tabaqalashtirilgan yondashuv usullar, vositalar va tashkiliy shakllarni tanlashni anglatadi; tanlash, tarkibiy va mazmunli o'quv ma'lumotlarni taqdim etish kabilar.

Mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishni kafolatlovchi ta'limning didaktik maqsad va vazifalari bilan o'zaro bog'langan har xil turdagi kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning majmuini o'z ichiga olgan o'quv-uslubiy majmua; komponentlar majmui: a) maqsadli (ta'limning didaktik, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadlari tizimi); b) substantiv (dars mazmunini fan ichidagi yaxlitlik, kasbiy muvofiqlik, kognitiv motivatsiya, istiqbol, appersepsiya, minimal talab qilinadigan mazmun va vaqt mezonlari bo'yicha tanlash); v) protsessual (muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali bilim olishga qaratilgan o'qitish metodikasi) va boshqalar.

Muammolarni hal qilishni hisobga olgan holda, bizning ishimizda harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy mahoratini takomillashtirish mazmuni va tuzilmasini qurishda quyidagi tamoyillardan foydalaniladi: didaktik foydalilik, izchillik va tizimlilik, modullik, ko'p bosqichli, moslashuvchanlik va chiziqli bo'lmagan.

Didaktik foydalilik tamoyili tizim tuzuvchiga aylanadi va undan boshqa tamoyillar kelib chiqadi, uni amalga oshirish omillarini konkretlashtiradi va aniqlaydi. Darsni loyihalash va ishlab chiqishning foydaliligi ta'lim va rivojlanish natijasini olishga qaratilgan bo'lishi kerak.



Didaktik foydalilikning har bir elementi pedagogikaning yetakchi tamoyillarini hisobga oladigan umumiy natijaga erishishga o'z hissasini qo'shadi: tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ta'lim tamoyili; o'qitish mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllarining fundamentalligi va kasbiy yo'nalishi.

O'zgaruvchan didaktik yordamning tuzilishi. Namunaviy tuzilmaning texnologik komponenti harbiy o'qituvchilarning samarali pedagogik tayyorgarligiga ta'sir qiluvchi turli shart-sharoitlarni hisobga oladigan, tabaqalashtirilgan yondashuvni ta'minlaydigan va ularni tayyorlash jarayonida individual ta'lim traektoriyalarini amalga oshirishga imkon beradigan didaktik foydalilikni amalga oshirishga qaratilgan texnologiya sifatida namoyon bo'ladi. Texnologik komponent harbiy ta'lim o'qituvchilarni kasbiy mahoratini takomillashtirishni tashkil etish usullari, vositalari va shakllarini tanlashni belgilaydi. Shu bilan birga, uning tarkibiga harbiy ta'lim o'qituvchilarini kasbiy bilimlarini uzluksiz oshirish natijalarini to'plash va tahlil qilishni ta'minlaydigan pedagogik monitoring kiradi. Harbiy ta'lim o'qituvchilarini kasbiy mahoratini takomillashtirishda texnologiyadan foydalanish ularda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni ta'minlaydi, o'qituvchilarga maktab ta'limi o'quv jarayonining o'zgaruvchan sharoitlarida yuqori mahsulдорlikka ega «Temurbeklar maktabi» milliy gvardiyachilarini tayyorlashga imkon beradi.

Tadqiqotimiz doirasida harbiy ta'lim o'qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish darajasi ularning texnologiyalar mazmunini o'zlashtirish darajasi va sifati bilan belgilandi. Ushbu maqsad o'qituvchining kasbiy mahoratga ega bo'lgan kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus test topshiriqlarini ishlab chiqishga olib keldi: kommunikativ, texnologik, tartibga soluvchi, aks ettiruvchi va prognostik. O'qituvchi didaktikaning asosiy tushunchalarini bilishi kerak: o'rganish, o'qitish, o'qitish, maqsad, vazifalari, mazmuni, tamoyillari va qonuniyatlari, usullari, o'qitishning tashkil etish shakllari va vositalari va boshqalar. Didaktik takomillashtirish jarayoni doimiy va uzluksiz bo'lishi kerak.

Tadqiqot materiallari asosida biz foydali o'zgaruvchan didaktik yordamni ishlab chiqdik va o'quv jarayoniga kiritdik, jumladan ikkita ilmiy nashr, to'rtta darslik, kompyuter ta'minotini tashkil etuvchi ikkita kompyuter dasturi va to'rtta maxsus kurs. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqilgan didaktik foydalilik o'zgaruvchisi harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini refleksli boshqarish imkonini beradi, o'quv jarayoni haqida to'plangan ma'lumotlarni hisobga olgan holda ularning tayyorgarligi darajasini baholash va yaxshilash imkonini beradi.

Tadqiqot maqsadiga muvofiq qo'yilgan vazifalar hal qilindi, asosiy nazariy xulosalar va qoidalar shakllantirildi. «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani» o'qituvchisi kasbiy mahoratini takomillashtirish toifasi berilgan, kasbiy ta'lim nazariyasining kontseptual apparati aniqlangan: harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi, tarkibiy-funksional model, didaktik ta'minot, modulli yondashuv,



tabaqalashtirilgan yondashuv. Differensial yondashuvni amalga oshirish usullari ishlab chiqilgan. Modulli tarkib, jumladan, kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismlarini rivojlantirishga qaratilgan kurslarni o'z ichiga olgan, modulda kombinatsiyasi o'qituvchilarning mavjud tajribasining dastlabki xususiyatlari bilan belgilanadi. Harbiy ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining shakllangan tarkibiy qismlarini aniqlash uchun test turlari aniqlandi. Harbiy ta'lim o'qituvchilarini kasbiy mahoratini takomillashtirish jarayonining tarkibiy-funksional modeli va o'zgaruvchan didaktik ta'minoti joriy etildi.

Ishlab chiqilgan strukturaviy-funksional model va taklif qilingan didaktik foydalilik o'zgaruvchisidan foydalanish harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish imkonini beradi. Harbiy ta'lim o'qituvchilarni kasbiy mahoratini takomillashtirish uchun tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirish o'qituvchining kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan vakolatlari to'plamini rivojlantirishga yordam beradi: kommunikativ, texnologik, tartibga soluvchi, aks ettiruvchi va prognostik.

Dinamik va doimiy o'zgaruvchan dunyoda harbiy ta'lim o'qituvchilari rivojlanayotgan ta'lim paradigmasiga moslashish uchun yaxshi tayyorgarlik ko'rishlari kerak. Harbiy ta'lim dolzarb va samarali bo'lishini ta'minlash uchun texnologiyani qo'llash va ularning kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirish zarur. Onlayn platformalar, simulyatsiyalar, o'yinlar, ma'lumotlar tahlili va rivojlanayotgan texnologiyalarni integratsiyalashgan holda, harbiy ta'lim kelajakdagi yetakchilarni zamonaviy urushning murakkab muammolariga javob berishga tayyorlaydi. Kasbiy rivojlanish va hamkorlikka sodiqlik XXI asrda harbiy ta'limning doimiy mukammalligini ta'minlab, ushbu o'zgarishlarda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Podlasy I. P. Pedagogika: 100 ta savol - 100 ta javob. M., 2004-yil.
2. Kopytova N. E., Makarova L. N. Oliy maktab o'qituvchisining kasbiy faoliyatidagi konstruktiv va dizayn funktsiyasi // Tambov universiteti axborotnomasi. Gumanitar fanlar seriyasi. 2014 yil. No 5(133). 30-35-betlar.
3. Педагогика : учебное пособие для студ. пед. учеб. заведений / В. А. Сластенин [и др.] - 3-е изд. - М. : Школа-Пресс, 2000. - 512 с.
4. Скибицкий, Э. Г. Теория и практика педагогической подготовки преподавателей высших военных учебных заведений : монография / Э. Г. Скибицкий, Э. Ж. Ахметова. - Новосибирск : САФБД, 2012. - 227 с.



*Jurnalning ushbu sonini
tayyorlashda qatnashganlar:
L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan
03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan
ro‘yxatdan o‘tgan.*

*«Uzluksiz ta‘lim» jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK
rayosatining 2013 yil 30 dekabrda 201/3-sonli qarori bilan
pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar
ro‘yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to‘liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi
6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi
bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 06.02.2023 y. Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

**«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.
Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko‘chasi, 28-uy.**